

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-1>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джурев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umaroglu

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibdulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz


Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Нурмуратов Анвар Яхшибаевич МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИМКОНИАТ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.....	4
2. Yusuf Nurmammedov Shakarboyevich, Bahodir Nurmammedov Shakarboyevich QO'SHRABOT TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK VA SINTAKTIK TALQINI.....	11
3. Mukhayyo Fayzullaeva SYMBOLIC REPRESENTATIONS OF RELIGIOUSLY MARKED ALLUSIONS IN THE LITERARY TEXT.....	17
4. Сапарова Мохира Файзуллаевна ПЕРЕВОДЧЕСКОЕ ИСКУССТВО, В ЧАСТНОСТИ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗНАНИЙ О ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ.....	23
5. Dilnoza Baxodirovna Buronova MUALLIF BADIY USLUBINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.....	31
6. Abduraxmonova Nilufar Zaynobbiddin qizi, Raximov Xasanboy Komiljonovich O'ZBEK TILI SENTIMENT ANALIZNING NAZARIY MASALALARI.....	35
7. Elov Botir Boltayevich, Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, Xusainova Zilola Yuldashevna NLPNING ZAMONAVIY ALGORITMLARI VA KONSEPSIYALARI.....	41
8. Xurshida Narxodjayeva RASMIY MULOQOT MATNINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	57
9. Ulikova Mavluda TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASINI AKS ETTIRISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI.....	62
10. Абдувалиев Махаматжон Арабович КОНЦЕПТЛАР ТАДҚИҚИДА ЛИНГВИСТИК КОНТЕКСТНИНГ ЎРНИ.....	67
11. Эргашева Зиёда Абдурасуловна КАУЗАЛЛИК ВА СУБЪЕКТИВЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ.....	73
12. Мардонова Ситора Мардоновна СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ, ВХОДЯЩИХ В 4 КАТЕГОРИИ В ДРЕВНЕАНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....	77
13. Аманов Рахмон Асдонович, Шарипова Латифа Хакимовна БАЛОҒАТ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИ ҚИЗЛАРДА ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИГИ ВА ЯШИРИН ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИК КЛИНИКАСИ ВА ДИАГНОСТИКАСИ.....	83
14. Хамидов Лутфулло Паизуллаевич БАНК МАТНЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИНИ ЯРАТИШ МУАММОСИ.....	87
15. Туракулова Зарина Мардонкуловна УСТАРЕВШАЯ БИБЛЕЙСКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ПАССИВНОГО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО СОСТАВА РУССКОГО ЯЗЫКА.....	91
16. Халимова Фируза Рустамовна КОНЦЕПТ МАЙДОН ТИЗИМИ СИФАТИДА.....	96
17. Вохидов Абдувахоб ТОЖИК ТИЛИНИНГ САМАРҚАНД ШЕВАСИДА ЙАК(БИР) СОНИ БИЛАН ҲОСИЛ ҚИЛИНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТЎҒРИСИДА.....	101
18. Азимова Сайёра Хусанбоевна ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ТЕОРИИ ЯЗЫКА.....	107
19. Tair Akimov XITOIY TILIDAGI IBORA, MAQOL VA MATALLARNING QIYOSI TAHLILI.....	113
20. Maftuna Ibodullayeva Habibullayevna TEACHING INTERACTIVE WAYS OF CONDUCTING RESEARCH TO THE STUDENTS OF HIGHER EDUCATION.....	121
21. Fayzullayeva Dilnoza Ubaydullayevna INCREASING THE ACTIVITY OF STUDENTS IN EDUCATION THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES.....	128



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Нурмуратов Анвар Яхшибаевич
Самарқанд давлат чет тиллар институти
мустақил изланувчиси

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИМКОНИЯТ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Мақолада масофавий таълимнинг объектлари сирасига кирувчи компонентлар, масофавий таълимнинг ташкилий қисмлари, масофавий таълим технологияларининг имконият ва хусусиятлари, масофадан туриб таълим олишни таъминлаш масалалари таҳлил қилинган. Шунингдек, мақолада масофавий таълим ташкил этишнинг имконият ва хусусиятлари, масофавий таълимни ташкил этишда замонавий таълим технологиялари, ахборот-коммуникация технологиялари бўлган - видеоконференциялар, аудиоконференциялар, мултимедиалар, интернет ва электрон почта хизматлари, радио ва телекурслар, веб-трансляция воситаларидан унумли фойдаланиш масалаларига эътибор қаратилган. Мақолада келтирилган маълумотлар орқали масофавий таълим жараёни ва унинг аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: масофавий таълим, таълим, метод, таълим технологиялари, таълим сифати, анъанавий ўқитиш, техник воситалар, виртуал таълим, ахборот-коммуникация технологиялари, радио ва телекурслар, аудиоконференциялар, видеоконференциялар, мултимедиалар, интернет.

Нурмуратов Анвар Яхшибаевич
Независимый исследователь

Самаркандского государственного института иностранных языков

ВОЗМОЖНОСТИ И ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются компоненты, входящие в состав объектов дистанционного образования, организационные формы и вопросы обеспечения дистанционного образования, а также возможности и особенности дистанционных образовательных технологий. В статье акцентируется внимание на эффективном использовании образовательной информации, образовательных технологий, информационно-коммуникационных технологий, радио и телекурсов, аудиоконференций, видеоконференций, мультимедиа, сервисов интернет-коммуникаций и электронной почты, инструментов веб-вещания как возможностей и особенностей организации дистанционного образования. В статье освещается процесс дистанционного образования и его важность.

Ключевые слова: дистанционное образование, образование, метод, образовательные технологии, качество образования, традиционное обучение, технические средства, виртуальное образование, информационные и коммуникационные технологии, курсы радио и телевидения, аудиоконференции, видеоконференции, мультимедиа, Интернет.

Nurmuratov Anvar Yakhasbaevich

Independent researcher of Samarkand

State Institute of Foreign Languages

PRIORITIES AND FEATURES OF ORGANIZING DISTANCE EDUCATION

ABSTRACT

The article analyzes the major components of distance education. These include the organizational parts of distance education, the possibilities and features of distance education technologies, and the issues of providing distance education.

Also, the article focuses on the effective use of educational information, educational technologies, information and communication technologies, radio and telecourses, audio conferences, video conferences, multimedia, Internet communication services, e-mail, web broadcasting tools as possibilities and features of distance education organization. Through the information presented in the article, the distance education process and its importance are highlighted.

Key words: distance education, education, method, educational technologies, quality of education, traditional teaching, technical tools, virtual education, information and communication technologies, radio and television courses, audio conferences, video conferences, multimedia Internet.

Кириш

Бугунги кунда жаҳон миқёсида замонавий таълимнинг энг муҳим ва ривожланаётган шакли сифатида - масофавий таълим талабанинг мустақил фикрлаш, вазиятни баҳолаш, ҳулоса қилиш қобилиятларини ривожлантирувчи ўқитишнинг янгича замонавий шакли ҳисобланиб, талабанинг мустақил билим олишга, изланишга, фикрлашга ўргатади.

Масофавий таълимнинг афзаллиги шундаки, ҳар ким ўзига қулай вақтда, қулай жойда ва қулай шароитда билим олиши мумкин бўлади. Шу туфайли ушбу таълим тизими бугунги кунда дунёда кенг оммалашмоқда.

Адабиётлар таҳлили

Миллий қонунчилигимизда бу борада қуйидагича таъриф берилган: “Масофавий таълимнинг мақсади ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида талабанинг турар жойидан қатъи назар, унга таълим дастурларини ўзлаштириш учун имконият тақдим этиш, талабаларнинг қизиқишлари, иқтидори ва эҳтиёжларига мувофиқ касбий салоҳиятини ривожлантиришдан иборат”[1]

Шундай экан, масофавий таълимни ташкил этишда – таълим воситалари, яъни, услуб, метод, техник ва технологик воситалар муҳим аҳамият касб этади. Масофавий таълимнинг объектлари сирасига кирувчи мазкур компонентлар масофадан туриб таълим олишни таъминлаб, ўз иштирокига кўра қатор хусусиятларни намоён этади. Соҳа бўйича таниқли олим Мери Бернснинг фикрича, “Методлар объект сифатида масофавий таълимнинг асосий меъзонларидан биридир. У нафақат таълим, балки барча соҳаларда ҳам етакчи аҳамият касб этувчи жиҳат ҳисобланади” [2;231]. Масофавий таълимдаги усуллар таълимнинг сифатли олиб борилишида муҳимлигини ҳисобга олиб, унинг бир қатор хусусиятларини очиб беришга ҳаракат қиламиз.

Тадқиқот методологияси

Масофавий таълимни ташкил этишда ОТМлар ўзида анъанавий таълимнинг бир қатор хусусиятларини ўзида сақлаган ҳолда аудиторияларда маъруза машғулотларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида талабаларга тақдим этмоқда. Бу ерда ҳам

анъанавий таълимда бўлганидек аудитория бор, бироқ унинг иштирокчилари визуал тарзда эмас, балки виртуал ҳолда таълим олишади. Юқоридаги техник воситалар, вақт ва макон, ўқитиладиган фан мавзуларининг мазмуни, дарс машғулотларини ташкил этишда қатнашган таълим ва ахборот технологияларининг тури ва иштирокига қараб, тур ва туркумларга бўлинади.

Россиялик олим А.И. Шутенконинг тадқиқотларида “масофавий таълимни ташкил этадиган объектларини, яъни, уни ташкил этишда иштирок этадиган ахборот технологияларни қуйидаги уч катта гуруҳга бўлади: 1) таълим ахборотларини узатишга ёрдам берувчи технологиялар; 2) таълим ахборотларини ўзаро алмашишга қўмаклашувчи технологиялар; 3) таълим ахборотларни сақлаш ва уларни қайта ишлашда иштирок этувчи технологиялар” [3;58].

Таҳлил ва натижалар

Шу ўринда таъкидлаш керакки, компьютер технологиялари воситасида алмашинадиган информацион маълумотлардан таълим ахборотларининг фарқи шундаки, унинг замирида таълим ва у боғлиқ жараёнлар ётади. Ушбу жиҳатларни фарқлаб олиш учун масофавий таълимнинг ташкилий қисмини қуйидаги уч таркибий қисмга бўламиз ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида тўхталиб ўтамиз:

- 1) *таълим манбаси, яъни, таълим ахбороти;*
- 2) *таълим технологиялари;*
- 3) *ахборот-коммуникация технологиялари.*

Таълим манбаси, яъни, таълим ахбороти. Ҳар қандай таълим тизими ўзининг фундаментал асосига эга. У айнан шу жиҳати билан оддий кундалик ахборотдан фарқ қилади. “Визуал – анаъанавий ҳамда виртуал – масофавий таълимда ҳам тингловчиларга билим ва кўникмалар берилади. Ушбу билим ва кўникмалар муайян фан асосини ташкил этиб, ўзида ишончлилиқ ва фойдалилиқ жиҳатларини намоён этади” [4;3-5]. Шундан келиб чиқиб, анъанавий ва масофавий таълим, яъни, таълимнинг жамики кўринишида билим ва тажриба орттириш мақсади мужассам экан, уар ўртасидаги фарқ таълимни тақдим этиш субъектининг ўзгаришида бўлади.

Маълумки, масофавий таълим олиш жараёнидаги тингловчилар олдида аудитория муҳити бўлмаслиги, бўлган тақдирда ҳам унинг компонентлари – рақобатбардошлиқ, фаол мулоқот, психо-педагогик таъсир ва бошқалар тўла ҳис этилмаслиги мумкин. Бу эса таълим манбалари яратувчилари зиммасига қатор масъулиятларни юклайди. Анаъанавий таълимдаги дарсликларда аксарият кўп ўринларда илмий ахборот берилишига урғу берилади. Ҳозирги кунда масофавий ва анъанавий таълим жараёнида дарсликлар масаласи унификация қилинмаган. Асосан ҳар икки таълим шаклида ҳам бир хил адабиётлардан фойдаланилиб, уларни фарқловчи жиҳат масофа, таълим техноло-гияси ва уни узатувчи ахборот-коммуникациялари билан боғлиқ бўлмоқда.

Масаланинг ечимини таълим технологиялари орқали тўла ҳал қилиб бўлмайди. Негаки, кўплаб таълим технологиялари масалан, видеоконференция, аудиоконференция, теледастурлар орқали олиб бориладиган таълим муайян соатни қамраб олади ва шу вақт оралиғида тингловчиларга топшириқ берилади. Қолган жараёнлар олдида таълим олувчи ёлғиз қолади. Яъни, у кутубхонага олдингидек дўстлари билан бормади, олган билимларини уни ўраб турувчи кенг аудитория олдида эмас, балки жўнгина компьютер ёки мобил қурилма ёнида баён қилиши, ёки улар муайян синов платформаси натижасида баҳоланиши мумкин. Масофавий таълим ҳақида сўз борганда, кўпчилиқ олий таълим тизимини кўз олдига келтириши мумкин. Негаки, пандемияга қадар масофавий таълим борасидаги асосий ишлар шу тизимда амалга оширилди. Ваҳоланки, олий таълимда масофавий таълим олаётган талабалар синф ва жамоавий дарс машғулотларидан ўтган, ўзида билим олишга оид мотивацияни қисман бўлсада шакллантирган бўлади.

Таълим технологиялари. Таълим манбалари ва масофавий таълим методлари таълим технологиялари орқали виртуал аудиторияга ҳавола этилади. Шу жиҳатдан, масофавий таълим технологиялари ҳам турфа бўлиб, уларни асосан қуйидаги катта гуруҳларга бўлиб

кўрсатишимиз мумкин. Кейинги гуруҳланиш уларнинг ичида содир бўлади. Масофавий таълим технологиялари ўзида қатор имконият ва хусусиятларни намоён этади. Ҳозир куйида биз уларнинг асосий типлари билан танишиб чиқамиз.

Радио ва телекурслар. Масофавий таълимнинг асоси илк электрон технологияларга кўчишига мисол тариқасида радио ва телевидения орқали олиб борилган масофавий таълимни кўрсатишимиз мумкин. Интернет ва компьютер технологиялари ҳали ривожланмаган бир пайтда радио ва телевидения орқали олиб борилган масофавий таълим виртуал таълимнинг етакчи тури бўлганлиги сир эмас. Бугунги кунда радио эшиттириш ва телекўрсатувлар воситасида олиб бориладиган масофавий таълим қўлланилиши учун куйидаги сабабларни мисол тариқасида келтиришимиз мумкин:

- дунёнинг ҳамма жойида ҳам интернет сифати яхши эмас;
- кам ривожланган, аҳолининг харид қуввати паст давлатларда интер-нет ва у билан боғлиқ технология учун сарф этиладиган маблағнинг камлиги;
- интернет ва компютер технологияларидан фойдаланиш имконияти чекланган ёшларнинг мавжудлиги;
- масофавий таълимдаги электрон технологиянинг классик намунаси сифатида мавжуд бўлган радио ва телевидения тизимида шаклланган дарс ўтиш тажрибаси ва материалларнинг мавжудлиги;
- фавқулодда ҳолатлар, эпидемиялар ва пандемиялар шароитида оммавий масофавий таълимга ўтиш даврида интернет тармоқлари давлатнинг ҳамма жойида ҳам бир хил тезликда ишламаслиги, уларга тушадиган босимнинг юқорилиги сабаб узилишларнинг мавжудлиги шароитида алтернатив сифатида сақлаб қолиниши.

Таълимдаги мослашувчанлик етарли эмаслиги, масофавий таълимнинг алтернативлари билан ҳисоблашмаслик фонида кўплаб давлатларда пандемия даврида таълим инқирози юз берди. Бу борада, “Save the Children” халқаро болалар ташкилоти томонидан дунёдаги 37 мамлакатда 8000 нафар мактаб ёшидаги болани ўрганиб, 10 та боладан 8 таси пандемия билан боғлиқ таълим инқирози даврида самарали билим ололмаганлигини тасдиқлади” [5].

Бу масофавий таълимда мослашувчанликнинг йўқлиги, ҳеч бўлмаганда биринчи авлод масофавий таълим технологияларидан фойдаланмасликнинг оқибати эди.

Аудиоконференциялар. Мавзкур конференциялар ўқувчиларни реал вақт режимида боғлашга хизмат қилади. Таниқли амеркалик олим К.Харрининг таъкидлаганидек, масофавий таълим интернет ва компьютер технологиялардан олдин пайдо бўлган. Компютер технологиялари уларнинг ривожланиши учун ҳисса қўшган ҳолос [6;122-124]. Бунда ўқувчилар ҳозирги онлайн конференциялар орқали ўқитувчи билан боғланишади. Дарсларни фақат биргина сезги анализатори – эшитиш орқали қабул қилиш мумкин бўлади. Бу тизимларнинг имконияти бугунги масофавий таълимнинг бошқа технологиялари билан солиштирганда кам аҳамият касб этади. Шундай бўлсада, ҳозирда ҳам интернет глобал тармоғининг ҳамма жойида бирдек ишламаслигини ҳисобга олсак, ушбу методдан ҳам кўплаб мамлакатларда фойдаланилади.

Видеоконференциялар. Масофавий таълимда тингловчиларни маърузачи билан, тингловчиларни тингловчилар билан реал вақт режимида боғлашда видеоконференциялар етакчи аҳамият касб этади. Аудио ва видеоконферен-циялар реал вақт режимида дарс берувчи ва тингловчиларни боғлаши билан ўхшаш бўлса, имконият жиҳатидан катта фарқ намоён бўлади. Замонавий технологияларнинг тараққиёти видеоконференцияларнинг масофавий таълимда қўлланилиши учун замин ҳозирлаган.

XX аср охири ва XXI аср бошларидаёқ дунёнинг қатор давлатларида масофадан ташкил этилган видеоконференцияли дарс машғулотларининг самарадорлиги текширилди. Шундай тажрибалардан, 1996-2002 йилларда Шимолий Ирландия ва АҚШ педагогларининг ҳамкорликдаги ишлари эди [7;397-405]. Кўришимиз мумкинки, бу тажриба 20 йил олдин, интернет бугунгидек 4G ва 5G тезликка эришмаган бир пайтда ўзини оқлади, дейишимиз асос бўлади.

Бугун Ўзбекистон таълим тизимида ҳам видеоконференция алоқа тизими бугун янгилик эмас, негаки мамлакатимиздаги олийгоҳлар ўртасида 2012 йилдаёқ видеоконференция алоқа хизмати йўлга қўйилган ва бугунги кунда уни фаол қўллаш учун етарли тажриба тўпланган” [8;3]. Шу жиҳатдан келиб чиқиб, видеоконференция алоқани сифат жиҳатдан ривожлантириш орқали масофавий таълимдаги виртуалликда, визуалликни ҳис қилиш имкониятини яратиш мумкин. Кўпроқ мулоқот элементини тақоза этадиган соҳалар, хусусан, чет тилларни ўрганиш борасидаги билимларни видеоконференция алоқа орқали олиб бориш яхши самара беради. Манбаларда келтиришича, биргина “Австралияда олий таълим тизимида видеоконференцияга асосланган масофавий дарс машғулотларининг жорий этилиши олий таълимни қишлоқ ҳудудларига 500 %гача ёйиш имкониятини берган. Видеоконференция алоқадан анъанавий таълимда, масофавий таълимда ва халқаро таълим ҳамкорлигида фойдаланиш ўз ташкилий тузилиши ва мақсадига кўра муайян хусусиятларни ўзида мужассам этади” [9;59]. Хусусан, анаъанавий таълимдаги конференция алоқа ҳам масофадан олиб борилиши мумкин, бироқ энди ундаги хусусият изчил таълим эмас, балки санокли тажриба алмашишдан иборат бўлиши мумкин.

Мултимедиялар. Масофавий таълимнинг мултимедияли технологиялари - “синхрон ва асинхрон масофавий таълимда ҳам бирдек аҳамият касб этадиган воситалардан биридир” [10;933-940]. Улар ўзида видео, графика, турли харита ва пиктограммаларни жамлай олади. Ушбу технологиядаги ишланмалар “DVD, SD, HDD, SSD хотира сақлагичлар, шунингдек, видео ва аудио кассеталарда сақланганлиги боисдан ҳам онлайн, ҳам оффлайн кўчириш учун қулайдир” [4;3-5]. Мултимедия технологиялари масофавий таълимнинг кўргазмалилик қисмини ташкил этиши билан ҳам аҳамиятли ҳисобланиб, мослашувчанлик жиҳати билан ажралиб туради. Мултимедия воситалари ёрдамида масофавий таълим манбалари ададини осон кўпайтириш ва сақлаш имкони юзага келади.

Уларнинг масофавий таълимни сифатли ташкил этишдаги қулайлиги қуйидагилардан иборат:

- масофавий дарс машғулотида кўргазмалилик имконияти ошади;
- ҳар қандай мултимедияли таълим маҳсулоти олинган билимларни такрорлашда самарадорлик ошишида муҳим саналади;
- ўзида расм, видео, пиктограмма, хариталар, алгоритмли симуляциялар, дидактик ўйинлар, махсус лойиҳалар, тадқиқот ва бошқаларни мужассам эта олади;
- тингловчида ўз устида ишлаш, мултимедия воситаларидан фойдаланган ҳолда мустақил ҳолда таълим олиш имкониятини беради;
- юқори даржадаги интерактивликни намоён этади;
- муҳокама ва кўрсатмалар, махсус алгоритмик кетма-кетликларнинг ёзиб олинган электрон нусхасини сақлаб қолиш ва ундан исталган вақтда фойдаланиш;
- тежамкор ва ташишга қулай;
- формат ва тарқатишда мослашувчан;
- унинг доирасида яхлит мултимедия дастур яратиш имкониятининг мавжудлиги кабилар.

Масофавий таълим бўйича изланишлар олиб борган турк тадқиқотчиси Аскин Асан мултимедия технологияларининг масофавий таълимдаги ўрни ҳақида шундай деган эди: “XXI аср авлоди олдинги авлоддан ажралиб турадиган ўзига хос хусусиятларга эга. Технология бу авлод одамларининг ҳаётини ўзгартирди. Ушбу авлоднинг аксарият одамлари компьютерлар, видео ўйинлар, рақамли мусиқа плеерлари, видеокамералар, мобил телефонлар ва ушбу рақамли асрнинг бошқа барча қурилмалари ва воситаларидан фойдаланишлари мумкин. Ушбу технологияга бой маданият рақамли аср одамларининг кўникмалари ва қизиқишларига таъсир кўрсатди. Бу ёшдаги талабалар ахборотга кириш ва бошқалар билан мулоқот қилишда коммуникация технологияларига боғлиқдирлар” [11;21-34]. Тадқиқотчи А.Асан таърифи билан айтганда, бугунги таълим олувчиларга таълимни шу куннинг руҳияти билан бериш самаралидир. Яъни, замонавий дарс машғулотларини олиб боришда мултимедия технология воситаларининг қўлланилиши ижобий самарадорликка олиб келади.

Интернет алоқа хизматлари ва электрон почта. Почта хизматлари ҳам қайсидир маънода виртуалликка кўчи. Энди почталонларнинг асосий хизмат кўрсатиш фаолияти моддий ашёларни етказиб беришдан иборат бўлмоқда. Матнли ахборотлар интернетга кўчи. Бу, албатта, қулай, тезкор, ишончли ва хавфсиз алоқа алмашиш усулидир. Дастлаб почта асосида қуртак отган масофавий таълим бугунги кунда ҳам унинг замонавий авлоди имкониятларидан фойдаланмоқда. Таъкидлаш жоизки, “самарали мулоқот нафақат анаънавий таълим, шу билан бирга, масофавий таълимни амалга оширишда ҳам муҳим рол ўйнайди” [4;3-5]. Бундай виртуал хабар аламшувчи хизматларга “2014 йилда Ўзбекистонда ўз фаолиятини бошлаган миллий почтаміз *umail.uz*, шу билан бирга, Ўзбекистон алоқа-коммуникация тизимида фаол фойдаланилаётган *gmail.com*, *mail.ru*, *outlook*, *mail.com*, *yandex.ru* каби электрон почталар, ижтимоий тармоқ мулоқотини таъминловчи *odnoklassniki*, *whatsapp*, *telegram*, *twitter*, *facebook*, *instagram* каби мессенжерларни киритишимиз мумкин” [12]. Мазкур хизматлар ёрдамида маълумот алмашиш билан бир қаторда, махсус гуруҳларга бирлашиш, фан-клублар ташкил этиш, муайян мавзу объекти юзасидан очиқ муҳокома ўтказиш мумкин. Виртуал хабар алмашиш ўқитувчи ва ўқувчи, ўқувчи ва ўқувчи ўртасидаги ҳамкорлик масаласини мустаҳкамлайди. Электрон хабар алмашиш воситалари ёрдамида ўқитувчи учун талабалар билан индивидуал ишлаш имконияти вужудга келади. Талабалар ўз билмаганларини тортинмай сўраб ололади. Негаки, мазкур мулоқотда унинг учун аудитория босими йўқ. Ёзма мурожаат қилиш натижасида у ўзи билмаган муаммони матн ҳолида баён этиш кўникмаси шаклланади.

Веб-транслация воситалари. Аудио ва видео тақдимотларни интернет орқали етказиб бериш ва дарс машғулотларини амалиёт талаб этадиган соҳаларда фойдаланиладиган янги ўқув технологияси бўлиб, ўқувчиларга шахсий компьютер орқали жонли дарсга яқинлашган машғулотларда қатнашиш имконини беради. Веб-транслациялар синхрон ва асинхрон шаклда олиб борилиши мумкин. Синхрон жонли узатилган дарс жараёнидаги транслация бўлиши мумкин. Бунга мисол тариқасида рақамли симуляцияларни келтириб ўтишимиз мумкин. Бу усул ҳамширалик, табиий фанлар, лаборатор тарғиблар каби соҳаларда машҳурдир. Унинг ўқитувчилар учун афзаллиги шундаки, улар шифохона, иссиқхона ёки лаборатория хонасида бўлмасдан туриб ҳам, талабаларнинг клиник ва фанга оид кўникмаларини ривожлан-тиришга имкон беради.

Рақамли симуляциялар масофавий таълим технологиялари тўпламида эътиборга олинган муҳим компонент ҳисобланади, чунки улар талабаларнинг танқидий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради, виртуал “амалий” ўрганишни таъминлайди ва билимларни курс материалларидан амалиётга ўтказишда кўмаклашади.

Ахборот-коммуникация технологиялари. Масофавий таълим ахбороти ва масофавий таълим технологияларини виртуал оламда қўллаш имкониятини ахборот-коммуникация технологиялари таъминлаб беради. Бу технологиялар радио, телевидения ва интернетни тақдим этаётган воситаларни ўз ичига олади. Масофавий таълимни олиб боришда асосий восита бўлган ушбу технологиялар ўз доирасида катта гуруҳланишни ҳосил қилиши, улар ҳам ўз хусусиятига кўра турли хил бўлиши мумкин. Шундай экан, “ахборот-коммуникация технологиялари томонидан масофавий таълимни олиб боришда кўмаклашувчи ушбу воситаларни 5 та асосий йўналишга бўлишимиз мақсадга мувофиқ бўлади:

- масофавий таълим беришни бошқариш;
- масофавий таълимда ҳамкорликни таъминловчи;
- самарадорлик ва натижадорликни таъминловчи;
- рақамли симуляцияни таъминловчи;
- махсус ёрдамчи технологиялар” [13].

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда жаҳонда таълим турларининг кўпайиши уларнинг такомиллашувига замин яратмоқда. Таълим олувчилар сонининг ортиши ва уларга бўлган бугунги талаб масофавий таълим шаклининг кенг қўлланишига олиб келмоқда. Яъни, таълим жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг жорий этилиши анъанавий

ўқитиш усулларига қўшимча равишда янги ўқитиш шакли - масофавий ўқитиш шаклини яратилишига олиб келади. Шундай экан, мамлакатимизда масофавий таълимнинг жорий этишда хорижий давлатларнинг илғор тажрибасидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида НИЗОМ” ВМ- 559-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/6221502#6224216>
2. Burns M. Distance Education for Teacher Training: Modes, Models, and Methods. – Washington: EDC, 2011. – pp.231.
3. Шутенко А.И. Информационные технологии дистанционного обучения как инструменты повышения доступности и полноценности вузовской подготовки // Научный журнал «Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири» №4. -2016. – С.58.
4. Охрименко Е.И. Особенности дистанционного обучения в высшей школе: методы и технологии образования. // X Международная научно-методическая конференция «Новые организавательные технологии в вузе», Екатеринбург, 2012. – С. 3-5.
5. Protect a Generation: The impact of COVID-19 on children’s lives // <https://www.savethechildren.org/content/dam/usa/reports/emergency-response/protect-a-generation-report.pdf>
6. Harry K. Basic Education at a Distance. – New York: Taylor & Francis e-Library, 2001. – pp.122-124.
7. Martin M. Seeing is believing: the role of videoconferencing in distance learning. // Vol 36, No 3. British Journal of Educational Technology. – British Educational Research Association, 2005. – pp.397–405.
8. Temirov Sh. Axborot texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. // Vol. 2. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. – Toshkent, "Oriental Renaissance", 2022. – pp.3.
9. Muzhir H.D. The role of video conferencing in the development of pragmatic competence in Iraqi EFL university classes. // Iss. 38. The Internet Journal Language, Culture and Society. – Australia, 2013 y. – P. 59.
10. Baacha N. Role of Multimedia Tutorials in Distance Education. // International Journal for Infonomics, Vol. 7, Iss. 3/4, 2014. – pp.933-940.
11. Asan, A., (2003). ‘School experience course with multimedia in teacher education’ Journal of Computer Assisted Learning (2003) 19. – pp.21-34.
12. <https://m.daryo.uz/2013/05/17/ozbekistonda-umail-uz-milliy-elektron-pochtasi-ish-boshladi/>
13. <https://www.wwt.com/article/five-technology-must-haves-distance-learning#five-technology-tools-to-improve-the-distance-learning-experience>



Yusuf Nurmuhammedov Shakarboyevich

SamaDCHTI katta o'qituvchisi

nurmuhammad.yu@gmail.com

Bahodir Nurmuhammedov Shakarboyevich

SamaDCHTI mustaqil izlanuvchisi

bnurmuhammedov@gmail.com

QO'SHRABOT TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK VA SINTAKTIK TALQINI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTASIYA

Toponimlar millat, hudud tarixi, madaniyati va til ravnaqining turli davrlari o'z ifodasini topadi. Geografik nomlarni o'rganish hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Toponimlarning geonimlar guruhi oykonim, oronim va gidronim subkategoriyalarga ajratiladi. Hozirgacha mavjud o'zbek manbalarida ayrim areal toponimlarning etimologiyasi ochib berilmagan. Ushbu maqola shu kabi toponimlarning kelib chiqishi va semantikasini etimologik va sintaktik tahlillar yordamida ochib berishga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: toponim; geonim; oronim, oykonim; gidronim; mikrotoponim, sintaktik talqin.

Юсуф Нурмухаммедов Шакарбоевич

Старий преподаватель СамГИИЯ

nurmuhammad.yu@gmail.com

Баходир Нурмухаммедов Шакарбоевич

Независимый исследователь СамГИИЯ

bnurmuhammedov@gmail.com

ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ И СИНТАКТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕКОТОРЫХ НАЗВАНИЙ В КОШРАБОТСКОМ РАЙОНЕ

АННОТАЦИЯ

Топонимы выражают историю, культуру и языковое развитие народа, региона и разных периодов. Изучение географических названий является одной из актуальных проблем современного языкознания. Геонимическая группа топонимов делится на подкатегории ойконимы, оронимы и гидронимы. Этимология некоторых региональных топонимов в доступных узбекских источниках до сих пор не раскрыта. В данной статье основное внимание уделяется выявлению происхождения и семантики таких топонимов с помощью этимологического и синтаксического анализа.

Ключевые слова: топоним; геоним; ороним; ойконим; гидроним; микротопоним; синтаксическая интерпретация.

Yusuf Nurmammedov Shakarboyevich

Senior teacher of SamSIFL
nurmammedov.yu@gmail.com

Bahodir Nurmammedov Shakarboyevich

Independent researcher of SamSIFL
bnurmammedov@gmail.com

ETYMOLOGICAL AND SYNTACTICAL INTERPRETATION OF CERTAIN NAMES IN KOSHRABOT DISTRICT

ANNOTATION

Toponyms express the history, culture, and language development of the nation, region, and different periods. The study of geographical names is one of the topical issues in modern linguistics. Geonym group of toponyms is divided into subcategories oikonym, oronym and hydronym. The etymology of some regional toponyms has not been revealed in the available Uzbek sources so far. This article focuses on revealing the origin and semantics of such toponyms with the help of etymological and syntactic analysis.

Keywords: toponym; geonym; oronym; oikonym; hydronym; microtoponym; syntactic interpretation.

Ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo'lgan toponimik manbalarni o'rganish o'z tariximizni chuqur bilish va tushunib yetishga, natijada barkamol shaxs sifatida shakllanishimizga yo'l ochadi, zero "xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi" [3, 71]. Jahon tilshunosligida geografik obyektlarga atab qo'yilgan nomlar o'zida nafaqat muayyan joy tarixi haqida ma'lumot tashiydi, balki shu bilan birgalikda, lingvistik birlik sifatida xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviyati to'g'risida guvohlik berib turadi. Geografik nomlarda millat, hudud tarixi, madaniyati va til ravnaqining turli davrlari o'z ifodasini topadi. Geografik nomlarni o'rganish hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Toponimlar tilning strukturasi va o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Toponimlar jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlariga bog'li ravishda rivojlanadi, hayot va hayot faoliyatining turli jabhalarini aks ettiradi.

Hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi toponimlarni umumiy va individual tabiatli etnolingvistik, etnomadaniy, sosiolingvistik aspektlarda ularning antroposentrik va kognitiv parametrlari diqqat qilgan holda hamda til shaxsi va kommunikativ pragmatikaning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni vazifa qilib qo'ymoqda, ya'ni tavsiflashdan izohlashga o'tmoqda. Qo'shrabot tumani iqlim-jo'g'rofiy sharoyitlar negizida alohida madaniy-tarixiy hudud sifatida namoyon bo'ladi, bu fizik-geografik, iqlimiy, xo'jalik, tarixiy, demografik, lisoniy va etnografik omillar va ularning o'zaro aloqasi bilan belgilanadi.

Onomastikaning tarkibiy qismlaridan biri sanaluvchi toponimika integrativ tabiatli ilmiy paradigm bo'lib geografik nomlar, ularning genezisi, taraqqiyoti, hozirgi holati, ma'naviy ahamiyati, yozilishi va talaffuzini o'rganadi. Tarixga yuzlansak geografik nomlarga oid antik davrga mansub "Tarix" asari Gerodot, "Geografiya" kitobi Strabon, "Tabiiy tarix" asari Pliniylar yozishganligi, milodiy I asrda Pomponiy Mela geografik nomlardan ilk marta tarixiy-geografik tadqiqot ob'ekti sifatida foydalanganligi ma'lum bo'ladi. Ilk o'rta asrlar allomalari Al-Farobiy (IX asr), Al-Beruniy (X-XI asrlar), o'rta asrlarda yashagan Dug'lot (XV asr), Bobur (XV-XVI asrlar), Abul-G'oziy (XVI asr), Husammiddin Muslimiy, G.F.Miller, P.I.Richkov, S.U.Ramezov, V.N.Tatishev (XVIII asr), V.V.Radlov, V.V.Bartold, Ch.Ch.Valixanov, K.Nasiriy, N.I.Berezin, S.S.Semenov-Tiyanshanskiy, A.N.Samoylovich (XIX-XX asrlar) va boshqalarning asarlarida turkiy xalqlar toponimikasi, antroponimikasi, astronomiyasi, kosmonim va etnonimlariga oid kam bo'lmagan qimmatli axborotlar qayd etilgan. Toponimlarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan.

Toponimikaga oid ayrim termin va tushunchalar tavsifini biroz yoritish maqsaga muvofiq sanaladi. Fanda muayyan makonning nomlari (aholi punktlari, daryo, ko'l va hokazolar nomlari)

majmui *toponimika* (yun. *topos* – joy + *onyma* – nom) deb nomlanib, leksikologiyaning geografik nomlarni o‘rganadigan bo‘limi sanaladi [8, 149]. “Toponimiya” termini muayyan hududdagi geografik nomlarning majmuini anglatadi. “Geografik nomenklatura”, “toponikon” toponimiya terminining muqobillari hisoblanadi [1, 6].

Ma’lumki, toponimlar ikkita asosiy guruhlariga ajratiladi:

- 1) *geonimlar* – yer planetasidagi barcha geografik ob’yektlarning atoqli otlari;
- 2) *kosmonimlar* – yer planetasidan tashqaridagi barcha kosmografik ob’yektlarning atoqli otlari.

O‘z navbatida geonimlar quyidagi ost kategoriyalarga ajratiladi:

- *oronimlar* – tog‘lar, cho‘qqilar va vodiylar kabi rel’efli obyektlarning
- *gidronimlar* – suvli makonlarning atoqli otlari quyidagilarni qamrab olad
- oykonim (ekonim)lar – uylar, qishloqlar, katta-kichik shaharlarga o‘xshash aholi yashaydigan makonlarning atoqli otlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) *komonimlar* – qishloqlarning atorli otlari

b) *astionimlar* – katta-kichik shaharlarning atoqli otlari

Bundan tashqari fanda toponimlarning ikkita yirik kategoriyasi, ya’ni makro- va mikro toponimlar farqlanadi. Mikrotoponimlar – bu katta bo‘lmagan tabiiy yoki sun’iy yaratilgan ob’yektlarning odatda, ularning tabiati va xususiyatlarini in’ikos etuvchi individual nomlari, ya’ni “bir til fakti va bir xalq ijodi mahsuli” [6, 48], “katta bo‘lmagan kam sonli aholiga ega ob’yektlar nomlari”dir [6, 10; 1, 18]. O‘zbek tilshunosligining yirik nomshunos olimi S.Qorayev mikrotoponimlarni tevarak-atrofdagi yashaydigan kishilargagina ma’lum bo‘lgan quduqlar, qo‘rg‘ontepalar, tomorqalar, bog‘lar, ko‘priklar, qo‘tonlar kabi kichik ob’yektlarning atoqli otlari sifatida ta’riflaydi [10]. N.Begaliyev mikrotoponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, geografik nomlar sistemasida tutgan o‘rnini aniqlash ularni yozib olish, ilmiy tadqiq qilish ob’yekti sifatida o‘rganish bilan bog‘liqligi, o‘zbek toponimiyasida mikrotoponimlar o‘rganilishi talab va imkoniyat darajasida emasligi, mikrotoponimlar geografik nomlarning shakllanish jarayoni haqida qimmatli ma’lumotlar berishini ta’kidlaydi [2, 36]. Mikrotoponimlar geografik nomlarning eng harakatchan segmenti sifatida toponimlarning paydo bo‘lishi va shakllanish jarayonini ozida aks ettiruvchidir.

Toponimlarni organishga nisbatan quyidagi “... toponimik material yig‘ish uni izohlashdan ko‘ra muhimroqdir. Chunki izohlash nari borganda faraz, - taxmin xolos, sidqidildan to‘plangan material faktdir. Ba’zan material yig‘ishning o‘zi kifoya qiladi, xulosalar o‘z-o‘zidan kelib chiqadi” [2, 37] degan fikrni to‘lig‘icha quvvatlab bo‘lmaydi. Chunki, toponimni izohlashni taxmin, faraz deb baholash ilm sohibining gapi emas. Ilm-fan har bir muammo yechimi uchun asosli izohlarga tayanadi.

Til hodisasi hisoblanmish toponimlar yasaliishida ishtirok etuvchi affiksalar (-lar, -on/an, -ot/at/t, -ak, -ar, -goh, -zor, -li, -loq, -ma) – topoformantlar; tarixan mustaqil leksik birlik bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan affiksga yaqinlashib, o‘z lug‘aviy ma’nosini muayyan darajada yo‘qotgan leksemalar (-bog‘, -obod, -diz, -kent, -band, -xona, -mitan) – topoleksemalar deb ataladi.

Biz quyida izohi hozirgacha mavjud manbalarda mavjud emas yoki bizningcha, nisbatan no‘to‘g‘ri tavsiflangan deb hisoblanuvchi toponimlar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz.

BAROQ komonimi “Urganji” MFYda joylashgan. Mahalliy xalq etimologiyasiga ko‘ra, *baroq* urug‘ nomini anglatadi, ya’ni ushbu hududdagi beklar, qizg‘un, olmasuvon, sirtsuluv, hosilbosh, hakimquli urug‘larning biridir.. Eron tillarida *baroq* so‘zi “chavandoz, xabarchi” demakdir. Joyni anglatuvchi topoformantning yillar o‘tishi mobaynida nutqdan tushib qolishi taxmin qilinadi. Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasida *Baroqtom* - “xabarchilar to‘xtab o‘tadigan joy” ma’nosida qo‘llanuvchi qal’a bor.

BOJOQISHLOQ komonimi “*boja // bojo*” va “*qishloq*” qismlaridan iborat. “*Boja // bojo*” umumturkiy so‘z bo‘lib, “opa-singillarning erlari” (bir-birlariga nisbatan) ma’nosini bildiradi [O‘TIL-5, 1, 297]. “*Qishloq*” esa “aholisi asosan qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi joy, maskan, hudud” ma’nolarini ifodalaydi [O‘TIL-5, 5, 315]. Shunga binoan, bu mikroponimni “bojalar tomonidan barpo etilgan yashash maskni” deb izohlasa bo‘ladi. Bu nomning tashqi ko‘rinishi asosidan vujudga kelgan etimologiyadir. Etnografiyaga oid adabiyotlarda qirg‘izlarning bir urug‘i *bo‘jay* deb yuritilgani qayd etib o‘tilgan. Toponimning birinchi qismidagi *boja* ← *bo‘jay*ning tovush o‘zgarishi va tushishi hosilasidir. Qishloq shu urug‘ nomi bilan atalgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

GANAM komonimi “Minishkor” MFYda joylashgan. Ganam “غنام” arabchada qo‘y hayvonini anglatish uchun qo‘llanadi. Bizningcha, Ganam - “qo‘ychivonlar qishlog‘i” demakdir.

GARKAY komonimi “Toz” MFYda joylashgan. Biz tomonimizdan toponimning birinchi komponenti **gar** ← **g’or** “tog” ma’nosida, **kay** ← **chay** “soy” ma’nosida kelib, “tog’ yonidagi soy” ma’nosida izohlansa, gidronimning oykonimga o‘tish hodisasi voqe bo‘lgan degan taxmin ilgari surildi. Ammo toponimdagi **k** tovushi joylashuv jihatdan ancha mustahkamligi ko‘rinib turibdi. –gay qadimgi turk-mo‘g‘ul tillarida ot hosil qiluvchi qo‘shimcha hamdir.

GULMANOVUL komonimi “Mayintepa” MFYda joylashgan. Toponim *gul*, *man* va *ovul* qismlaridan iborat. Ma’lumki, *gul* so‘zi gulli o‘simliklar, go‘zallik kabi ma’nolarni ifoda etadi. –*man*, –*mena*, –*menak* topoleksemasi turli ko‘lamdagi aholi punktlarini hosil qilish uchun qo‘llanadi. “*Ovul*” so‘zi “ko‘chmanchi chorvadorlar o‘rnashgan joy, yashash maskani, qishloq” ma’nolarini ifodalaydi [O‘TIL-5, 3, 81]. Ushbu nomda aholi yashash yoyini ifodalovchi topoleksemalarning tavgalogik qo‘llanishiga guvoh bo‘lmoqdamiz, ya’ni diaxronlik va sinxronlik hodisasi bitta substansiyada voqe bo‘lmoqda. Biz yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, Gulmanovul “gulli o‘simliklar bilan qoplangan maskan” degan izohni taklif etamiz. Keyinchalik turkiy ko‘chmanchi chorvadorlar qabilalar kelib o‘rnashgach *ovul* formanti qo‘shilgan, bizningcha.

IJGANT komonimi “Qoratosh” MFYda joylashgan. Turkiy shevalarda, xususan Qo‘shrabot tumanida aholi so‘zlardagi “y” harfi talaffuzi o‘rnida “j” harfi talaffuzini qo‘llashadi. Toponimning birinchi qismidagi **Ijg** aslida **iyik**, ya’ni “yon bag‘rdagi, qayrilishdagi” deb izohlash mumkin. Chunki **iy** so‘zi deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi va “chekka, qayrilish, yonbag‘ir” degan ma’nolarni bildiradi [3, 330]. Toponimning ikkinchi qismidagi –*gant* (–*ant*) “kent”ning o‘zgargan shakli bo‘lib “qishloq” ma’nosini ifodalaydi. Demak, Irqin – “yon bag‘rdagi, qayrilishda joylashgan qishloq”.

IRQIN komonimi “Qoratosh” MFYda joylashgan. Qozoqiston toponimiyasida **ir** so‘zi bilan yasalgan toponimlar ko‘p uchraydi: **irsu** (egri suv), **irtas** (egri tog‘) va boshqalar. Nomning ikkinchi komponenti –*qin* “qand” (qishloq, shahar) so‘zidagi **a** tovushining **i** tovushiga o‘zgarishi va so‘z oxiridagi **d** tovushi tushishi o‘zbek tili uchun xos xususiyat (ya’ni so‘z oxirida qo‘sh undoshdan biri tushadi).

JALA komonimi “Oqchopsoy” MFYda joylashgan. Bu mikrotoponimni tashkil etgan “jala” forsha so‘z bo‘lib, “yomg‘ir tomchisi, shiddatli yomg‘ir” ma’nolarini ifodalaydi [8-5, 2, 66]. Shunga asoslanib, bu mikrotoponimni jala vaqtida barpo etilgan aholi yashash maskani, qishloq, deb izohlash mumkin. Ammo ushbu oykonimni “jalovut” urug‘ nomining og‘zaki so‘zlashuvda qisqartirib qo‘llanishi hosilasi deb izohlash to‘g‘riroq bo‘ladi.

KO‘LMOQIYON komonimi “Qo‘shnamg‘ali” MFYda joylashgan. Mazkur oykonim turk-mo‘g‘ul tillariga mansub *ko‘l*, ya’ni “quruqlikning suvga to‘lgan, atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi” [8-2, 453] va ikkinchi komponentdagi aslan forsha *mohiyon* “baliqlar” so‘zidagi *h* tovushining turkiy tillarga xos *q* tovushiga almashuv natijasida hosil bo‘lgan. Mazkur komonimni “baliqlari mo‘l ko‘l yonidagi qishloq” deb izohlash mumkin.

MIJG‘ON komonimi “Jonbuloq” MFYda joylashgan. Bir o‘zakli toponim fors tilida مېڭ (merdzar) so‘zi bilan bog‘lanib, ya’ni Zoroastrizmdagi din rohiblarini anglatishi mumkin. Ushbu so‘z Behustin yodgorligida ham uchraydi. –*an* / –*on* suffiksi ko‘proq aholi yashash joylari, ayrim hollarda tog‘lar va juda kam hollarda gidronimlar bilan qo‘llanib, makonni ko‘rsatadi. Samarqand hududidagi gidronimlarning oxirida –*xin* <*xaiiana*-, *xaniia*- ko‘plab uchraydi. Mijg‘on – “qadimda otashparastlik diniy marosimlarini o‘tkazuvchi din kishilari yashagan makon” degan farazni ilgari surish mumkin.

QAYMON gidronimi “Jonbuloq” MFYda mavjud. Gidronim *qay* va –*mon* komponentlaridan tashkil topgan. *Qay* komponenti *qaynab chiqmoq* fe’lidan olingan. –*mon* topoformanti makon, joy, o‘rin semalarini ifoda etadi. Qaymon – “qaynab chiquvchi buloq” degan izohni taklif etamiz.

QORAHOVUT komonimi “Yangiqishloq” MFYda joylashgan. Toponim *qora* va *hovut* komponentlaridan tashkil topgan. Forschada *hovut* (حوت) “baliqlar” ma’nosini anglatadi. So‘z oxiridagi –*at* / –*ut* ko‘plikni anglatuvchi qo‘shimcha. Demak, Qorahovut toponimini “suv havzalarida qora tusli baliqlar ko‘p uchraydigan joyda barpo etilgan qishloq” deb izohlash mumkin.

SULUKLI komonimi “Yangiqishloq” MFYda joylashgan. Toponim *suluk* va –*li* affiksidan tashkil topgan. *Suluk* so‘zi arabchada “xatti-harakat va turmush tarsi; yo‘l; xulq, axloq, din”

ma'nolarini ifodalaydi. "Solihning tariqat yo'lining o'tish jarayoni; muridningning ruhiy-axloqiy kamolatga erishish yo'li" [7-III, 586]. Ikkinchi *-li* elementi turkiy tillarga xos bo'lib, "otlarga qo'shib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqqligini bildiruvchi sifat yasaydi" [7-III, 583-584]. Demak, Sulikli toponimini "ruhiy-axloqiy kamolatga etgan kishi yashagan joyda barpo etilgan aholi istiqomat qiladigan makon" deb izohlash mumkin.

TUVADOQ komonimidagi *tuvaloq* – so'zi tuvdoqlar turkumiga mansub, ov qilinadigan, go'shti mazali yirik qush nomi (ornitonim)gt ifodalaydi [8-5, 4, 174]. Mulla Sayfiddin Axsikandiy (XVI asr) o'zining "Majmuat-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asarida 92 bo'li o'zbek urug'ini birma-bir sanab o'tgan. Bularning ichida tuvadoq degan urug'ni ham tilga olgan [4, 210]. Shunga ko'ra bu mikrotoponimni tuvadoq urug'iga mansub kishlar tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq, deb izohlash mumkin.

11. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.
12. Berry R. The Shakespearean metaphor: Studies in language and form. – London; Basinstoke: Macmillan, 1998. – XI, P. 1 28.
13. Blake N.F. The language of Shakespeare. – Basingstoke; London: Macmillan, 1993. – X, 154p. (The language of lit.)
14. Bushuy A.Rus tilida o’girilgan o’zbek nasrida sharqqa xos musiqiylik poetikasi //Филология. VIII. – Samarqand: Sam DU, 2007. – B. 15-22.
15. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. – 1690 p.
16. Curren-Aquino D.T. Self-naming of Shakespeare’s early plays // Names. – New York, 1987. – Vol. 35. - № s. – P. 147-163.
17. Dictionary of English Colloquial Idioms. - / Wood F.T. and Hill R. – London: Papermark, 1990. – 384 p.
18. Fowler H. W. A dictionary of modern English usage. – 2 ed./ Rev. by Cower E. – Oxford; New York: OxfordUniv. Press, 1996. – 725 p.

19. Hornby A.S. Oxford student's dictionary of Content English. – Oxford: OxfordUniversity press, 1984. – 769 p.
20. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. - // T.: Sharq, NMK, 1999, -- 184 bet.



Dilnoza Baxodirovna Buronova
Mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat
chet tillar instituti o'qituvchisi

MUALLIF BADIY USLUBINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTASIYA

Maqolada badiiy uslub nazariyasini tarixiy tadqiq etishning ayrim masalalari va zamonaviy adabiyotda uslubiy tahlil tamoyillariga e'tibor qaratilgan. badiiy uslub ko'p asrlar davomida nafaqat adabiyotshunoslar, balki san'atshunoslar, tarixchilar va faylasuflarning ham e'tiborini badiiy adabiyot sohasidagi muammolarga jalb etib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyat nazariyotchilari uslub muammosiga turli tarixiy davrlarda o'z qarashlarini bildirganligi kuzatiladi. Maqolada esa bu haqida turli qarashlar nazarda tutilgan holatda badiiy uslub to'grisida atroflicha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Badiiy uslub, Forobiy, Alisher Navoiy, individual uslub, sxematik tafakkur qolipi, g'azal, nutq hodisasi, ritorika, ritorik talab, badiiy obraz, ekzistensialistik va essensialistik qarashlar.

Dilnoza Bakhodirovna Buronova
Independent researcher, teacher of the Samarkand
State Institute of Foreign Languages

THEORETICAL METHODOLOGICAL BASIS OF STUDYING THE ARTISTIC STYLE OF THE AUTHOR

ABSTRACT

The paper focuses on some issues of the historical study of the theory of artistic style and the principles of methodological analysis in modern literature. artistic style has attracted the attention of not only literary critics, but also art critics, historians, and philosophers for many centuries as one of the most important issues in the field of fiction. It is observed that most theorists of developed countries have expressed their views on the problem of style in different historical periods. In the article, the artistic style will be discussed in detail.

Keywords: Artistic style, Farabi, Alisher Navai, individual style, the schematic thinking pattern, ghazal, speech phenomenon, rhetoric, rhetorical demand, artistic image, existentialist and essentialist views.

Дилноза Баходировна Бурунова

Независимый исследователь, преподаватель
Самаркандского государственного института иностранных языков**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ИЗУЧЕНИЯ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО СТИЛЯ АВТОРА****АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются некоторые вопросы исторического изучения теории художественного стиля и принципов методологического анализа в современной литературе. Стиль на протяжении многих столетий привлекает внимание не только литературоведов, но и искусствоведов, историков и философов как один из важнейших вопросов в области фантастики. Отмечено, что большинство теоретиков развитых стран высказывали свои взгляды на проблему стиля в разные исторические периоды. В статье будет подробно рассмотрен художественный стиль.

Ключевые слова: Художественный стиль, Фараби, Алишер Навои, индивидуальный стиль, схематичность мышления, газель, речевой феномен, риторика, риторическая потребность, художественный образ, экзистенциалистские и эссенциалистские взгляды.

KIRISH

Uslub – “Uslub” so'zining kelib chiqishi ko'pgina ensiklopedik lug'atlar va ma'lumotnomalarda qadimgi Yunoniston deb qayd etilgan, qadimgi Rim olimlari bu atamani qisman isloh qilib, uni “stilus” sifatida ishlatishgan. Ma'lumki, uslub muammosiga ilk bor faylasuf-olim Arastu antik G'arb madaniyatida ilmiy masala sifatida murojaat qilgan. U o'zining mashhur “Ritorika” asarida shu mavzuga to'xtalib, uslub haqida birinchi fikrni aytadi, shu paytgacha bu masala san'at nazariyasiga oid boshqa qadimgi yozma manbalarda talqin qilinmagan. Faylasuf so'zlovchining notiqligini ta'kidlab, shunday fikr bildiradi: “Biz nutqimizda o'z isbotlarimiz va dalillarimizni ko'pchilik uchun tushunarli qilib keltirishimiz kerak...” Ammo bu talqinda faylasuf uslubni o'ziga xos hodisa sifatida qaraydi. Ritorika san'atiga Rim tarixidagi Horatsiy, Demosfen, Tsitseron va Kvintilian kabi taniqli san'at nazariyotchilari o'zlarining o'tmishdoshlari singari, bu mavzuga e'tibor qaratishadi. Ularning asarlarida uslub notiqlik san'atining muhim jihati sifatida talqin etiladi.

ASOSIY QISM

Qadimgi dunyo ijodkorlarining uslub nazariyalari G'arbda o'rta asrlar va Uyg'onish davrida o'ziga xos talqin etila boshlandi. Uslub butun o'rta asrlarda notiqlik san'atining o'ziga xos xususiyati sifatida o'z maqomini saqlab qolgan. Hatto Angliyada Shekspir, Marlo kabi daho dramaturglar faoliyati haqida yozilgan stilistik nazariyaga oid asarlarda ham muallif uslubi nuqtai nazaridan emas, balki xarakter nutqining stilistik xususiyatiga qo'yilgan ritorik talab nuqtai nazaridan talqin qilinadigan fikrlarga duch kelamiz. Yevropada, ayniqsa Provans ritorikasiga kelsak, XVIII asrda, ma'rifat davriga kelib, “individual uslub” atamasi ishlatilgan. Tilshunoslik tarixida mashhur bo'lgan P.Jiro bu tushunchani mavjudlikni ekzistensialistik va essensialistik nuqtai nazardan idrok etish vositasi sifatida ilmiy iste'molga kiritadi. Olim amaliyotni biron bir san'at turi yoki zamonning mulki sifatida emas, balki inson dunyoqarashining mahsuli sifatida amalda qo'llaydi. Bu ma'no bir qator ilmiy ishlarda “une genie individuelle”, ya'ni individual sifat tarzida ta'kidlangan. Ko'pgina san'at va adabiyotshunos olimlarga yaxshi tanish bo'lgan Jorj Buffon Sorbonna universitetidagi mashhur ma'ruzalarida “uslub - bu insonning o'zi” degan fikrni asoslashga harakat qiladi. Fransuz ma'rifatparvar adibi J.Marivo adabiyotshunos sifatida birinchilardan bo'lib uslubga me'yoriy o'lchovlarni qo'llagan holda uslub mezonlari tushunchasini nazariy jihatdan yaratdi. Unga ko'ra, uslub “yaxshi” va “yomon” ga bo'linadi. Bu mutaxassisning eng katta yutug'i shundaki, u uslubni muallif dunyoqarashi bilan, ruhiyatini esa bugungi kun tili bilan aytganda, badiiy estetika pozitsiyasi bilan bog'lay olgan. J.Buffon uchun uslub “ma'noning xizmatkori emas, balki o'zi” – ya'ni uning shaklidir.

O'zbek mumtoz adabiyotida ham muallif uslubi haqida juda muhim va diqqatga sazovor fikrlarga duch kelamiz. Bu borada mumtoz adabiyotshunos olim M.Mahmudov quyidagi fikrlarni aytadi: “Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Poetika”sidan shoirlarni tasniflagan. “Ayni shoirlar she’riyat san’atidan yetarlicha xabardor bo’lmasa-da, tug‘ma qobiliyatlarining yaxshiligidan qanoatlanadi. Ular iqtidor darajasiga qarab ishlaydi. Bunday shoirlar chinakam tafakkurli shoirlar emas. Chunki ularda she’riyatni puxta egallashga yetuklik yetishmaydi, bu san’atda turg‘unlik yo‘q”.

Forobiyning bu mushohadalarida Aflotun ovozi Aristotelnikidan ko‘ra ko‘proq seziladi. Chunki Forobiy favqulodda iste’dodli shoirlardan ko‘ra she’riyat san’atini (mahorat, texnika) bilgan, puxta o‘ylangan shoirlarni afzal ko‘radi. To‘g‘ri, Forobiy davrida ham Navoiy davridagidek ulug‘ shoirlar she’riyat nazariyasi va texnikasini yaxshi bilgan (Navoiyning “Mezonul avzon”, Boburning “Aruz”i – “Muxtasar”ini eslang.)

Zamonaviy milliy va jahon adabiyotida badiiy uslub va muallif uslubi masalalari turli tomonlardan keng tadqiq etilmoqda. Zamonaviy adabiyotda o‘zbek she’riyatida muallif individual uslubi poetikasini f.f.d. M. Davronova keng monografik rejada o‘rganadi. Olimning fikricha, o‘zbek adabiyotida XX asr boshlaridayoq yozuvchilar til va uslub masalalariga alohida e’tibor berib, uni poetik hodisa sifatida o‘rganishga kirishgan. Sa’diy va A.Fitratlar hisoblangan. A.Sa’diy uslubini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganar ekan, uslubga xos bo‘lgan qisqartma eskirgan so‘z va vahshiyliklarni eng muhim timsol sifatida tan oladi. Uslubning mukammalligida ularning ahamiyatini ko‘rsatadi. Sa’diyning fikricha, “Uslub shoir miyasining soyasidir”. Shu asosda olim uslubning o‘ziga xosligini iste’dodda, yangi so‘z bilan aytganda, xalqchillikda ko‘radi va asarning hayotiyliigi uslubga bog‘liq, deb hisoblaydi. Shuningdek, uslub ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy sinf va ijodiy shaxs ta’siri ostida o‘zgarishi mumkin.

Olimning fikricha, Fitratning uslub haqidagi qarashlari A. Sa’diy qarashlariga yaqin. Olim bu fikrni isbotlash uchun bir qancha misollar keltiradi va xususan, “sifat, o‘xshatish, allegoriya, tashbeh, metafora, jonlantirish, ritorika kabi unsurlar ichki unsur sifatida hozirgi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan, degan fikrni aytadi. Shunday qilib, Fitrat va A. Sa’diy ijodida uslub masalalari atroflicha o‘rganiladi. U asosan poetik hodisa sifatida qaralgan. Uslubning milliy til, milliy adabiyot, ijodiy dunyoqarash va ijtimoiy muhit, badiiy shakl bilan bog‘liqligi diqqat markazida bo‘lgan” degan xulosaga keladi tadqiqotchi. Bu fikrga qo‘shilmaslik mumkin emas.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida uslub muammosi 20-asrdan boshlab alohida masala sifatida o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, mumtoz adabiyot tarixida yuqorida ta’kidlanganidek, bu borada muayyan fikrlarga duch kelamiz.

Badiiy-estetik tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishi mumtoz adabiyotimizda, xususan, turkiy dunyo va jahon sivilizatsiyasida yuksak mavqega ega bo‘lgan buyuk Alisher Navoiy ijodi va estetik an’analasiz to‘la bo‘lmaydi. Navoiyning adabiy-estetik tafakkur olami qatori san’at olamida ham yuksak mavqeini egallab, umuminsoniy ahamiyatga molik ilmiy meros qoldirdi. “Buyuk mutafakkirning san’at, adabiyotshunoslik, tilshunoslik sohalarida yaratgan noyob kashfiyotlari, noyob asarlari natijasida XVI asrda san’at va estetika sohasida yaxlit ta’limot vujudga keldi. Navoiy tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy ta’limotlar jahon adabiy-estetik tafakkuri yutuqlariga putur yetkazmagan holda keyingi asrlarda ham notiqlik va nafosat ilmi rivojida ijodiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim. Afsuski, totalitar tuzumda bu bebaho adabiy-estetik merosning mazmun-mohiyatini to‘liq anglash, uni munosib qadrlash imkoni yo‘q”.

Alisher Navoiyning ilmiy va adabiy merosida dissertatsiya tadqiqotimiz mavzusi bo‘yicha o‘z qarashlari borligini salaflarimiz ta’kidladilar. Xususan, buyuk mutafakkir shoir ham uslub haqida to‘xtalib, unga o‘ziga xos tarzda munosabat bildiradi. Bu borada yuqorida tilga olingan bir qancha yetuk olimlar va M.Davronovanning tadqiqotlarida tilga olinadi: Demak, Alisher Navoiy Sharq adabiyotida fors va turkiy adabiyotning uslub jihatidan birinchi tadqiqotchisidir. Biroq Alisher Navoiy ijodida uslub so‘zi janr ma’nosida (g‘azal uslubi, bayt uslubi) ko‘p qo‘llanadi”.

Shuningdek, mumtoz adabiyotimiz hususidagi izlanishlar akademik B.Valixo‘jaev, professorlar A.Xayitmetov, N.Shukurov, B.Sarimsoqov, H.Umurov, H.Boltaboev, D.Salohiy, B.Karimov va boshqalar turli ijodkorlar, turli adabiy ijodkorlar bilan bog‘liq. Uslub jarayonlari hamda zamonaviy adabiyotimiz haqidagi ilmiy izlanishlarida uslub poetikasiga oid mumtoz va

qimmatli mulohazalar tadqiq va izlanishlar olib borishgan. Biroq ko'pchilik qarash va izlanishlar turkiy she'riyatning, aniqrog'i, mumtoz o'zbek she'riyatining, shuningdek, zamonaviy adabiyotning uslubiy xususiyatlariga xos bo'lib, unda milliy adabiyotimiz namunalari, uning ayrim namoyandalari ijodi o'rganiladi, o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlariga ega. o'zbek adabiyotini qiyosiy o'rganish alohida ob'ekt bo'lib, uslub masalasi qiyosiy monografik asosda o'rganilmagan.

Yigirmanchi asrda ilmiy doiralarda rassomning individual uslubi haqida munozaralar boshlandi. Bu vaqtga kelib adabiyotshunoslar uslub nazariyasining ilmiy rivojlanishiga erishdilar. Bu davrda olib borilgan izlanishlar tahlilida adabiy uslub tushunchasi individual ko'nikmalarni charxlash, badiiy obrazni mukammallashtirish va o'ziga xoslikka e'tibor qaratish, o'ziga xos obraz yaratish usullarini takomillashtirish orqali individual xarakter egallashning turli shakllarini yaratadi va bu tahlili izohlanadi.

20-asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik va adabiyot kabi asosiy tadqiqot yo'nalishlarining keskin farqlanish jarayoni sodir bo'ldi. Umuman olganda, bu tafovutning asosi ma'lum, biroq ayni paytda ushbu sohalarining har qandayida ilmiy izlanishlar filologning o'z ustida ishlashi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihozlangan umumiy filologik xususiyatga ega bo'lgan til va adabiyot fanlarini o'rganishni talab qiladi. adabiy matn. Ikkala sohada ham badiiy matnni tahlil qilishning keng uslub va uslublari mavjud, ammo ularning barchasi orasida uslubiy va uslubiy tahlil alohida ajralib turadi.


XULOSA

Ko'pgina faylasuflar, rassomlar va san'atshunoslar badiiy uslub shaxsiyatning ifodasidir degan qarashga sodiq. Darhaqiqat, uslubning ushbu nazariyasi uslubga ega bo'lish o'z ideallarini ifodalash masalasidir degan xulosaga olib kelishi tayin.

Badiiy asar yaratilish jarayoni, muallifning mavjud iste'dodi, so'z tanlovi, obrazda aks etgan yaratish, vizual ifoda vositalaridan foydalanish va boshqa bir qator omillar uning badiiy individual uslubini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronova M.I. Hozirgi o'zbek she'riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she'riyati misolida).Filol.fanl. dokt.diss.avtoreferati.- Samarqand, 2019
2. Mahmudov M. "Poetika" va hozirgi zamon adabiyoti. Aristotel "Poetika" kitobiga so'ng so'z.- T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
3. Wright L., Hope J. Stylistics: A Practical Coursebook. Routledge, 1996.
4. Шанский Н. М., Махмудов Ш. А. Филологический анализ художественного текста. М.: Русское слово, 2010.
5. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Ком Книга, 2007.
6. Гиро П. Частная и общественная жизнь римлян. - СПб, "Алтейя", 1995.
7. Zenkin S.N. Неклассическая риторика Бюффона.
8. Знаменская Т. А. Стилистика английского языка. Основы курса: учебное пособие. М.: Едиториал УРСС, 2004.
9. Конрад Н.И. К вопросу о литературных связях // Литература и театр. – М.: Наука, 1978.
10. Кухаренко В. А. Практикум по стилистике английского языка: учеб. пособие. М.: Высш. шк., 1986.
11. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы), 2003
12. Шуверова Т. Д. Reading, Translation and Style: лингвостилистический и пред переводческий анализ текста. М.: Прометей, 2012.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi,
O'zbekiston milliy universiteti professor v.b.,
filologiya fanlari doktori

Raximov Xasanboy Komiljonovich,
Andijon davlat universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

O'ZBEK TILI SENTIMENT ANALIZNING NAZARIY MASALALARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tili matnlarini sentiment tahlil qilishning umumiy nazariy masalalari tahlilga tortilgan. Avtomatik tahlil uchun lingvistik bilimlar bazasi hamda korpus zarur hisoblanadi. Sentiment analiz fikr bildiruvchilarning munosabatiga ko'ra neytral, ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. O'rganilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra bildirilayotgan munosabatlarning to'rt komponenti mavjud: munosabat subyekti, munosabat obyekti, munosabat aspekti, munosabat turi. Shunga ko'ra o'zbekcha matnlarni sentiment tahlil qilishda o'rganilayotgan tadqiqot obyekti sifatida korpus va tezaurusdan foydalaniladi. Shunga ko'ra maqolada kishilarning munosabat bildirish holati emotsiya, kayfiyat, sotsial munosabat, hissiy munosabat, shaxsiy xulq-atvor kabi atributlarga ko'ra farqlanishi misollar yordamida dalillangan. O'zbek tili sentiment analizi dasturini yaratish dunyo tajribasida sinalgan WordNet-Affect, SentiWordNet, SenticNet, MPQA Opinion Corpus, PyСентиЛекс kabi dasturiy ta'minotlar misolida erishilgan ilmiy natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sentiment tahlil, tonallik, ma'lumotlar bazasi, avtomatik tahlil, dominant so'z, tezaurus, qoidaga ko'ra tahlil, mashina ta'limi tahlili

THEORETICAL ISSUES OF SENTIMENT ANALYSIS IN THE UZBEK LANGUAGE

ANNOTATION

In this article, general theoretical issues of sentiment analysis of Uzbek language texts are analyzed. Linguistic knowledge database and corpus are necessary for automatic analysis. Sentiment analysis can be neutral, positive or negative depending on the attitude of the commenters. According to the analysis of the studies in this sphere, there are four components of the expressed attitudes: the subject of the attitude, the object of the attitude, the aspect of the attitude, the type of attitude. Accordingly, the corpus and thesaurus are used as research objects in the sentiment analysis of Uzbek texts. Accordingly, the distinction of people's attitudes relied on various attributes such as feelings, mood, social, emotional attitude, and personal behavior cited with examples in the article. It is claimed that to apply scientific results in this area could be applicable such as WordNet-Affect, SentiWordNet, SenticNet, MPQA Opinion Corpus, RuSentiLeks software, which have been tested in the world experience of creating the Uzbek language sentiment analysis program.

Keywords: sentiment analysis, tonality, database, automatic analysis, dominant word, thesaurus, rule based, machine learning

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СЕНТИМЕНТ АНАЛИЗА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются общетеоретические вопросы анализа тональности текстов на узбекском языке. База данных и корпус лингвистических знаний необходимы для автоматического анализа. Сентимент анализ настроений может быть нейтральным, положительным или отрицательным в зависимости от отношения комментаторов. Согласно анализу исследований в этой сфере, выделяют четыре компонента выраженных отношений: субъект отношения, объект отношения, аспект отношения, тип отношения. Соответственно, корпус и тезаурус используются в качестве объектов исследования при анализе тональности узбекских текстов. Соответственно, различие установок людей основывалось на различных признаках, таких как чувства, настроение, социальное, эмоциональное отношение и личное поведение, примеры которых приводились в статье. Утверждается, что для применения последних результатов в этой области могут быть применимы такие программы, как WordNet-Affect, SentiWordNet, SenticNet, MPQA Opinion Corpus, RuSentiLeks, которые прошли апробацию в мировом опыте создания программы сентимент анализа на узбекском языке.

Ключевые слова: анализ тональности, тональность, база данных, автоматический анализ, доминантное слово, тезаурус, на основе правил, машинное обучение

Dunyoda sodir bo'layotgan turli voqealar, jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, qolaversa, sotsiumda bildiralayotgan turli munosabatlarni ommaviy axborot vositalari (gazeta, internet, televideniye, radio, sotsial tarmoqlar) orqali bilishga intilamiz. Bu esa bizning dunyoqarashimiz, u yoki bu sohadagi bilimlarmizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Kompyuter lingvistikasida yoki NLPda matn tahlili orqali kishilar tomonidan bildirilgan kayfiyat va munosabatlarni tahlil qilish, monitoring qilishning dasturiy ta'minotini yaratish *sentiment analiz* deb yuritiladi [17]. Matnning tonalligi (тональность текста) – bu matnda aks etgan emotsional munosabatni bildiradi. O'quvchida muayyan tasavvur paydo qilishda matn muallifi obyektga nisbatan o'zining muayyan emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan leksikasidan foydalanadi. Kishilar tomonidan bildirilgan (negativ, neytral va salbiy) munosabatlarni avtomatik tahlil qilish, monitoring qilish va baholash sentiment analizning predmeti hisoblanadi.

Ma'lumot olish va ma'lumot qidirish (information extraction and data mine) kabi texnologiyalar sentiment analizni amalga oshirishda yordam beradi.

Sentiment termini ilk bor 2001-yilda Das va Chen tomonidan bozordagi mahsulotlarni baholash va sentiment leksikonini qo'llash haqidagi maqolasida ilk marta qayd etilgan [1]. Ushbu yo'nalish juda tez rivojlanayotgan soha bo'lib, fikrlarning emotsionalligiga ko'ra faktografik ma'lumotlarni qayta ishlaydi.


Bu sohada erishilgan natijalardan ma'lumotlarni dinamik ravishda monitoring qilish va baholash imkoni yaratiladi [5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16]. Masalan, o'tgan hafta yangi ishlab chiqarilgan mahsulot haqida kishilar maqtab gapirgan bo'lsalar, bugun ushbu tovarning sifati u darajada yaxshi emasligi haqida negative fikrlar ijtimoiy tarmoqlarda bildirila boshladi. Demak, bu bizmenlar uchun signal vazifasini bajarib istiqbolli rejalarni tuzishda asos bo'lib hizmat qiladi.

Sentiment analiz (*ingl. sentiment analysis*) – kompyuter lingvistikasi sohasining bir yo'nalishi bo'lib, matnda ifodalangan munosabat yoki emotsiyani avtomatik tahlil qilishga yo'naltiriladi. Bunda obyekt va subyekt o'rtasidagi salbiy, ijobiy yoki neytral munosabatlar tahlil qilinadi. Sentiment analiz jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni baholashga yo'naltirilgani bois u amaliy jihatdan, marketing, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya kabi sohalarda o'zining amaliy ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Endilikda matn bo'yoqdorligini analiz qilib beruvchi bir nechta metodlar mavjud [2]. Ular sirasiga qoidaga asoslangan, lug'atga asoslangan, inson ishtirokisiz mashina tahlili yoki gibril metodlarni keltirish mumkin.


Munosablar:

- **Negativ fiklar**=> *Men ko'rsatilayotgan xizmatdan umaman qoniqmadim, sifat juda past...*
- **Neytral**=> *Bu kasb yaxshi, lekin jamiyatda undan-da yaxshroqlari bor*
- **Pozitiv**=> *Juda ajoyib mehmonxona, toza, ozoda, sokin...*

Fikrlar munosabat qoldirish umkin bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarga tegishli bo'ladi:



Ingliz tili uchun maxsus GATE Twitter PoS tagger, Tweet NLP yaratilgan.



Muayyan hodisa, obyekt, hatti-harakat, shaxs, voqelikka nisbatan bildirilgan munosabat ikki xil bo'lishi mumkin:

- Umumiy hujjatga tegishli (to'liq kino, voqea, bayram haqida...)
- Yoki umumiy hujjatning elementi (kino aktyori, asar qahramoni...)

Sentiment analizda – 1.5 – 1.5 shkala orasidagi munosabatlar kalit so'zlar orqali tahlil qilinadi. Agar minus ko'rsatkichni ifodalasa, salbiy fikr; musbatni ko'rsatsa, ijobiy munosabatlarni bildiradi. Sentiment analizda matn korpusi va uning fragmentidan foydalaniladi. Bunda vektor semantikasidan foydalaniladi. Ya'ni muayyan tushunchaga yoki umumiy assotsiativ ma'noni anglatuvchi so'zlar baza sifatida to'planadi. Insonlar tomonidan qabul qilingan ijobiy va salbiy ma'noga ega bo'lgan birliklar dominant so'z atrofiga birlashadi. Har bir so'zlar toksonomik, semantik bog'liqlik, sinonimik va antonimik, uyadoshlik kabi munosabatlarga ko'ra matn tahlil qilinadi. Bu nafaqat sentiment analiz, balki axborot qidiruv tizimi, matnlarni qisqartirish, savol-javob tizimi, diolog tizimi, mashina tarjimasini, matn tasnifi kabi boshqa yo'nalish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Sentiment analizda vektor maydoni sifatida korpus matnlari qo'llaniladi. Vektorning vertikal holatida so'z, gorizantal holatida hujjatlar ushbu so'zning qo'llanilish chastotasini ko'rsatadi. Shuningdek, semantik vektorda vertikal holatida so'z, gorizantal holatida ham so'z qo'llanilib, kesishish nuqtasi bo'yicha ham analiz qilish mumkin [1].

Matn mazmunida aks etgan fikr ta'sirchanligini kompyuter orqali qanday aniqlash mumkin? Bunda kishilarning quyidagi xususiyatlari aks etadi [3]:

- emotsiya (his-hayajon) – kishilarning muayyan ichki va tashqi ta'sirga nisbatan javobi: g'urur, jahl, xursandchilik, qo'rquv, hafalik...;
- kayfiyat – muayyan ta'sir natijasida kishilarning voqega nisbatan his-tuyg'usi: tushkunlik, xursandchilik...;

- sotsial munosabat– muayyan vaziyatda kishilar orasidagi sotsial aloqalar: do‘stlik, iliqlik, sovuqlik...;

- hissiy munosabat – muayyan davrgacha davom etuvchi kishilar orasidagi aloqa: sevishtirish, yomon ko‘rish, xohish, nafratlanish...;

- shaxsiy xulq-atvor – biror kishi uchun insonlarning o‘ziga xos xulq-atvori: rashk qilish, asabiylashish, janjallashish...

Sentiment analizda mana shu turga kiruvchi so‘zlarning lingvistik bazasi yaratiladi va ular ijobiy va salbiy turiga qarab matnlar avtomatik analiz qilinadi.

Sentiment analiz jamiyatning turli sohalarida qo‘llanilmoqda:


- sport sohasida (sportchilarning reytingini aniqlash uchun)

- tijorat sohasida (mahsulotlarni baholash uchun)

- ta’lim sohasida (universitet reytinglarini aniqlash uchun)

- turizm sohasida (mehmonxonalar ko‘rsatkichini baholash uchun) va boshqalar.

Ingliz, italyan va nemis tillari uchun Google cloud, Microsoft Azure Text Analytics API, Microsoft Azure Emotion API, Social Mention, Sentiment140, «SentiStrength»; Semantia, SentiFinder kabi matn analizi bilan shug‘ullanuvchi dasturlar yaratilgan.



Sentiment tahlil uchun qoida yaratish uchun oldindan tayyorlangan muayyan soha asosidagi tayyorlangan shablonlardan foydalaniladi. Ushbu shablon asosida matndan olingan n-komponentli zanjiri (n-gram) yaratilgan lug‘at asosida uning munosabatlar tahlili amalga oshiradi.

Masalan zanjir fe’l so‘z turkumidan iborat bo‘lib (*sevmok, yoqmoq, hurmat qilmoq*) hamda boshqa salbiy ottenkaga ega bo‘lgan fe’llardan tarkib topmasa (*yoqtirmaslik, nafratlanmoq, yomon ko‘rmoq*) demak, fikr ijobiy ma’no ifodalaydi.

Matnlarni sentiment analiz qilishning quyidagi bosqichlari mavjud [4]:

1) tilning leksik tonalligi aks etgan lug‘atni yaratish;

2) gaplarning sentimentini aniqlovchi qoidalarni yaratish va formallashtirish;

3) lug‘at va qoidaga asoslanib, matnni sentiment analiz qilish algoritmini ishlab chiqish.

Matnning sentiment analizida tezaurus juda katta rol o‘ynaydi. Ingliz tili uchun WordNet-Affect, SentiWordNet, SenticNet, MPQA Opinion Corpus; rus tili uchun PyСентилекс kabi so‘zlarning sentiment ma’nolarini ifodalagan ochiq resurslar yaratilgan. Biroq o‘zbek tili uchun na sentiment analiz, na tezaurus bo‘yicha fundamental tadqiqot olib borilgan. NRC Word emotion Association Lexicon bazasida 14 ming so‘z bo‘lib, “g‘azab”, “azob”, “ishonch”, “nodonlik”, “nafrat”, “jirkanchlik”, “xursandchilik” kabi ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan so‘zlar bazasi yaratilgan.

NRC Hashtag Sentiment Lexicon twitterdagi # bilan ifodalangan fikrlarga bildirilgan ijobiy va salbiy munosabatlar asosida yaratilgan:

#good

#excellent

#bad

#terrible

Qozoq tilida esa bu yoʻnalish boʻyicha muayyan darajada jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sentiment analiz boʻyicha amalga oshirilgan ishlarda soʻzlarning sentiment analizi uchun soʻzlarni quyidagi sinflarga ajratadi [4]:

- sifatga oid soʻz va soʻz birikmalar (baholash: [-2; 2]);
- otlar (baholash: [-1;1]);
- feʼlga oid soʻz va soʻz birikmalar (baholash: [-1;1]);
- ravish (orttirma daraja).

Soʻzlar bigram shaklda u bilan ifodalagan birikmalarning 3 qiymatga ega: baholash tonalligi, ijobiy leksik markerlar bilan ifodalangan birikmalar soni, salbiy leksik markerlar bilan ifodalangan birikmalar soni. Agar olingan natija 0 dan yuqori boʻlsa, fikr ijobiy agar undan past boʻlsa salbiy ottenkani ifodalaydi.

Bu kabi lugʻatlarni qoʻl mehnati yordamida yoki avtomatik tarzda yaratish mumkin. Avotmatik usulda yaratish oson va tez boʻladi.

Rus tili milliy korpusida har bir soʻz teglangan: Ev:posit => «гений», «малыш», Ev:neg=> «обжора», «припала».

Bundan koʻrinib turibdiki, ushbu baholash shkalasi quyidagi ottenkaga ega:


-2	-1	0	1	2
Juda yomon	Yomon	Neytral	Yaxshi	Juda yaxshi
<i>Bashara</i>	<i>Aft</i>	<i>yuz</i>	<i>chehra</i>	<i>oraz</i>

Ushbu baholash belgisiga koʻra soʻzlar aniqlangandan soʻng, qaysi birliklar koʻp ishlatilishi yoki kam qoʻllanilishi statistik metod orqali tahlil qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Jurafskiy D., James H. Martin Speech and language processing. An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition, 2007 –P. 397.
2. Зверева П.П. Сентимент-анализ текста (на материале печатных текстов газеты «The New York Times» о России и россиянах) / Вестник МГОУ. Серия: Лингвистика, 2014 / № 5. – С. 33.
3. Scherer, K. R. (2000). Psychological models of emotion. In Borod, J. C. (Ed.), The neuropsychology of emotion, Oxford.pp. –137–162.
4. Ерғеш Бану Определение тональности текстов на казахском языке на основе словаря эмоциональной / Turklang.2017 international conference –Kazan, 2017. – С. 63-64.
5. X. Li. D. Roth, *Learning Question Classifiers: The Role of Semantic Information*, Natural Language Engineering 1 (1): 000–000. Cambridge University Press. 2004.
6. Bryan S.Todd An introduction to expert systems. Oxford university (monograph), 1992. –101 p.
7. Vibhakti V. Bhaire, Ashiki A. Jadhav, Pradnya A. Pashte, Mr. Magdum P.G SPELL CHECKER / International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 5, Issue 4, April 2015.
8. Galitsky, B. Machine Learning of Syntactic Parse Trees for Search and Classification of Text. Engineering Application of AI, <http://dx.doi.org/10.1016/j.engappai>. 2012.
9. Galitsky B., Iovsky D., Kuznetsov S. Parse thicket representations of text paragraphs, «Диалог» (2013) Выпуск 12, – P 241.
10. Abdurakhmonova N. Tuliyeu U. Spell checking analysis of Uzbek texts using Djaro Winkler algorithm / Turklang. 2018 international conference. – Tashkent, 2018 –P. 311-314.
11. N. Abdurakhmonova, I. Alisher and R. Sayfulleyeva, "MorphUz: Morphological Analyzer for the Uzbek Language," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 2022, pp. 61-66, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919579.
12. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation.

- Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.
13. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.
 14. Mengliev D, Barakhnin V, Abdurakhmonova N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words. Applied Sciences. 2021; 11(19):9117. <https://doi.org/10.3390/app11199117>
 15. Abdurakhmonova N., Tuliyeu U. and Gatiatullin A., "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670043.
 16. Kubedinova L. Khusainov A., Suleymanov D., Gilmullin R., Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020) .2020/11: 90-101.
 17. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik), Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 400 b.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

UDK: 83:10

Elov Botir BoltayevichAlisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

(e-mail: elov@navoiy-uni.uz.

ORCID: 0000-0001-5032-6648)

Hamroyeva Shahlo MirjonovnaAlisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

(e-mail: shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz.

ORCID: 0000-0002-5429-4708)

Xusainova Zilola YuldashevnaAlisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti stajor-o'qituvchi.

(e-mail: xusainovazilola@navoiy-uni.uz.

ORCID: 0000-0003-4357-7515)

NLPNING ZAMONAVIY ALGORITMLARI VA KONSEPSIYALARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlari insonning til ma'lumotlarini, shu jumladan, strukturlanmagan matn ma'lumotlarini qayta ishlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda NLP algoritmlari til qoidalariga asoslangan, statistik va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar asosida ishlab chiqiladi. Til qoidalariga asoslangan yondashuv asosida asosan NLP vazifalari uchun lingvistik bazalarni shakllantirish va til korpuslarida razmetkalash amallari bajariladi. Statistik algoritmlar mashinalarga inson tillarini o'qish, tushunish va ma'no olish imkonini beradi hamda katta hajmdagi (bigdata) matnlarni qayta ishlashga asoslanadi. Statistik algoritmlardan nutqni tanib olish, mashina tarjimai, hissiyotlarni tahlil qilish, matnlarni tasniflash va tahlil qilish kabi ko'plab NLP vazifalarda qo'llaniladi. Bugungi kunda mashinali o'rganish (ML) algoritmlarining CNN va RNN texnologiyalari asoslangan chuqur o'rganish modellari mavjud NLP tizimlarini "o'rganish" imkonini beradi va katta hajmdagi strukturlanmagan matnlarni yanada aniqroq qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu maqolada bugungi kundagi NLPning zamonaviy algoritmlari va konsepsiyalari haqida fikr-mulohaza yuritiladi va o'zbek tilidagi matnlarni ushbu algortimlar asosida qayta ishlash usullari keltiriladi.

Tayanch tushunchalar: NLP, pipeline konveyeri, Levenshtein masofasi, kosinus o'xshashligi, Bag of words usuli, TF-IDF algoritmi.

АННОТАЦИЯ

Алгоритмы обработки естественного языка (NLP) служат для обработки данных человеческого языка, включая неструктурированные текстовые данные. Сегодня алгоритмы NLP разрабатываются на основе языковых правил, статистических подходов и подходов искусственного интеллекта. На основе подхода, основанного на языковых правилах, осуществляется формирование лингвистических основ для задач NLP и операции классификации в языковых корпусах. Статистические алгоритмы позволяют машинам читать, понимать и извлекать смысл из человеческих языков и основаны на обработке больших объемов текстов (больших данных). Статистические алгоритмы используются во многих задачах NLP, таких как распознавание речи, машинный перевод, анализ настроений, классификация и анализ текста. Сегодня модели глубокого обучения алгоритмов машинного обучения (ML) на основе технологий CNN и RNN позволяют «обучать» существующие системы NLP и позволяют более точно обрабатывать большие объемы неструктурированных текстов. В данной статье рассматриваются современные алгоритмы и концепции NLP на сегодняшний день, а также представлены методы обработки текстов на узбекском языке на основе этих алгоритмов.

Опорные понятия: NLP, конвейерный конвейер, расстояние Левенштейна, косинусное сходство, метод мешка слов, алгоритм TF-IDF.

ANNOTATION

Natural language processing (NLP) algorithms serve to process human language data, including unstructured text data. Today, NLP algorithms are developed based on language rule-based, statistical and artificial intelligence approaches. Based on the approach based on language rules, the formation of linguistic bases for NLP tasks and the operations of classification in language corpora are performed. Statistical algorithms allow machines to read, understand and derive meaning from human languages and are based on processing large volumes of (bigdata) texts. Statistical algorithms are used in many NLP tasks such as speech recognition, machine translation, sentiment analysis, text classification and analysis. Today, deep learning models of machine learning (ML) algorithms based on CNN and RNN technologies allow to "learn" existing NLP systems and allow more accurate processing of large volumes of unstructured texts. This article discusses modern algorithms and concepts of NLP today, and methods of processing texts in the Uzbek language based on these algorithms are given.

Supporting concepts: NLP, pipeline pipeline, Levenshtein distance, cosine similarity, Bag of words method, TF-IDF algorithm.

Kirish


Bugungi kunda ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP)ning ommabop vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda *matematik tenglamalar, formulalar, paradigmalar, shablonlarni* matn shaklida ifodalash va uni qayta ishlash uchun matn semantikasini (tarkibini) tushunish uchun maqsadida *tasniflash va fragmentatsiya kabi* amallar bajarilishi lozim.

Dasturchilar kompyuterlar va odamlarga tabiiy til yordamida o'zaro ma'lumot almashish imkonini beruvchi mexanizmlarini ishlab chiqadilar. Kompyuterlar NLP tufayli inson tilini *o'qishi, sharhlashi, tushunishi va javob qaytarishi* mumkin. Qoidaga ko'ra, ishlov berish mashinaning aql darajasiga asoslanadi. NLP algoritmlari inson xabarlarini uning uchun mazmunli bo'lgan raqamli shakldagi ma'lumotlarga aylantiradi. NLP jarayonlari va ularning algoritmlari qanday ishlashini tushunish juda muhimdir. Zamon bilan hamnafas bo'lish va bu texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Hozirda NLPda hal qilinadigan vazifalar orasida eng muhimlari quyidagilar (1-rasm) [1, 2]:


- **mashina tarjimasi** (machine translation) – NLP texnologiyalarini ishlab chiquvchilarga yuklatilgan birinchi *klassik vazifa*;

- **imloni tekshirish** (grammar and spell checking) – o‘zbek tilidagi matnlar imlosini avtomatik tekshirish va tuzatish;
- **matn tasnifi** (text classification) – matn semantikasini aniqlash;
- **nomlanuvchi obyektlarni aniqlash** (named-entity recognition, NER) – ma’noga ega obyektlarni aniqlash;
- **umumlashtirish** (summarization) – matnni soddalashtirilgan shaklga umumlashtirish;
- **matn generatsiyasi** (text generation) – AI tizimlarini yaratishda foydalaniladigan vazifalardan biri;
- **tematik modellash** (topic modeling) – katta hajmdagi matnlardan yashirin mavzularni ajratib olish.



1-rasm. NLP vazifalari murakkabligi

Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy va dolzarb NLP vazifalarning barchasi ko‘pincha interaktiv AI-tizimlarini yaratishda umumlashtiriladi: **chat-botlar** [3, 4]. Bu inson so‘rovlarini dasturiy ta’minot bilan birlashtirishga yordam beradigan muhit (tizim) hisoblanadi. Umuman olganda, NLPdan foydalanadigan tizimlarning ishlashini quydagi konveyer sifatida tasvirlash mumkin [5, 6, 7]:



2-rasm. NLP pipeline konveyeri

1. Matnni (yoki matnga aylantirilgan ovozni) kiriti sh;
2. Matnni tarkibiy qismlarga ajratish (segmentatsiya va tokenizatsiya);
3. Matnni tozalash (keraksiz elementlarni olib tashlash);
4. Matnni vektorlashtirish va xususiyatlarni ishlab chiqish;
5. Lemmatizatsiya va stemming;
6. Mashinali o‘rganish algoritmlari va modellarini o‘qitish usullaridan foydalanish;

7. Natijani tahlil qilish.

B.B.Elov, Sh.M.Khamroeva va Z.Xusainovalar tomonidan o'zbek tilidagi matnlarni bosqichma-bosqich qayta ishlashning pipeline jarayoni (konveyeri) uchun zarur texnologiyalar, usullar va algoritmlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan [8]. Matnni qayta ishlash konveyerini rejalashtirish va ishlab chiqish har qanday NLP loyihasini yaratishning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi. Ushbu maqolada zamonaviy NLPda qo'llaniladigan eng mashhur texnologiyalar, usullar va algoritmlarni tavsiflanadi.

Satrlar o'xshashligini aniqlash

Tabiiy tilni qayta ishlash odatda matn yoki matnga asoslangan ma'lumotlarni (*audio, video*) qayta ishlashni taqozo etadi. Bu jarayondagi muhim qadam so'z va so'zshakllarni bitta nutq shakliga aylantirishdir. Shunigdek, ko'p hollarda satrlarning qanchalik o'xshash yoki farqli ekanligini aniqlash kerak. Odatda, so'zlar orasidagi farqni ko'rsatadigan turli ko'rsatkichlar (metrikalar)dan foydalaniladi [9]. Hozirda starlarning o'xshashlikni hisoblashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- *Levenshtein masofasi*;
- *Kosinus o'xshashligi*;
- *Hamming masofasi*.

Levenshtein masofasi

Oddiy va, ayni paytda, keng miqyosida foydalanish mumkin bo'lgan metrikalardan biri bu masofani o'lchashning **Levenshtein masofasi** deb nomlanadi [10,11,12]. Levenshtein masofasi – ikkita satr qiymatining (*so'z, so'zshakl, so'z tarkibi*) minimal sonini solishtirish (tahrirlash) orqali o'xshashligini baholash algoritmi. Levenshtein masofasi matn terish xatolarini aniqlashda uchun ishlatiladi. Quyida **a** (*a* = “matematika”) va **b** (*b* = “maktab”) so'zlari orasidagi Levenshtein masofasini aniqlash jarayoni keltirilgan:

M	A		T	E	M	A	T	I	K	A
M	A	K	T			A	B			

2-rasm. Levenshtein masofasini aniqlash jarayoni

Ikki so'z orasidagi Levenshtein masofasi bir so'zni boshqasiga almashtirish uchun zarur bo'lgan bir belgidan iborat tahrirlarning (*qo'shish, o'chirish yoki almashtirish*) minimal sonini ifodalaydi. Shunday qilib, ushbu algoritm quyidagi matn amallarini o'z ichiga oladi:

- *satrga belgi qo'shish (insert)*;
- *satrdab belgini o'chirish (delete)*;
- *belgilarni almashtirish (replace)*.

Ikkita satr o'rtasidagi Levenshtein masofasini aniqlashning algoritmi, psevdokodi va Python tilidagi tadbiiq'i quyida keltirilgan. Levenshtein masofasini aniqlash algoritmi:

$$lev_{a,b}(i,j) = \begin{cases} \max(i,j) & \text{Agar } \min(i,j) = 0, \\ \min \begin{cases} lev_{a,b}(i-1,j) + 1 \\ lev_{a,b}(i,j-1) + 1 & \text{aks holda} \\ lev_{a,b}(i-1,j-1) + 1 & (a_i \neq b_j) \end{cases} \end{cases}$$

Levenshtein masofasini aniqlashning psevdokodi va Python tilidagi tadbiiq'i quyida keltirilgan:

```

Function levdist(a,b)
if a.size() == 0 then
    return b.size();
end
if b.size() == 0 then
    return a.size();
end

```

```
indicator ← a[0] 0 ≠ b[0] ? 1 : 0;
return Minimum(
    levdist(a.substr(1),b)+1,           // o‘chirish;
    levdist(b.substr(1),a)+1,           // qo‘shish;
    levdist(a.substr(1),b.substr(1))+indicator); // almashtirish;
end
```

```
def levdist(str_1, str_2):
    n, m = len(str_1), len(str_2)
    if n > m:
        str_1, str_2 = str_2, str_1
        n, m = m, n
    current_row = range(n + 1)
    for i in range(1, m + 1):
        previous_row, current_row = current_row, [i] + [0] * n
        for j in range(1, n + 1):
            add, delete, change = previous_row[j] + 1, current_row[j - 1] + 1, previous_row[j - 1]
            if str_1[j - 1] != str_2[i - 1]:
                change += 1
            current_row[j] = min(add, delete, change)
    return current_row[n]
```

Masofani o‘lchash uchun mashhur NLP ilovalari quyidagilar:

- *imloni avtomatik tekshirish (tuzatish) tizimlari;*
- *bioinformatikada DNK ketma-ketliklarining o‘xshashligini miqdoriy aniqlash tizimlari;*
- *matnni qayta ishlash -ba’zi matn obyektlariga yonma-yon joylashgan so‘zlarning yaqinligini aniqlash tizimlari.*

```
import Levenshtein
print(Levenshtein.distance('fidokor', 'havaskor'))
```

Kosinus o‘xshashligi

Kosinus o‘xshashligi – turli hujjatlardagi matn o‘xshashligini o‘lchash (aniqlash) uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichdir. Ushbu ko‘rsatkich uchun hisob-kitoblar vektorning kosinus vektorlari formulasi bo‘yicha o‘xshashligi o‘lchovlariga asoslanadi [10,13]:

$$\text{similarity}(A, B) = \cos(\theta) = \frac{\bar{A} \cdot \bar{B}}{\|\bar{A}\| \cdot \|\bar{B}\|} = \frac{\sum_{i=1}^n A_i B_i}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (A_i)^2} \cdot \sqrt{\sum_{i=1}^n (B_i)^2}}$$

Bu yerda,

- θ – vektorlar orasidagi burchak;
- $\bar{A} \cdot \bar{B}$ – A ba B ning skalyar ko‘paytmasi bo‘lib, quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\bar{A} \cdot \bar{B} = A^T B = \sum_{i=1}^n A_i B_i = A_1 B_1 + A_2 B_2 + \dots + A_n B_n$$


- $\|\bar{A}\|$ – L2 norma bo‘lib, quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\|\bar{A}\| = \sqrt{\sum_{i=1}^n (A_i)^2}$$

Kosinus o‘xshashlik [-1,1] oralig‘idagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Vektorlar orasidagi kichikroq burchaklar kattaroq kosinus qiymatlarini hosil qiladi. Bu esa kattaroq qiymatdagi kosinus o‘xshashligini ko‘rsatadi. Masalan:

- Ikki vektor bir xil yo‘nalishga ega bo‘lsa, ular orasidagi burchak 0 ga, kosinus o‘xshashligi esa 1 ga teng.
- Perpendikulyar vektorlar o‘rtasida 90 gradusga va kosinus o‘xshashligi 0 ga teng.
- Qarama-qarshi vektorlar orasidagi burchak 180 gradusga va kosinus o‘xshashligi -1 ga teng.

Quyida 1 ga yaqin, 0 ga yaqin va -1 ga yaqin o‘xshashliklarga ega bo‘lgan ikkita vektorlar keltirilgan:



3-rasm. Kosinus o‘xshashlik vektorlari

Kosinus o‘xshashligi usuli **Data Science** va **Machine Learning** ilovalarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, kosinus o‘xshashligi usuli orqali quyidagi turdagi obyektlar o‘zaro taqqoslanadi:

- tabiiy tilda ishlov berishdagi hujjatlar;
- filmlar, kitoblar, videolar;
- grafikli tasvirlar.

Matnni tavsiflovchi vektor sifatida turli xil matn elementlari yoki xususiyatlaridan (masalan, matnni vektorlashtirish usullari) foydalanish mumkin. O‘xshashligini hisoblash lozim bo‘lgan barcha “gaplar” dan vektor maydonini shakllantirish lozim bo‘ladi. Ushbu vektor maydoni barcha gaplarda birlashtirilgan noyob (unikal) so‘zlardan iborat ko‘p o‘lchamga ega bo‘ladi. Kosinus o‘xshashligi vektor fazo modelida quyida ko‘rsatilgan vektorlar orasidagi farqlarni uchta shart uchun hisoblab chiqadi.

Kosinus o‘xshashligini hisoblash natijasi matnning o‘xshashligini tavsiflaydi va kosinus yoki burchak qiymatlari sifatida taqdim etilishi mumkin. Berilgan uchta matnni solishtirgandagi kosinus masofasini hisoblash natijalari (1-jadval) matnlar mos kelganda kosinus qiymatining birga va burchakning nolga yaqinlashishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, olingan kosinus o‘xshashlik qiymatlari oddiy semantik matnni oldindan qayta ishlash uchun ishlatilishi mumkin.

Berilgan korpus

```
str1 = "Adirlar ham bahorda lola bilan go‘zal, chunki lola – bahorning erka guli."
str2 = "Lola ham shifokorlik kasbini tanladi."
str3 = "Bahorda daraxtlar kurtak ochadi."
str4 = "Shifokorlik jamiyatda kerakli kasb."
```

Tahlil natijasini sifatini oshirish maqsadida quyidagi funksiyani ishlab chiqish lozim:

- berilgan satrdan tinish belgilarini olib tashlash;
- kichik harflarga aylantirish;
- nomuhim so‘zlarini olib tashlash.

```
def clean_string(text):
```

```
    text = ".join([word for word in text if word not in string.punctuation])
    text = text.lower()
    text = '.join([word for word in text.split() if word not in stopwords])
    return text
```

O‘zbek tilidagi so‘z birikmalari yoki gaplarni (3 ta gap) berilgan korpus asosida kosinus o‘xshashligini aniqlash masalasini ko‘rib chiqamiz:

Berilgan gaplar (soʻz birikmalari)

check_str1 = "Lola doim kerak."

check_str2 = "Shifokorlar bahorda dam oladilar."


check_str3 = "Lola – erkatoʻy goʻzal qizaloq."

1-jadval.

Berilgan korpus va matnlarning kosinus oʻxshashligini aniqlash

Matnlar	str1	str2	str3	str4
check_str1	0.55	0.46	0	0
check_str2	0.27	0	0.47	0
check_str3	0.61	0.32	0	0

Ushbu tahlil natijasidan "Lola doim kerak" gapining berilgan korpusdagi str1 = "Adirlar ham bahorda lola bilan goʻzal, chunki lola – bahorning erka guli." matni bilan kosinus oʻxshashlik koeffitsienti 0.55 ga teng ekanligini anglash mumkin. Xuddi shu usulda berilgan korpusdagi barcha matnlar bilan kalit soʻzlarini yoki soʻz birikmalarini 4-rasmga keltirilgan algortim asosida kosinus oʻxshashlik qiymatini hisoblash mumkin.



4-rasm. Kosinus oʻxshashlik qiymatlari aniqlash algortimining blok-sxemasi

Raqamli vektorlar

Raqamli vektorlar – matndan muhim atributlarni (xususiyatlarni) aniqlash va mashinali oʻrganish algortimlarida ulardan foydalanish uchun soʻzlarni sonli formatga oʻtkazish jarayoni [14]. Bugungi kunda NLP vazifalarini hal qilishda “Soʻzlar sumkasi” (Bag of words) va “TF-IDF” kabi

raqamli vektorlarni hosil qilish usullaridan keng miqyosida foydalaniladi [15,16]. O'zbek tilidagi matnlarning kosinus o'xshashligini aniqlash algoritmidan ham berilgan gapga mos TF-IDF qiymatlarni hisoblash boshqichidan foydalanilgan [17].

BOW usuli

Matn ma'lumotlarini vektorlashtirishning eng oddiy usuli quyidagilarni o'z ichiga oladi [18,19,20]:

- har bir so'zga unikal butun son indeksini belgilash;
- har bir so'zning paydo bo'lish sonini hisoblash va qiymatni tegishli indeks orqali saqlash.

Natijada, biz matndagi so'zlarning har biri uchun unikal indeks qiymati va takrorlanish chastotalariga ega vektorni olamiz.

1. Adirlar ham bahorda lola bilan go'zal, chunki lola – bahorning erka guli.

2. Lola ham shifokorlik kasbini tanladi.

Tokenizatsiya

Adirlar	ham	bahorda	lola	bilan	go'zal	chunki	bahorning	erka	guli	shifokorlik	kasbini	tanladi
1	1	1	2	1	1	1	1	1	1	0	0	0


Nomuhim so'zlarsiz lemmatizatsiya

adir	bahor	lola	go'zal	erka	gul	shifokor	kasb	tanla
1	2	2	1	1	1	0	0	0

5-rasm. BOW vektorini shakllantirish (tokenizatsiya, nomuhim so'zlarsiz lemmatizatsiya)

Matnni BOW vektor shaklida ifodalashda so'zlar to'plamida (*korpusda*) bir nechta unikal so'zlar ($n_{features}$) mavjudligini anglatadi. Mualliflar tomonidan yozilgan "Tabiiy tilni qayta ishlashda Bag of Words algoritmidan foydalanish" nomli maqolada BoW modellashirish algoritmidan foydalanib, o'zbek tilidagi matnni raqamli matritsalariga aylantirish va qayta ishlash usullari keltirilgan [18].

TF-IDF usuli



6-rasm. TF-IDF algortimini qo'llash

TF-IDF usuli orqali so'zning matndagi barcha boshqa so'zlarga nisbatan ahamiyati baholanadi. NLP vazifalarini hal qilishda ushbu usuldan matndagi **so'zlar chastotasi** va **teskari hujjat chastotasini** aniqlashda foydalaniladi. Agar biron bir matnda so'z *ko'proq*, boshqa matnda *kamroq* uchraydigan bo'lsa, bu so'z birinchi matn uchun ko'proq ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu usuldagi **TF** – matndagi so'zlarning umumiy soniga nisbatan matndagi so'zning chastotasini, **IDF** – matndagi so'zlarning teskari chastotasini ifodalaydi. Berilgan matn uchun TF-IDF qiymatli hisoblash ketma-ketligi quyidagicha:

1. Har bir so'z uchun TF qiymatlarni hisoblash;

2. *Ushbu so'zlar uchun IDF qiymatlarni hisoblash;*
3. *Har bir so'z uchun TF-IDF qiymatini hisoblash ($TF \cdot IDF$);*
4. *Har bir so'z uchun hisoblangan TF-IDF orqali lug'atni shakllantirish.*

Quyidagi 6-rasmda bitta so'z uchun TF-IDF qiymatni hisoblash algoritmi ko'rsatilgan:

Vektorizatsiya usulining afzalliklari quyidalar:

- *Nomuhim so'zlar TF-IDF qiymatda past vazniga ega bo'ladi (chunki ular barcha matnlarda juda ko'p marotaba uchraydi) va muhim so'zlar – yuqori qiymatlarni qabul qiladi.*
- *Matndagi muhim so'zlar va nomuhim so'zlarni baholash oson.*

Mualliflar tomonidan yozilgan “O'zbek tili korpusi matnlari uchun tf-idf statistik ko'rsatkichni hisoblash” nomli maqolada o'zbek tili korpusidagi hujjatlarni TF-IDF usulidan foydalanib, kalit so'zga mos tarzda tartiblash usullari keltirilgan [17]. Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida korpusidagi matnlarga mos TF-IDF qiymatlarni hisoblashda matnni normallashtirishning muhim bosqichi hisoblangan lemmatizatsiya jarayonini amalga oshirish orqali tahlil samaradorligini oshirishini qayd etilgan.

Matnni normallashtirish

Odatda, NLP masalasi bir necha kichik qismlarga ajratilib, bosqichma-bosqich hal qilinishi lozim. NLPda matnni bosqichma-bosqich qayta ishlash **pipeline jarayoni** (konveyeri) deb yuritiladi [8]. B.Elov, Sh.M.Khamroeva va Z.Y.Xusainovalar tomonidan o'zbek tili matnlari uchun NLPning pipeline konveyeri amalga oshirish uchun bajariladigan qadamlar va ularning NLP vazifalarini hal qilishdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan. Pipeline jarayonining muhim bosqichlaridan biri **matnni normallashtirish** hisoblanadi.

NLPda matnni normallashtirish (yoki so'zlarni normallashtirish) usullari *matnlarni, so'zlarni va hujjatlarni boshlang'ich qayta ishlash* uchun ishlatiladi. Bunday amallar, odatda, yuqori aniqlikka ega NLP modellarini ishlab chiqish uchun *matnni (so'zlarni yoki nutqni)* to'g'ri talqin qilish uchun ishlatiladi.

Bugungi kunda NLP masalalarini hal qilishda barcha holatlar uchun ishlaydigan normalizatsiya vazifalarining “to'g'ri” to'plami yoki ro'yxati mavjud emas. Ammo hozirda umumiy maqsadli vositalar to'plami va oldindan tayyorlangan pipeline tizimlaridan ko'pgina NLP masalalarida foydalanib kelinmoqda. Matnni normallashtirish usullaridan foydalangan holda amalga oshiririshi lozim bo'lgan qadamlarni aniq belgilab olish lozim [21].

Matnni normallashtirishda biz **nimani** va **nima uchun** normallashtirishimiz lozimligini aniq bilishimiz kerak. Normallashtirish maqsadi aniq bo'lgach, qo'llashimiz kerak bo'lgan qadamlarni shakllantirish zarur. Ko'p hollarda normallashtirishdan manfaatdor bo'lgan ikkita narsa bor:

- **Gap tuzilishi (strukturasi):** Gaplar har doim tinish belgilari bilan tugashi kerakmi? Tinish belgilari takrorlanishi mumkinmi? Barcha tinish belgilarini olib tashlashimiz kerakmi? Muayyan shablon (struktura)dan foydalanish mumkinmi?
- **Lug'at:** Ko'pincha so'z boyligimiz imkon qadar kichikroq bo'lishini xohlaymiz. Buning sababi shundaki, NLPda so'zlar bizning asosiy xususiyatlarimiz hisoblanadi. Agar bizda kamroq hajmdagi so'zlar bilan NLP masalasi hal qilishga imkon bo'lsa natijaga tezroq erishiladi.

Amalda, NLP masalasini yuqoridagi ikki jihatni inobatga olgan holda matnni normallashtirishni oddiyroq (kichikroq) muammolarga ajratib hal qilish lozim. Quyuda eng keng tarqalganlar NLP amallari ro'yxati keltirilgan:


- takrorlanuvchi bo'shliq (probel)lar va tinish belgilarini olib tashlash;
- tutuq belgisini olib tashlash (agar sizning ma'lumotlaringizda “xorijiy” tillardagi diakritik belgilar bo'lsa – ushbu amal kodlash turi bilan bog'liq xatolarni kamaytirishga yordam beradi);
- katta harflarni kichikka almashtirish (ko'pincha kichik harflar bilan ishlash yaxshi natijalar beradi. Biroq, ba'zi hollarda, ismlar va joy nomlari kabi ma'lumotlarni olish uchun katta harflar juda muhim);
- maxsus belgilarni/emojilarni olib tashlash yoki almashtirish (masalan: heshteglarni olib tashlash);
- qisqartirishlarni almashtirish;

- so‘z birikmasi shaklidagi sonlarini sonli ko‘rinishga aylantirish (masalan: ‘yigirma uch’→‘23’);
- qiymatlarni ularning turiga almashtirish (masalan: ‘\$50’→‘pul’);
- qisqartmalarni normallashtirish (masalan: ‘US’→‘United States’/‘U.S.A’) va abbreviaturalarni normallashtirish (masalan: ‘va h.z.’→‘va hokazo’);
- sana formatlarini yoki standart formatga ega bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni normallashtirish;
- imloni tuzatish (so‘zni cheksiz yo‘llar bilan noto‘g‘ri yozish mumkin, shuning uchun imlo tuzatishlar “tuzatish” orqali lug‘at o‘zgarishini kamaytiradi) — agar siz tvitlar, online va elektron pochta xabarlar kabi ochiq foydalanuvchi kiritishlari bilan ishlayotgan bo‘lsangiz, bu juda muhim;
- **stemming** yoki **lemmatizatsiya** bilan turli variantlarni normallashtirish;
- kamdan-kam uchraydigan so‘zlarni keng tarqalgan sinonimlar bilan almashtirish;
- nomuhim so‘zlarni o‘chirish.

O‘zbek tili korpusi matnlarini normallashtirishdagi keng tarqalganlar NLP amallari tahlili mualliflarning ishida batafsil keltirilgan. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi matnlaridagi *stemming* va *lemmatizatsiya* jarayonlari va ularning farqlari haqida ma‘lumot beriladi [22,23,24,25,26].


Stemming va lemmatizatsiya

Odatda, matnli hujjatlarda turli xil so‘zshakllardan foydalaniladi, masalan:



6-rasm. “aql” so‘zining so‘zshakllari

Turli ma‘noli o‘xshash so‘zlar (**similar definitions**).



7-rasm. Turli ma‘noli o‘xshash so‘zlar

Stemming va lemmatizatsiya jarayoning maqsadi turli soʻzshakllarini, baʼzan esa oʻzakdosh soʻzlarni umumiy asosini aniqlashdan iborat. **Stemming** – bu soʻzlarni ularning asos (oʻzak) shakliga qisqartirish usuli (soʻzning kanonik shaklini hosil qilish). Stemming jarayonida, odatda, soʻzlardagi qoʻshimchalarini kesib tashlaydigan evristik amaldan foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval.

Stemming va lemmatizatsiya jarayonlari


soʻzshakl	stem	lemma	asos
kelajagimiz	kelajag	kelajak	kelajak
oʻquvchilar	oʻquv	oʻquvchi	oʻqi
borib ketdi	bor ket (2ta)	borib ketmoq	bor ket (2ta)
ega boʻlishdi	ega boʻl (2ta)	ega boʻlmoq	ega boʻl (2ta)
taqillatdi	taqilla	taqillamoq	taq
undami	un	u	u
keldilar	kel	kelmoq	kel
uyda	uy	uy	uy
har birimiz	har bir (2ta)	har bir	har bir (2ta)

Lemmatizatsiya soʻzshaklni (yoki soʻzni) asosiy shakli – **lemmaga** aylantiradigan matnni oʻzgartirish jarayoni. Odatda, bu jaratonda *lugʻatlar, morfologik tahlil va soʻz turkumlariga ajratish* kabi amallardan foydalaniladi.

Stemming va lemmatizatsiya oʻrtasidagi farq shundaki, oxirgisi kontekstni oladi va soʻzni lemmaga aylantiradi, stemming esa soʻnggi (baʼzan soʻz boshidagi) bir nechta belgilarni kesib tashlaydi. Bu esa koʻp hollarda notoʻgʻri maʼno va imlo xatolariga olib keladi. Oʻzbek tilidagi matnlarni qayta ishlashning dastlabki ishlov berish bosqichlari hisoblangan *tokenizatsiya, stemming va lemmatizatsiya* jarayonlar haqida [27,28,29] maqolalarda batafsil maʼlumot berilgan.

Naive Bayes algoritmi asosida matnlarni tasniflash

Naive Bayesian Analysis (NBA) – matnlarni **tasniflash algoritmi** boʻlib, xususiyatning mustaqilligi gipotezasiga asoslangan Bayes teoremasi tatbigʻi hisoblanadi. Matnni tasniflash ikki bosqichdan: **oʻrganish bosqichi** va **baholash bosqichidan** iborat. Oʻrganish bosqichida klassifikator oʻz modelini berilgan maʼlumotlar toʻplamiga oʻrgatadi. Baholash bosqichida esa klassifikatorning ishlashini sinab koʻriladi. Ishlab chiqilgan **model** aniqlik, xatolik va moslashuvchanlik kabi turli parametrlar asosida **baholanadi**.



8-rasm. Martnni tasniflash bosqichlari

NBA sinfdagi biron-bir xususiyatning mavjudligi boshqa hech qanday xususiyat bilan bogʻliq emas deb hisoblaydi. Shuning uchun bunday yondashuv “**Naïve**” deb ataladi. Ushbu tasniflagichning

afzalligi modelni o'qitish, parametrlarni baholash va tasniflash uchun kichik ma'lumotlarni talab qiladi.

Naive Bayes klassifikatori sinfdagi ma'lum bir xususiyatning ta'siri boshqa xususiyatlardan mustaqil ekanligini taxmin qiladi. Bu xususiyatlar o'zaro bog'liq bo'lsa-da, xususiyatlar mustaqil ravishda ham ko'rib chiqiladi. Bu taxmin hisoblashni soddalashtiradi va shu sababli **sodda** deb yuritiladi. Ushbu faraz sinfningsh **shartli mustaqilligi** deb ataladi. Naive Bayes klassifikatori har bir xususiyat uchun ehtimolliklarni hisoblab chiqadi va eng yuqori ehtimollik bilan natijani tanlaydi.

$$P(\text{class}|\text{data}) = \frac{P(\text{data}|\text{class}) \cdot P(\text{class})}{P(\text{data})}$$

– **P(class):** *h gipotezasining rost bo'lish ehtimoli (ma'lumotlardan qat'i nazar). Bu h ning aprior ehtimoli sifatida qo'llaniladi.*

– **P(data):** *ma'lumotlarning ehtimolliigi (gipotezadan qat'i nazar). Bu aprior ehtimollik sifatida qo'llaniladi.*

– **P(class|data):** *D ma'lumotlar asosida h gipoteza ehtimoli. Bu aposterior ehtimollik sifatida qo'llaniladi.*

– **P(data|class):** *h gipotezasi to'g'ri bo'lganligi sharti asosida ma'lumotlarning d ehtimoli. Bu aposterior ehtimollik sifatida qo'llaniladi.*

P(A|B) – “**B** hodisa amalga oshgandagi **A** data hodisasi sodir bo'lish ehtimoli” deb o'qiladi. Tenglamaning o'ng tomondagi ifoda ikkala hodisaning birgalikda sodir bo'lish ehtimolini **B** hodisasining yuzaga kelishi ehtimoliga bo'lish orqali hisoblanadi.

Naive Bayes klassifikatori

Matnli ma'lumotlarni klassifikator orqali diskret razmetkalarga tasniflashimiz sababli, Naive Bayes algoritmi uchun *kirish funksiyalari to'plami* hamda *ularga mos tegishli chiqish sinfiga* ega bo'lamiz. Naive Bayes klassifikatori quyidagi formula yordamida ehtimollikni hisoblaydi:

$$P(y_1|x_1, x_2, x_3) = \frac{P(y_1) \cdot P(x_1|y_1) \cdot P(x_2|y_1) \cdot P(x_3|y_1)}{P(x_1) \cdot P(x_2) \cdot P(x_3)}$$

Ushbu tenglamadagi $P(y_1|x_1, x_2, x_3)$ qabul qilingan $\{x_1, x_2, x_3\}$ ma'lumotlar asosida, chiqish sifatida y_1 bo'lish ehtimolini anglatadi. Faraz qilaylik, bizning NLP masalamiz jami 2 ta sinfga ega bo'lsin, ya'ni $\{y_1, y_2\}$. Endi yuqoridagi formuladan avval y_1 sodir bo'lish ehtimolini, keyin esa y_2 sodir bo'lish ehtimolini hisoblash lozim bo'ladi. Qaysi bir ehtimoli yuqori bo'lsa, bizning taxmin qilingan sinfimiz shu hisoblanadi. Naive Bayes algortimi orqali tasniflash yuqorida keltirilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Statistik tasniflash – tasniflangan matnlar ustida o'tkazilgan kuzatuv natijalaridir. Matnni tasniflashni amalga oshirish uchun, birinchi qadamda muammoni tushunish, potentsial xususiyatlar va razmetkalarni aniqlashdir. Xususiyatlar – belgilash natijalariga ta'sir qiladigan xususiyatlar yoki atributlar to'plami. Ushbu xususiyatlar modelga matnlarni tasniflashga yordam beradigan xususiyatlar sifatida aniqlanadi. Matnni tasniflash ikki bosqichdan: **o'rganish bosqichi** va **baholash bosqichidan** iborat. O'rganish bosqichida klassifikator o'z modelini berilgan ma'lumotlar to'plamiga o'rgatadi. Baholash bosqichida esa klassifikatorning ishlashi sinab ko'riladi. Ishlab chiqilgan **model** aniqlik, xatolik va moslashuvchanlik kabi turli parametrlar asosida **baholanadi**.

Naive Bayes klassifikatori yordamida grammatik jihatdan o'xshash bo'lgan so'z turkumlari orasida omonimiya hosil qiluvchi so'zlarni farqlash masalasini yechilishini ko'rib chiqsak. Buning bizga so'z turkumlarni tasniflash xususiyatlar zarur. Buni so'z turkumlarini grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlash mumkin.

Faraz qilaylik, ot yoki sifat so'z turkumlari orasidagi omonimiyani aniqlash masalasi qo'yilgan bo'lsin. Dastlab ot va sifat so'z turkumlari uchun tasniflash parametrlari aniqlanishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ot va sifat so'z turkumlari asosan o'zak va tarkibida qo'shimcha mavjud bo'lgan holatlarda bo'lishi mumkin, ya'ni **o'zak va o'zak +aff (affix)**. Misol tariqasida ot yoki sifat so'z turkumlari doirasida omonimiya hosil qiluvchi issiq so'zini keltiramiz.

O'zbek tili korpusi ma'lumotlari orasida *issiq* so'zini izlaganimizda 30782 ta o'rinda ishtiroki kuzatildi. Kuzatuvlarda issiq so'zi


- Uy **issiq** bo'lgani uchun tutun yuqoriga ko'tarilmaydi.

- Onamning **issiqqina** bagʻrini, mehrini baribir hech narsa bosolmaydi-da.
- Jazirama **issiqda** sunʻiy suv havzalarida choʻmilish bolalarga bir olam zavq berishi shubhasiz.
- Charchadim oʻqishdanmi, oʻylovlardanmi, **issiqdanmi**, sovuqdanmi bilmayman.
- Metro tomondan ishxonaga intilayotgan, **issiqda** biroz toliqqan Ustozga koʻzim tushdi.

kabi soʻzshakllarda uchrash holatlari kuzatildi. Kuzatuvlar natijasida ot yoki sifat soʻz turkumlari orasida omonimlik hosil qiluvchi soʻzlarni tasniflovchi parametrlar ularni *oʻzak* va *oʻzak+aff* ekanligi aniqlandi. Demak $x_1 = oʻzak$, $x_2 = oʻzak+aff$, $y_1 = sifat$ va $y_2 = ot$. Dastlab *oʻzak* shaklida uchrash holatlari tahlil qilindi. Tahlillarga koʻra issiq soʻzi *oʻzak* shaklida asosan sifat soʻz turkumiga oid boʻlishi kuzatildi.

Kuzatuvlar natijasidan olingan statistik maʼlumotlar asosida *issiq* soʻzining aprior va aposterior ehtimolliklarni hisoblash jarayonini soddalashtirish uchun *chastota* va *ehtimollik jadvalidan* foydalanish mumkin. Ushbu jadvallarning ikkalasi ham aprior va aposterior ehtimolliklarni hisoblashda yordam beradi. Chastotalar jadvali barcha xususiyatlar uchun teglarni oʻz ichiga oladi.


Gap tarkibida uchragan ot yoki sifat soʻz turkumlari doirasiga omonimlik hosil qiluvchi soʻzlarning sifat soʻz turkumiga doir boʻlish ehtimolini hisoblash jarayonini koʻrib chiqamiz. Uy **issiq** boʻlganligi sababli tutun yuqoriga koʻtarilmaydi.



9-rasm. Yangi uchragan issiq soʻzini teglash


Soʻzlarni oʻzaro bogʻlash (Word embedding)

Soʻzlarni oʻzaro bogʻlash – soʻzlarni, soʻzshakllarni yoki soʻz birikmalarini sonli vektorlari bilan bogʻlaydigan NLP modellarini yaratish uchun turli xil usullar va yondashuvlar toʻplami. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlash tamoyillari: bir xil kontekstda paydo boʻlgan soʻzlar oʻxshash maʼnoga ega. Bunda, **oʻxshashlik** faqat oʻxshash soʻzlar kontekstda joylashishi mumkinligi tushuniladi [30,31].



10-rasm. Soʻzlarni oʻzaro bogʻlash

Model soʻzning ehtimolini kontekstga koʻra bashorat qiladi. Shunday qilib, NLP modeli soʻz vektorlari boʻyicha shunday oʻqitiladiki, model tomonidan soʻzga tayinlangan ehtimollik maʼlum kontekstda uning mos kelish ehtimoliga yaqin boʻladi (**Word2Vec modeli**). Soʻzning kontekst boʻyicha oʻxshashlik ehtimoli **softmax formulasi** orqali hisoblanadi. Bu NLP-modelni *xatolarni orqaga qaytarish jarayoni* bilan oʻrgatish uchun ishlatiladi.



11-rasm. Soʻzning kontekst boʻyicha oʻxshashlik ehtimolini aniqlash

Eng mashhur ilovalar:

- **Word2Vec** – soʻz konteksti asosida soʻzlarni joylashtirishni hisoblash uchun neyron tarmoqlardan foydalanadi.
- **GloVe** – matnda soʻzlarning birgalikda paydo boʻlish ehtimolini tavsiflovchi soʻz vektorlarining kombinatsiyasidan foydalanadi.
- **FastText** – Word2Vec ga oʻxshash usul boʻlib, faqat soʻzlar oʻrniga ularning qismlari va belgilaridan foydalanadi hamda natijada soʻz uning kontekstiga aylanadi.

Xulosa


Ushbu maqolada matnni tahlil qilish va bir qator NLP amaliy vazifalarni hal qilish imkonini beradigan zamonaviy algoritmlar va konsepsiyalar koʻrib chiqildi. Oddiy oʻxshashlik koʻrsatkichlari, matnni normallashtirish, vektorlashtirish, soʻzlarni oʻzaro bogʻlash, Naive Bayes va LSTM algortimlari haqida maʼlumot berildi. Keltirilgan usul va algortimlar NLP masalalarini hal qilish uchun muhim hisoblanadi va ushbu sohani oʻrganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zhou, M., Duan, N., Liu, S., & Shum, H.-Y. (2020). Progress in Neural NLP: Modeling, Learning, and Reasoning. Engineering, 6(3), 275–290. <https://doi.org/10.1016/j.eng.2019.12.014>
2. Bulusu, A., & Sucharita, V. (2019). Research on machine learning techniques for POS tagging in NLP. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(1 Special Issue 4).
3. Ghorpade-Aher, J., Kontamwar, R., Kukreja, S., Karpe, T., & Kakkad, S. (2019). An overview of NLP based Chatbots. Universal Review, VIII(II).
4. Bhagwat, V. A. (2018). Deep Learning for ChatBots. Scholarworks.Sjsu.Edu.
5. Becquin, G. (2020). End-to-end NLP Pipelines in Rust. <https://doi.org/10.18653/v1/2020.nlposs-1.4>

6. Tenney, I., Das, D., & Pavlick, E. (2020). BERT rediscovers the classical NLP pipeline. ACL 2019 - 57th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, Proceedings of the Conference. <https://doi.org/10.18653/v1/p19-1452>
7. Attardi, G. (2015). DeepNL: A deep learning NLP pipeline. 1st Workshop on Vector Space Modeling for Natural Language Processing, VS 2015 at the Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies, NAACL-HLT 2015. <https://doi.org/10.3115/v1/w15-1515>
8. B.Elov. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da spacy modulidan foydalanish. Илм-фан ва инновацион ривожланиш, 2022 (4). 41-55.
9. N.Xudayberganov, Sh.Hasanov. Tabiiy tilni qayta ishlashda soʻzlar orasidagi masofani aniqlash algoritmidan foydalanish // Oʻzbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2022-yil 5 (2) son. – B. 69-83.
10. Yujian, L., & Bo, L. (2007). A normalized Levenshtein distance metric. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence, 29(6). <https://doi.org/10.1109/TPAMI.2007.1078>
11. Zhao, C., & Sahni, S. (2019). String correction using the Damerau-Levenshtein distance. BMC Bioinformatics, 20. <https://doi.org/10.1186/s12859-019-2819-0>
12. Behara, K. N. S., Bhaskar, A., & Chung, E. (2020). A novel approach for the structural comparison of origin-destination matrices: Levenshtein distance. Transportation Research Part C: Emerging Technologies, 111. <https://doi.org/10.1016/j.trc.2020.01.005>
13. Darmalaksana, W., Slamet, C., Zulfikar, W. B., Fadillah, I. F., Maylawati, D. S. adillah, & Ali, H. (2020). Latent semantic analysis and cosine similarity for hadith search engine. Telkomnika (Telecommunication Computing Electronics and Control), 18(1). <https://doi.org/10.12928/TELKOMNIKA.V18I1.14874>
14. Stecanella, B. (2019). What is TF IDF? MonkeyLearn.
15. Jalilifard, A., Caridá, V. F., Mansano, A. F., Cristo, R. S., & da Fonseca, F. P. C. (2021). Semantic Sensitive TF-IDF to Determine Word Relevance in Documents. Lecture Notes in Electrical Engineering, 736 LNEE. https://doi.org/10.1007/978-981-33-6987-0_27
16. Pietro, M. di. (2020). Text Classification with NLP: Tf-Idf vs Word2Vec vs BERT. Medium.
17. B. Elov, Z. Husainova, N.Xudayberganov. (2022). Oʻzbek tili korpusi matnlari uchun TF-IDF statistik koʻrsatkichni hisoblash. International scientific journal of “Science and Innovation”. Issue 8, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7440059>
18. B.Elov, Z.Xusainova, N.Xudayberganov. (2022). Tabiiy tilni qayta ishlashda Bag of Words algoritmidan foydalanish. Til va madaniyat, Amaliy filologiya masalalari. Vol.2(5). – B. 35-50.
19. Zhang, Y., Jin, R., & Zhou, Z. H. (2010). Understanding bag-of-words model: A statistical framework. International Journal of Machine Learning and Cybernetics, 1(1-4). <https://doi.org/10.1007/s13042-010-0001-0>
20. Yadav, A. K., & Borgohain, S. K. (2015). Sentence generation from a bag of words using N-gram model. Proceedings of 2014 IEEE International Conference on Advanced Communication, Control and Computing Technologies, ICACCCT 2014. <https://doi.org/10.1109/ICACCCT.2014.7019414>
21. Ariffin, S. N. A. N., & Tiun, S. (2020). Rule-based text normalization for malay social media texts. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 11(10). <https://doi.org/10.14569/IJACSA.2020.0111021>
22. Webster, J. J., & Kit, C. (1992). Tokenization as the initial phase in NLP. <https://doi.org/10.3115/992424.992434>
23. Rai, A., & Borah, S. (2021). Study of various methods for tokenization. In Lecture Notes in Networks and Systems (Vol. 137). https://doi.org/10.1007/978-981-15-6198-6_18
24. Hafsa Jabeen. (2018). Stemming and Lemmatization in Python. Towardsdatascience.
25. Balakrishnan, V., & Ethel, L.-Y. (2014). Stemming and Lemmatization: A Comparison of Retrieval Performances. Lecture Notes on Software Engineering, 2(3). <https://doi.org/10.7763/lmse.2014.v2.134>

26. Khyani, D., S. S. B., M. N. N., & M. D. B. (2021). An Interpretation of Lemmatization and Stemming in Natural Language Processing. *Journal of University of Shanghai for Science and Technology*, 22(10).
27. B.Elov, Sh.Hamroyeva, D.Elova. (2022). Morfologik analizatorni yaratish usullari, O'zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(1).
28. B.Elov, Sh.Hamroyeva, X.Axmedova. (2022). Methods for creating a morphological analyzer, 14th International Conference on Intelligent Human Computer Interaction, IHCI 2022, 19-23 October 2022, Tashkent.
29. Z.Xusainova. Tokenizatsiya algoritmlari. Ilmiy innovatsion jurnal: " Filologik tadqiqotlar: Til, adabiyot, ta'lim". 2022/№5-6. b.73-76
30. Rudkowsky, E., Haselmayer, M., Wastian, M., Jenny, M., Emrich, Š., & Sedlmair, M. (2018). More than Bags of Words: Sentiment Analysis with Word Embeddings. *Communication Methods and Measures*, 12(2–3). <https://doi.org/10.1080/19312458.2018.1455817>
31. Wang, B., Wang, A., Chen, F., Wang, Y., & Kuo, C. C. J. (2019). Evaluating word embedding models: Methods and experimental results. In *APSIPA Transactions on Signal and Information Processing* (Vol. 8). <https://doi.org/10.1017/ATSIP.2019.12>



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Xurshida Narxodjayeva

Qarshi davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

RASMIY MULOQOT MATNINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy xususiyatlari, muloqot so'zining leksik izohi, bu termin bilan baravar qo'llanib kelayotgan sinonimlari haqida izoh berilgan. Shu bilan bir qatorda tilshunoslarning muloqot matniga lingvomadaniy yondashuvlari xususidagi fikrlari bayon etilgan. Nutqiy muloqotning maqsadiga ko'ra: axborotni uzatish va uni qabul qilishga mo'ljallangan nutqiy muloqot; baho munosabatini bildirish va unga nisbatan javob reaksiyasini qabul qilishga mo'ljallangan nutqiy muloqot; nutqiy ta'sir ko'rsatish va uning natijasiga erishishga mo'ljallangan nutqiy muloqotga ajratilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, kommunikatsiya, nutqiy muloqot, kommunikativ aloqa, muloqot qoidalari.

Хуршида Нарходжаева

доцент кафедры узбекского языкознания
Каршинского государственного университета,
доктор философии по филологии

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ОСОБЕННОСТИ ТЕКСТА ОФИЦИАЛЬНОГО СООБЩЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье описываются лингвокультурологические особенности текста официального сообщения, лексическая интерпретация слова общение, а также синонимы, которые употребляются с этим термином. Кроме того, представлены мнения лингвистов о лингвокультурологическом подходе к коммуникативному тексту. По назначению речевого общения: речевое общение, направленное на передачу и получение информации; речевое общение, направленное на выражение ценностного отношения и получение на него ответа; выделяется речевое общение, предназначенное для оказания речевого воздействия и достижения его результата.

Ключевые слова: общение, общение, речевое общение, коммуникативное общение, правила общения.

Khurshida Narkhodjayeva

Associate Professor of the Department of Uzbek
Linguistics of Karshi State University,
doctor of philosophy in philology

LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF THE OFFICIAL COMMUNICATION TEXT

ABSTRACT

The article describes the linguistic and cultural characteristics of the official communication text, the lexical interpretation of the word communication, and the synonyms that are used with this term. In addition, the opinions of linguists about the linguistic and cultural approaches to the communication text are presented. According to the purpose of speech communication: speech communication aimed at transmitting and receiving information; speech communication intended to express an attitude of value and receive a response to it; is allocated to speech communication intended to have a speech effect and achieve its result.

Key words: communication, communication, speech communication, communicative communication, rules of communication.

Inson hayoti davomida muloqotning xilma-xil turlariga murojaat qiladi. Muloqot turlarining bir-biridagi farqlanishi kishilarning borliqqa, bir-biriga munosabatlarining bag'oyat ko'p qirrali va turlicha ekanligidan dalolat beradi. Albatta, o'zaro munosabatlarda muayyan muloqot turining tanlanishi, uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslar o'rtasidagi aloqa-munosabatlar xarakteriga bog'liq.

Muloqot turlaridan biri til vositalariga asoslangan lisoniy muloqot bo'lib, lingvistikaning o'rganish obyekti sanaladi.

Inson hayotini o'zaro bir-biri bilan muloqotsiz tasavvur etish qiyin. Jamiyatni o'zaro rishtalar, qarindoshlarning samimiyatga to'la muloqotlari bog'laydi. Jamiyat a'zolari o'zaro muloqot bilan birga rasmiy shaxslar doirasida rasmiy muloqot orqali ish ko'radilar. Ammo ko'pchilik davlat tashkilotlarida rasmiy shaxslar bilan qanday muomala qilish, muloqot odobi to'g'risida jamiyat a'zolarida yetarlicha tasavvurga ega emas.

Aslida, rasmiy muloqot jamiyatda barcha insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega deya olmaymiz. Chunki istalgan fuqaroning rasmiy idoralarga ishi tushadi. Xo'sh, rasmiy muloqot ko'nikmasini egallash uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim? O'zbek rasmiy muloqot odobi deganda nimani tushunamiz?

Ma'lumki, muloqot so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, uchrashish, ko'rishish; musobaha ma'nolarini anglatadi [1]. Bugungi kunda ushbu so'z nutqiy aloqa-aralashuv ma'nosidagi nutqiy muloqotga nisbatan ham ishlatilmoqda.

Ayrim manbalarda muloqot termini o'rnida nutqiy aloqa-aralashuv ma'nosidagi kommunikatsiya termini ishlatiladi. Jumladan, R.O.Yakobson kommunikatsiya terminini nutqiy muloqot ma'nosida ishlatadi. Uning fikricha, olimlar kommunikatsiyani turli jarayonlarni qamrab oluvchi uch darajada tavsiflashadi. Quyi chegara nutqiy axborotni uzatishga asoslangan kommunikatsiya hodisasini qamrab oladi, o'rta chegara axborot uzatishni til va tildan tashqari vositalar orqali amalga oshiradigan kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi; yuqori chegara barcha ijtimoiy kommunikatsiya jarayonini qamrab oladi. Birinchi kommunikatsiya jarayoni lingvistika tomonidan, ikkinchisi semiotika, uchinchi kommunikatsiya jarayoni esa muloqot nazariyasida o'rganiladi [2].

Muloqot odobi aslida unga yondosh tushunchalar bo'lgan "muloqot xulqi", "til madaniyati", "so'zlash madaniyati", "nutq madaniyati", "nutq odobi" kabi birliklar ham bir xil qo'llanib kelingan.

O'zbek tilshunosligida bu mavzu bo'yicha izlanish olib borgan Sh. Iskandarova jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo'llanilishi zarur bo'lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg'un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlarini nutqiy odat deb va uni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig'indisi bo'lsa, nutqiy odat ma'lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta'sirida shakllangan bo'ladi. Nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun shaxs o'z fikrini to'g'ri, ifodali va ta'sirchan holda yetkazish

mahoratiga – sanoatiga ega bo'lmog'i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o'rinli qo'llash uchun o'zaro muloqot ishtirokchilarining ma'lum mahoratga ega bo'lishi muhim emas [3].

O.Y.Goyxman nutqiy muloqotni kompleks yondashuv asosida o'rganish lozimligini qayd etadi. Uning fikricha, nutqiy muloqotni o'rganishga lingvistik (ortologik), psixolingvistik, psixologik yondashuvlar mavjud. Lingvistik yondashuvda muloqot maqsadiga samarali erishish uchun adabiy til meyorlari hamda nutq madaniyati mezonlarini egallash zarurati haqidagi g'oyani ilgari surishga asosiy e'tibor qaratiladi. Psixolingvistik yondashuvda ikki yo'nalishni ajratish mumkin – nutqiy muloqot samaradorligi haqidagi qarashlar bilan bog'liq holda: ritorik – tinglovchi, vaziyat va boshqa omillarga bog'liq holda nutqiy muloqotning lingvistik tavsifini aniqlash (uning kompozitsiyasi, til vositalarining tanlanishi va boshqalar), faoliyatli – insonda nutqiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'nikmalar rivojlanganligi darajasini aniqlash. Psixologik yondashuvda nutqiy muloqotning muvaffaqiyati insonning psixologik mexanizmlaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liq degan qarashga asoslaniladi. O.Y.Goyxman nutqiy muloqotni ko'rsatilgan barcha yondashuvlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv asosida o'rganish lozim degan xulosaga keladi [4].

V.I.Ivanova ham nutqiy muloqotning turli sohalar o'rganish obyekti ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, to'laqonli muloqot bu – kishilar o'rtasida ongli, ratsional tashkil qilingan, maqsadli axborot almashinuv bo'lib, muloqotdoshlarni individuallashtirish, ular o'rtasida hissiy munosabatlarni o'rnatish bilan kechadi. Olima muloqotning ushbu belgilarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki mantiq, psixologiya, sotsiologiya, muloqot nazariyasi, stilistika va boshqa sohalar predmeti ekanligini qayd etadi [5].

Anglashiladiki, nutq yordamida amalga oshiriluvchi lisoniy muloqot nutqiy faoliyat nazariyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi turli sohalarining o'rganish obyekti sanaladi.

Nutqiy muloqot turli kishilar o'rtasida amalga oshuvchi faoliyat turi bo'lgani sababli uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar ham turlichadir. Jumladan, nutqiy muloqot turlari kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy sifatlariga asosan, muloqot ishtirokchilarining soni, muloqotning xarakteri, shakli, maqsadi kabilarga ko'ra farqlanishi mumkin.

Nutqiy muloqot kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy sifatleri asosida quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

1) shaxslarning ijtimoiy mavqeiga ko'ra: rahbar va xodim o'rtasidagi nutqiy muloqot, rahbar xodimlar o'rtasidagi nutqiy muloqot, xodimlar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 2) shaxslarning ijtimoiy rollariga ko'ra: ota va ona rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot, ona va farzand rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot, ota va farzand rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qaynona va kelin rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qaynola va kelin rolidagi ijtimoiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 3) shaxslarning kasbiy faoliyati, mashg'ulotiga ko'ra: o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nutqiy muloqot; vrach va bemor o'rtasidagi nutqiy muloqot; sotuvchi va xaridor o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 4) shaxslarning jinsiga ko'ra: ayol va erkak o'rtasidagi nutqiy muloqot; erkaklar o'rtasidagi nutqiy muloqot; ayollar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 5) shaxslarning yoshiga ko'ra: katta yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; bolalar o'rtasidagi nutqiy muloqot; o'rta yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; kichik yoshdagi kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; kattalar va bolalar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar; 6) shaxslarning millatiga ko'ra: o'zbek va rus millatiga mansub kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot; qozoq va o'zbek millatiga mansub kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot va boshqalar.

Nutqiy muloqot nutq ishtirokchilarining soniga ko'ra ham farqlanadi. Bu belgiga ko'ra: a) ikki kishi o'rtasidagi nutqiy muloqot; b) ko'p kishilar o'rtasida kechadigan nutqiy muloqot turlarini ajratish mumkin.

Har qanday nutqiy muloqot kamida ikki kishi o'rtasida amalga oshadi. Bunday muloqot birinchi turga misol bo'ladi. Ikkinchi turdagi nutqiy muloqotda esa bir necha kishilar ishtirok etishadi. Bunday shaxslar do'stlar, hamkasblar, kursdoshlar, maktabdoshlar yoki boshqa guruh a'zolaridan tashkil topadi.

Muloqotning xarakteriga ko'ra: a) rasmiy nutqiy muloqot; b) norasmiy nutqiy muloqot turlarini farqlash mumkin.

Rasmiy nutqiy muloqot kishilarning rasmiy munosabatlarini aks ettirishga xizmat qilsa, norasmiy nutqiy muloqot qarindoshlar, do'stlar, yoru birodarlarning oilada, ko'cha-ko'yda, ish, o'qish faoliyatida kuzatiladigan muloqotdir.

Nutqiy muloqotning shakliga ko'ra: a) og'zaki nutqiy muloqot; b) yozma nutqiy muloqot; s) elektron nutqiy muloqot turlarini ajratish mumkin.

Og'zaki nutqiy muloqot kishilarning kundalik hayotida ko'cha-ko'yda, oilada, mehnat faoliyatida, o'qish jarayonida bir-birlari bilan o'zaro kommunikativ aloqaga kirishuvda amalga oshadi. Og'zaki nutqiy muloqot yozma nutqiy muloqotdan uni tashkil etuvchi nutqiy aktlarining tezkorlik, spontanlik, kutilmaganlik, noizchilik, ohangdorlik, makon va zamonga befarqlik kabi belgilarga egaligi, shuningdek, gavda, bosh, qo'l, oyoq harakatlari, mimik ifoda va ramzlar kabi noverbal vositalar bilan boyitilganligi bilan farqlanadi.

Yozma nutqiy muloqotning asosini tashkil qiluvchi nutqiy aktlar esa tartibga solinganlik, izchilik, bevosita makon va zamon bilan bog'liqlik kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Ular turli xatlar, xabarnomalar, bayonot, bildirgi kabi shakllarda amalga oshiriladi.

Nutqiy muloqotning maqsadiga ko'ra uning quyidagi turlarini farqlash mumkin: 1) axborotni uzatish va uni qabul qilishga mo'ljallangan nutqiy muloqot; 2) baho munosabatini bildirish va unga nisbatan javob reaksiyasini qabul qilishga mo'ljallangan nutqiy muloqot; 3) nutqiy ta'sir ko'rsatish va uning natijasiga erishishga mo'ljallangan nutqiy muloqot kabilar.

Axborotni uzatish va qabul qilishga mo'ljallangan birinchi turdagi nutqiy muloqotda so'zlovchi axborotni uzatish bilan cheklanib qolmaydi, u muloqotdoshining ushbu axborotni qabul qilishini ham ko'zlaydi.


Keyingi turdagi nutqiy muloqotda so'zlovchi biror voqelik, hatti-harakat, narsa-predmet va boshqalar xususida shaxsiy munosabatini bildirishni va unga nisbatan muloqotdoshining javob reaksiyasini eshitishni maqsad qilib belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy muloqot shaxslararo munosabatni aks ettiruvchi muloqot turi, kishilarning kommunikativ maqsadini amalga oshirish usuli, bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi verbal va noverbal tarkibiy qismlar ishtirokida tuzilgan nutqiy aktlar jamlanmasidir. Nutqiy ta'sir ko'rsatish va uning natijasiga erishishga mo'ljallangan nutqiy muloqot turida so'zlovchi nutqi perlokutiv vazifa bajarishga yo'naltiriladi. So'zlovchi muloqotdoshiga nutqiy ta'sir ko'rsatib, uni biror bir xatti-harakatni bajarishga turtki beradi. Nutqiy muloqot rasmiy muloqotning qaysi sohasida qo'llanilmasin, avvalo, o'zbek tili meyorlarining to'g'ri qo'llanilishi, bugungi soha terminlarning nutqda to'g'ri ishlatilishi bilan ham belgilanadi [6].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2007. – Б. 636.
2. Якобсон Р.О. Речевая коммуникация / Якобсон Р.О. Избранные работы. – М.: Прогресс, 1985. – С. 306-319.
3. Сафаров Ш. Парагматингвистика. Монография. – Тошкент, 2008 йил. –Б. 22
4. Гойхман О.Я. Речевая коммуникация // <https://staff.tiame.uz/storage/users/83/books/oUI3T26JvJSI5fIE5K soJdz Q1z3L9D7BOFGQ04P2.pdf>
5. Иванова В.И. Лингвистика речевого общения // Вестник ТвГУ. Серия. Филология. – Тверь, 2016. – № 4. – С. 45. (– С. 43-46.)
6. Нарходжаева Х. “Ўзбек терминологияси масалалари”. –Қарши: “ Intellect” нашриёти, 2022.
7. Yo'ldosheva X. Baddiy matnda ijtimoiy xoslangan birliklar. Til, ta'lim, tarjima 3-son, 4-jild. – Б.28.
8. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан.д-ри. ... дисс. –Тошкент, 2000. –Б. 198-204.
9. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.)

10. 10.Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. ...д-ри. дисс. - Тошкент, 2001.
11. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. - Тошкент, 2000.
12. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Самарқанд, 1993.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ulikova Mavluda

Andijon davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

btoshboeva@mail.ru

TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASINI AKS ETTIRISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada so'z hozirda olamning lisoniy manzarasi, milliy manzarasi, ilmiy manzarasi hamda kontseptual manzarasi kabi tushunchalar haqida boradi. Kontseptuallashtirish bilish jarayoni bo'lib ularni bir-biridan farqlagan holda bilim birligi kontsept holida shakllanadi. Olamning lisoniy manzarasi, madaniyat insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi. Til madaniyat bilan doimiy aloqada ekan, til o'rganish jarayonlarini o'rganilayotgan til xalqi va madaniyati prizmasidan turib o'qitish masalasini ijobiy hal qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: Til, kontsept, olamning lisoniy manzarasi, madaniyat, jarayon, xalq, adabiyot, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyot, millat, dunyo, ruh.

Уликова Мавлюда

Андижанский государственный

институт иностранных языков

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются такие понятия, как языковая картина мира, национальная картина, научная картина и концептуальная картина мира. Концептуализация представляет собой познавательный процесс, и путем различения коцептов друг от друга формируется единица знания в виде понятия. Языковая картина мира, культура интерпретируют различные взгляды на мир и отражает общую картину мира. Так как язык находится в постоянном контакте с культурой, это создает необходимость положительного решения вопроса обучения процессам изучения языка с позиции народа и культуры изучаемого языка.

Ключевые слова: Язык, концепт, языковой ландшафт мира, культура, процесс, народ, литература, языкознание, литература, нация, мир, дух.

Ulikova Mavlyuda

Andijan State Institute of Foreign Languages

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF CONCEPT IMPLEMENTATION IN LINGUISTICS

ANNOTATION

This article discusses such concepts as the language picture of the world, the national picture, the scientific picture and the conceptual picture of the world. Conceptualization is a cognitive process, and by distinguishing them from each other, a unit of knowledge is formed in the form of a concept. The language picture of the world, culture interprets different views of the world and reflects the general picture of the world. Since the language is in constant contact with culture, this creates the need for a positive solution to the issue of teaching language learning processes from the perspective of the people and culture of the language being studied.

Key words: Language, concept, language landscape of the world, culture, process, people, literature, linguistics, literature, nation, world, spirit.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Jahon tilshunosligida inson omiliga yangicha yondashuv, bugungi kunda rivojlanib kelayotgan yangi sohalar, xususan, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, sohalaridagi ilmiy izlanishlar til bilan bog'liq xodisalar mohiyatini aniqlashga antropologik nuqtai nazardan keng qirrali ta'limni talab etmoqda. Bu bevosita badiiy matnda amal qiluvchi kontseptlarni o'rganish bilan bog'liq masalalarni ham qamrab oladi. Mazkur holat ja'on tilshunosligida kognitiv tilshunoslik bo'yicha erishilgan yutuqlar, badiiy kontseptlarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni taxlil qilish orqali o'zbek og'zaki va yozma adabiyotida ma'naviy dunyoqarashimiz, milliy qadriyatlarimiz bilan bog'liq kontseptlar tahliliga chuqurroq yondashuvni taqozo etishi bilan dolzarbdir.

Inson olamni bilish jarayonida muayyan bilimlarga ega bo'ladi va egallagan bilimlarini til orqali namoyon etadi. Inson olamni kontseptualashtirishda asosiy vositalardan biri bu til hisoblanadi. Bir tomondan inson olam haqidagi ma'lumotlarning katta qismini til orqali oladi, ya'ni o'quv hamda badiiy adabiyotlar, ilmiy adabiyotlar, radio va televidenie, ikkinchi tomondan, ko'rish, eshitish, teginish, ta'm, ya'ni xis-tuyg'u bilan olamni idrok etish natijasida olingan bilimlar shuningdek, ob'ektiv va aqliy jarayonlar natijasida olingan bilimlarni aks ettirish, xulosa qilish, mantiqiy xulosalarni chiqarish til orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda til barcha kontseptlarga, ular qanday shakllanishidan qat'iy nazar kirish xuquqini beradi: xissiy tajriba, ob'ektiv, ta'limiy, aqliy faoliyat asosida, inson ongida kontseptlarni shakllantirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri bo'lib qoladi. [5,23]

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Maqolada umumilmiy-tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod (etimologik tahlil o'tkazish va tilning diaxron holatiga ko'ra qiyoslab o'rganish); leksikografik, kontseptual tahlil metodlari; leksik-semantik maydonni aniqlash metodlardan foydalanildi.

Shuningdek, mavzu doirasida keyingi yillarda g'arb tilshunosligida "kontsept", "kontseptosfera" bilan bog'liq izlanishlar olib borishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Ular orasida rus, ingliz tilshunosligi etakchi o'rinni tashkil etadi. S.A.Askoldov, Yu.S.Stepanov, V.I.Karasik, N.V. Petlyuchenko, O.P.Kaso'mova, L.E.Kuznesova, S.A.Malaxova, I.V. Nesvetaylova, A.N.Prixodko, V.E.Hcherbina, A.M.Khusainova kabilar tomonidan chop etilgan monografiyalar; S.A.Askoldov, V.Z.Demyankov, T.S.Medvedeva, T.A.Yahenko, O.P.Saxno, E.V. Dzyuba kabi tilshunoslar tomonidan nashr etilgan maqolalar; A.A.Grigorev, Yu.E.Proxorov, V.Yu.Xaritonova, Perfileva kabilar tomonidan amalga oshirilgan monografik tadqiqotlar bu jixatdan xarakterlidir. O'zbek tilshunosligida matn taxlili bilan bog'liq masalalar tadqiqida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, N.Mahmudov, I.Mirzaev, B.Umurqulov, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, Sh.Safarov, M.Yo'ldoshev, kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Tadqiqot natijalari. Lingvistik adabiyotlarda "kontsept" tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud, turli yondoshuvlar natijasida esa kontseptning tasniflari ham turlicha aniqlanadi. Kontsept turlari: kontsept o'z strukturasi ega. Oddiy muayyan fikr, butun kontseptual struktura, abstraktlikning bosqichlarini tashkil qilgan tushuncha ham kontsept funktsiyasini bajarishi mumkin.

O'z mazmuni va abstraktlik darajasiga ko'ra A.P.Babushkin kontseptni quyidagi turlarda tasniflab chiqqan. [1,67]

- 1) konkret obraz;
- 2) sxema;
- 3) tushuncha;
- 4) prototip;
- 5) freym;
- 6) stsenariy;
- 7) geshtalt

Holat hamda neytral harakat fe'llariga qaraganda yo'nalish harakat fe'llari kamchilikni tashkil etadi. Ammo yo'nalish harakat fe'llari kamchilikni tashkil etsada, qadimgi ingliz tilida tez-tez qo'llanilgan. Shuning uchun yo'nalish harakat fe'llari semantik taraqqiyotiga hech qanday chegara qo'yilmagan. Qadimgi ingliz tilida yo'nalish harakat fe'llari kodlangan ma'noga ega bo'lib ularning sof ma'nosi kamdan kam hollarda uchragan. Masalan qadimgi "scipian" "to take ship" ya'ni "kemaga chiqish" ma'nosidagi yo'nalish harakat fe'li "kemaning ichiga qarab harakatlanish" aniqrog'i "ichkariga harakat" kabi ma'noga asoslangan ya'ni faqatgina kemaga nisbatan bajarilayotgan harakat ma'nosini ifodalagan (Talmi 1975, 1985 – 85 b). Qadimgi ingliz tilida yo'nalish harakat ma'nosida kelgan fe'llar ko'plab qo'shimcha tushunchalarga ega bo'lgan va ushbu fe'llar sof yo'nalish harakat sifatida ishlatilmagan. Ushbu qarashlar juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan va natijada qadimgi ingliz tilidagi sof yo'nalish harakat fe'llari inventarizasiyaga uchragan va qadimgi Lotin tili yoki Fransuz tilidan o'zlashtirilgan (Herbst & Klotz 2003: 107– 23; Svensén 2009: 253– 79). Yuqorida keltirilgan fikrlarning isbotini maqolaning asosiy qismida keltirilgan misollar bilan ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

ASOSIY QISM.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan birinchi katta turkumga kiritilgan "crēopan, healtian, huncettan, luncian, slincan, smūgan, snīcan, tealtrian" fe'llari sekin harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llar hisoblangan. Masalan;

1. þa wreccan munecas lagon onbuton þam weofode sume **crupon under** (Wulf 2006: 115)- And the poor monks lay about the altar and some crept under. Mazkur misolda "crupon under" birikmasi shaxslarning sekin harakatini anglatib kelgan.
2. Hi nu gyt heora ealdan gewunon healdap and from rihtum stigum **healtiaþ** - Now they still stick to their old habits and limp from the right paths. Keltirilgan misolda "healtiaþ" fe'li shaxslarning sekin harakatlanishlarini hamda tekis yo'lda harakatlanish ma'nosini ifodalab kelgan.
3. Hy healtodon **huncetton** fram siþfatum heora (Wulf 2006: 111) - They halted or limped from their paths. Ushbu misolda qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "huncetton" fe'li shaxslarning sekin harakat ma'nosini yoki bo'lmasam to'xtalib harakatlanish ma'nosini ifodalagan.

4. Seo nædre ongan **slincan** in þæt scræf - The snake started to crawl into the cave. Yuqorida keltirilgan misolda qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “slincan” fe’li ichkariga sekin harakat qilish ma’nosini ifodalagan.
5. þattor smeh **geond** ealne þone lichoman (Wulf 2006: 116) - The poison crept through the entire body. Mazkur misolda “geond” fe’li narsa predmetning sekin harakat ma’nosini ifodalab kelgan.
6. Ða wunde **snicaþ** in ða innoðas mines lichoman (Wulf 2006: 121) - The wounds creep into the inside of my body. Ushbu misolda “snicaþ” fe’lining tahlili berilgan bo’lib, bunda ichkariga sekin kirib bormoq ma’nosi berilgan.
7. We **tealtrigaþ** tydran mode hwearfiaþ heanlice - We stagger with weak mind, wander disgracefully. Yuqorida keltirilgan misolda “tealtrigaþ” fe’li gandraklamoq ma’nosini ifodalab kelgan. Ushbu fe’l turgan joyda harakatlanish ma’nosini ifodalab kelgan. Qadimgi ingliz tilida havo va suvda harakat ma’nolarini ifodalovchi fe’llar hamda ularga keltirilgan misollar.
8. ac **gedufan** sceolun in ðone deopan wælm - But they shall plunge into the deep fiery flame. 15 misolda qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “gedufan” fe’li shung’imoq ma’nosini ifodalab kelgan. Bunda harakat chuqurlikka tushmoq, ichkariga ya’ni tubga harakat qilmoq ma’nosini ifodalab kelgan.
9. se ongann **flogettan & fipercian** ymb his ansyne (Wulf 2006: 117) - That started to fly about and flutter around his face. Mazkur misolda “flogettan & fipercian” fe’llari ishlatilgan. Ushbu fe’llar havoda harakatlanish ma’nosini ifodalab kelgan. Mazkur fe’l o’z atrofida aylanish harakat ma’nosini anglatgan.
10. Ða **flugon** into heora muðe and heora næsðyrlum - That flew into their mouths and their nostrils. Yuqorida keltirilgan misolda qadimgi “flugon” fe’li havoda harakatlanish ma’nosida ifodalanib, ichkariga uchib kirish ma’nosida ishlatilgan.
11. ond heo **fleat** ofer þæt wæter to lande - And she floated over the water to land. Mazkur misolda “fleat” fe’li suvda harakatlanish ma’nosida ishlatilgan. Suv yuzasida sekin harakat ma’nosini ifodalagan.
12. witodlice an blac þrostle. **Flicorode** ymbe his neb (Wulf 2006: 120) - Truly, a black throstle fluttered around his face. 19 misolda keltirilgan “flicorode” fe’li bir nuqtada uchib yurmoq ma’nosida ishlatilgan. Ya’ni havoda sekin uchmoq ma’nosida ifodalangan.
13. se ongann **flogettan & fipercian** ymb his ansyne - It started to fly and flutter around his face. Yuqorida keltirilgan misolda ikkita harakat fe’li ishlatilgan. Ya’ni o’z atrofida “aylanib uchmoq” misolida keltirilgan. Havoda bo’lgan harakat ma’nosi ifodalangan. Yuqoridan pastga harakat ma’nolarni ifodalovchi fe’llarga keltirilgan misollar.
14. and swa fæger **dropa** þe on þas eorðan upon dreopað - And like the sweet drops that drop onto the earth. Ushbu misolda yuqoridan pastga bo’lgan harakat ifodalangan. Ya’ni qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “dropa” fe’li yuqoridan pastga tomchilab tushadigan harakat ma’nosida ishlatilgan.
15. heofonas **drupodon** fram ansyne Godes - The heavens fell at the presence of God. Mazkur misolda “drupodon” fe’li pastdan yuqoriga qarab harakatlanayotgan harakat fe’li sifatida e’tirof etilgan.
16. þæt se wites bona in hellegrund hean **gedreose** - That the destroyer of the mind should fall low to the ground of hell. 16-misolda “gedreose” fe’li harakat fe’li sifatida ishlatilgan. Bunda harakat pastdan yuqoriga qarab sodir etilgan. Pastdan yuqoriga qarab harakat ma’nolarini ifodalovchi fe’llar:
17. gif blod of nosum flowe, genim rutam, do **gelomlice** on þa næsðyrlu - If blood flows out of the nose, take rutam, apply it repeatedly to the nostrils. Mazkur misolda qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “gelomlice” fe’li oqmoq ma’nosini ifodalab kelgan. Ya’ni pastdan yuqoriga qarab sekin harakat ma’nosini anglatgan.
18. þonne glad þæt deofol ut mid his **leasunge** (Wulf 2006: 125) - Then the devil with his deceitfulness glided out. Ushbu misolda shaytonning pastdan yuqoriga qarab sirg’alib kutarilishi nazarda tutilgan. Sakrash ma’nosini ifodalovchi fe’llarga keltirilgan misollar.

19. Her Rodbert þæs cynges sunu **hleop** fram his fæder - Here Rodbert, the king's son, ran away from his father. Mazkur misolda pastdan yuqoriga qarab tezlik bilan harakatlanish ma'nosi keltirilgan. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "hleop" fe'li to'satdan sakramoq ma'nosini ifodalab kelgan.
20. þæt he up astode and ongunne **hleapettan** - That he stood up and started to jump about. Ushbu misolda "hleapettan" qadimgi ingliz tilida pasdan yuqoriga qarab sakrash ma'nosida ishlatilgan.
21. Se hrefn mid openum muðe and mid aþenedum fiðerum ongann yrnan **hoppetende** ymbutan þone half - The raven with open mouth and with stretched wings started to run jumping around the loaf. Mazkur misolda "hoppetende" fe'li ishlatilgan. Unga ko'ra biron bir narsa predmetning atrofida aylanma sakrash harakati sodir bo'layotgani aks ettirilgan.
22. and **hoppode** ongear his Drihten - And leaped towards his Lord. Mazkur misolda pastdan yuqoriga qarab tezlik bilan harakatlanish ifodalanib kelgan.
23. þa wundrede he him swa swiðe þæt he eall **wiðerhypte** - He was so greatly bemused that he jumped about. 23 misolda keltirilgan "wiðerhypte" fe'li hayratdan sakramoq ma'nosini ifodalab kelgan. Mazkur misolda tezlik bilan harakatlanish ko'rsatib berilgan.
Aylanma harakatni ifodalovchi fe'llarga keltirilgan misollar:
24. Halige englas ðærabutan **hwearfiap** - Holy angels hover round about the place. Yuqorida keltirilgan misolda "hwearfiap" fe'li berilgan. Ushbu fe'l qadimgi ingliz tilida aylanma harakat ma'nosini ifodalagan. Biron bir narsa yoki predmet yoki shaxs atrofida sekin aylanib harakatlanish ifodasini anglatgan.
25. Ða eagan ðe nu þurh unalyfedlice gewilnunga **hwearftliap** - The eyes that now rove through unallowed desires. Mazkur misolda "hwearftliap" fe'li ishlatilgan. Ushbu fe'l qadimgi ingliz tilida aylanmoq ma'nosini ifodalagan. Ya'ni biron bir shaxsning emas aksincha, narsa buyumning harakati ifodalangan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mazkur misolda ko'zlarning aylanma harakati ifodalangan.
26. Oþ ðæt ðu eft **hwyrfest** to him - Until you return back to him. Ushbu misolda "hwyrfest" fe'li ishlatilgan. Uzoqlardan aylanib qaytish ma'nosidagi harakatni ifodalagan.
27. Ða arleasan **turniap on** ymbhwyrfte - The wicked turn in a circle. 34 misolda "turniap" on fe'li ishlatilgan. Mazkur fe'l aylana shakl ustidan aylanma harakat orqali harakatlanish ma'nosini ifodalagan.
28. Seo heofon **tyrnþ onbutan** us swifter ðonne ænig mylenhweol - The heaven turns around us faster than any mill wheel. Mazkur misolda biron bir narsa yoki buyumning atrofida aylanma harakatni ifodalab kelgan.
Yugurish harakat ma'nosini ifodalovchi fe'llarga keltirilgan misollar.
29. sume hit ne **gedygðan** mid þam life - Some did not escape it with their lives. Keltirilgan misolda "gedygðan" fe'li yugurish harakat ma'nosini ifodalab kelgan.
30. sume **flugon** ut of lande - Some fled out of the land. Mazkur misolda biron bir joydan boshqa bir joyga harakatlanish ma'nosi keltirilgan.
31. Ða sceoc he on niht fram ðære **fyrde** him sylfum to myclum bysmore - Then he fled at night from the army, to his great disgrace. Ushbu misolda tezlik ma'nosini ifodalovchi harakat ma'nosini "fyrde" fe'li anglatib kelgan.
Qadimgi ingliz tilida ikkinchi turkumga kiritilgan qadimgi ingliz tili yo'nalish harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarga quyidagi misollar keltirilgan. Yo'nalish harakatini ifodalovchi fe'llar:
32. hwæt, seo clæne beo forwel oft wide and side fægere blosman gegret swa lange þæt hyre þa ruwan þeoh wurðað swyðe **gehefegode** - Oh, the pure bee very often approaches the fair blossom from far and wide, so long that her hairy thighs become very burdened. Mazkur misolda "gehefegode" fe'li ishlatilgan. Ushbu fe'l tezlik bilan ma'lum bir yo'nalish tomon harakatlanishni ifodalagan.
33. Conon **gelande** to Ahtene - Conon came to Athens. 33 misolda "gelande" fe'li ishlatilgan. "Gelande" fe'li gapda bironbir maskandan boshqa bir maskanga yo'nalmoq ma'nolarini ifodalagan.
34. Ne **genealæcþ** to þe yfel swipu & ne **genealæcþ** ne **geneahap** þinum **getelde** - Evil affliction will not draw near to you and will not draw near to or approach your tent. Mazkur keltirilgan misolda ikkita harakat fe'li keltirilgan. "Genealæcþ" fe'li yaqinlashmoq, kelmoq ma'nosini ifodalab kelgan.

Mazkur misolda “genealæcþ” fe’li insonlar tomonga yo’naltirilgan harakat ma’nosini ifodalab kelgan. Ushbu gapda ishlatilgan ikkinchi fe’l bu “geneahap” fe’li bo’lib gapda ushbu fe’l yaqinlashmoq ma’nolarini ifodalagan.

Ichkarida bo’ladigan harakatlarni ifodalovchi fe’llar uchun keltirilgan misollar.

35. he **werodaþ** syððan he innap - He grows sweet after he has entered. Mazkur misolda “werodaþ” fe’li keltirilgan. Ushbu fe’l katta bo’lmoq, o’smoq ma’nolarini anglatgan. Gapda sekin sodir bo’ladigan harakatni ifodalagan.

36. Se eorl on Wiht **scipode** and into Normandig for - The earl took ship on Wight and went to Normandy. Ushbu gapda “scipode” fe’li ishlatilgan. U ichkariga harakat ma’nosini bergan.

Uzoqda bo’ladigan harakatlarni ifodalovchi fe’llar uchun quyida keltirilgan misollar.

37. **fearrade** from hia se angel - The angel went away from her. Mazkur misolda “fearrade” fe’li keltirilgan. Biron bir joydan uzoqlashish ma’nosini ifodalagan.

38. God na **feorsa** fram me - God, do not go away from me. Keltirilgan misolda “feorsa” fe’li ishlatilgan. Mazkur fe’l tark etmoq ma’nosida kelgan. Ya’ni tark etib, uzoqlarga ketmoq harakat ma’nosini ifoda etgan.

39. þæt hie sceoldon Romeburg **forlætan** - That they should leave Rome. “Forlætan” fe’li tark etmoq, ketmoq ma’nolarini bildirgan. Tark etib, qaytmaslik harakat ma’nosini anglatgan.

Yuqoridan pastga qarab bo’ladigan harakat ma’nolarini ifodalovchi fe’llariga keltirilgan misollar.

40. Ða he to helle **hnigan** sceolde - When he must sink to hell. Keltirilgan misolda “hnigan” fe’li qadimgi ingliz tilida cho’kmoq ma’nosini ifodalagan. Ya’ni yuqoridan pastga bo’ladigan harakat ko’rsatib berilgan.

41. He **lyhte** of his horse - He alighted from his horse. Mazkur misolda “lyhte” fe’li ishlatilgan. Ushbu fe’l otdan tushmoq ma’nosini anglatgan. Bunda harakat yuqoridan pastga qarab bo’layotgan harakatni anglatgan.

Qadimgi ingliz tilida uchinchi turkumni tashkil etadigan neytral harakat ma’nolarini ifodalovchi fe’llarga keltirilgan misollar.

42. hy on **holt** bugon, **ealdre** Burgan - They fled into the woods, to save [their] lives. Keltirilgan misolda “holt” fe’li ya’ni kirmoq, ichkariga kirmoq ma’nosini anglatgan. Hamda “ealdre” fe’li qutqarib qolmoq va saqlamoq ma’nolarini ifodalagan. Bunda harakat aniq ifodalanmagan. “Ealdre” fe’li ya’ni qutqarib qolmoq harakat ma’nosi bu tushuncha shaklida ishlatilgan. Ya’ni bu neytral fe’l harakatning aniq nuqtasini ko’rsatmagan.

43. se cyng Willelm cearde **ongean** to Normandige - The king William turned back again to Normandy. 43 misolda keltirilgan qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “ongean” fe’li qaytmoq ma’nosini ifodalagan. Bunda aniq bir harakat ma’nosi yo’q. Qanday tarzda harakatlanib qaytgani amiq ifodalanmagan.

44. þæt he from Iudea **londe com** to Galileam - That he came from Judea to Galilee. Mazkur misolda ham “londe com” fe’li neytral ma’noga ega ekanligi ushbu misolda o’z aksini topgan.

45. ongon þa leofne sið **dragan** domeadig dryhtnes cempa to þam onwillan eorðan dæle - Then the glorious one, the Lord’s champion, began to go a pleasant journey to this desired part of the earth. Ushbu misolda otlamoq ya’ni “dragan” keltirilgan. Ushbu fe’l gapda neytral ma’noni ifodalab kelgan. Ya’ni harakat turi noma’lum.

To’rtinchi katta turkumni o’z ichiga oladigan boshlang’ich ma’nosi harakatni ifodalamaydigan fe’llar: berstan, breacan, (ge)dōn, facian, kabi fe’llariga keltirilgan misollar.

46. þam earmum mannun, þe fram þam herge **burstun** - To the poor men who had broken away from the army. Berilgan misolda “burstun” fe’li ishlatilgan. Chetlashtirmoq ma’nosini anglatgan. Harakatning boshlang’ich nuqtasi harakatni ifodalamagan.

47. [Hannibal] com to Alpis þam muntum & þær eac ofer abræc, þeh him mon oftrædlice mid **gefeohum** wiðstode - Hannibal came to the Alps and forced a way [lit. ‘broke’] over there, although people often resisted him with fights. Mazkur misolda “gefeohum” fe’li vayron qilmoq ma’nosini bildirgan. Fe’lning boshlang’ich nuqtasi harakatni ifodalmagan.

48. foron þa up be Temese oþþæt hie **gedydon** æt Sæferne, þa up be Sæferne - Then they went up by the Thames, until they arrived at Severn, then up by Severn. Mazkur misolda keltirilgan “gedydon”

fe'li ko'tarilmoq ma'nosini anglatgan. Harakatning qanday bajarilishi ko'rsatilmagan. Shuning uchun boshlang'ich harakat mavjud emas.


49. oð hit **facað** on þæm ifihtan æsce - Until it [the estate boundary] gets to the ivy- covered ash tree. Ushbu misolda ham boshlang'ich harakat ma'nosi aniq bo'lmagan fe'l ishlatilgan. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "facað" fe'li yetib bormoq ma'nosini bergan. Haraktning qanday amalga oshirilganligi aniq bo'lamganligi ko'rsatilgan.

XULOSA.

Yuqorida keltirilgan misollarga tayanib, shunday xulosaga kelindiki qadimgi ingliz tilida ishlatilgan yo'nlish harakat fe'llari o'zlashtirilgan fe'llar bo'lib ularning ko'pchiligi sof yo'nalish harakat fe'llari emasligi aniqlandi. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "**facað, gedydon, gefeohtum, dragan**" va hokozo yo'nalish harakat fe'llari qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lgan. Demak qadimgi ingliz tili "feor" bilan shakllangan fe'llar "far" ya'ni "uzoq" ma'nosini ifodalagan. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan "wīcan" fe'li "kuch" ma'nosida ham ishlatilgan. Bunda ushbu fe'l shaklning harakatiga ta'sir etgan ya'ni harakatni kuchaytirgan yoki susaytirgan. Qadimgi ingliz tili "forlætan" fe'li ko'proq makonga ta'sir etgan bunda semantik hodisa ro'y bergan. Ko'rinib turibdiki hech bir yo'nalish harakat fe'llari sof harakat fe'llari sifatida ishlatilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fanego T. Motion events in English // The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. *Folia Linguistica Historica* 33., 2012. -P 29– 85.
2. Judith H. Motion and the English verb //Oxford University Press. 2017-69-70
3. Hoad T. The Concise Oxford Dictionary of English Etymology. Oxford New York Oxford University Press., 2017. – P 409-411.
4. Herbst, Thomas & Michael Klotz. 2003. *Lexikografie*. Paderborn: Schöningh.
5. Slobin Dan I. Two ways to travel: Verbs of motion in English and Spanish // *Grammatical constructions: Their form and meaning.*, Oxford: Clarendon Press., 1996. - P 195– 220.
6. Slobin Dan I. What makes manner of motion salient? // *Explorations in linguistic typology, discourse, and cognition // Linguistic systems and cognitive categories.*, Amsterdam: John Benjamins., (Typological Studies in Language 66)., 2006. - P 59– 81.
7. Scragg, Donald G. The nature of Old English verse. *The Cambridge companion to Old English literature*. Cambridge University Press. 1991.-55– 70.
8. Traugott E. Richard B. *Regularity in semantic change.*, Cambridge, U.K.: Cambridge University Press., 2002.
9. Traugott E. Linguistic levels: Semantics and the lexicon. // *English historical linguistics: An international handbook*, Berlin: De Gruyter., 2012. - P 164– 77.
10. Traugott E. *Syntax. The Cambridge history of the English language*. Vol. I: U.K.: Cambridge University Press, 1992. - P 168– 289.
11. Talmy, L. *Lexicalization patterns: Semantic structure in lexical forms*. 1975
12. In Timothy Shopen: Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1985.-57– 149.
13. Safarov Sh. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц. Т; изд. ТашГПИ. 1983. -98 с (Б32)).
14. Wulff, Stefanie. A case of constructional synonymy. *Corpus- based approaches to syntax and lexis*. Berlin, 2006. 101-25.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Аманов Рахмон Аслонович

Педиатрия кафедраси катта уқитувчиси

Бухоро Давлат тиббиёт институти

Шарипова Латифа Хакимовна

Педиатрия кафедраси ассистенти

Бухоро Давлат тиббиёт институти

БАЛОҒАТ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИ ҚИЗЛАРДА ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИГИ ВА ЯШИРИН ТЕМИР ТАНҚИСЛИК КАМҚОНЛИК КЛИНИКАСИ ВА ДИАГНОСТИКАСИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Ўсмирлик даври ёки жинсий етилиш даври онтогенезнинг критик давларидан бири хисобланади. Бу даврга келиб тез ўсиш ва организмнинг жадал ривожланиши қон яратиш тизимига нисбатан талабни оширади. Мосягина Е.М маълумотларига кўра ўсмир болаларда темирга бўлган эҳтиёж катталарга нисбатан 2 марта юқори. Бундай шароитларда овқатланишнинг тўлиқ ва бир маромда бўлмаслиги ёки бошқа ноқулай омилларнинг таъсири тезда гемоглобин микдорининг пасайиши ва темир танқислик ҳолатига олиб келади. Ҳозирги вақтда темир танқислигининг 2 тури тан олинган: темир танқислик камқонлиги(ТТК) ва яширин темир танқислиги(ЯТТ).

Калит сўзлар: Темир танқислиги, хайз даври, анкетали сўров усули, анемик синдром, темир алмашинуви.

CLINIC AND DIAGNOSIS OF IRON DEFICIENCY ANEMIA AND LATENT IRON DEFICIENCY ANEMIA IN ADOLESCENT SCHOOLGIRLS

ABSTRACT

Adolescence or puberty is one of the critical periods of ontogenesis. By this period, rapid growth and rapid development of the body increase the demand for the blood-forming system. According to E.M. Mosyagina, the need for iron in teenagers is 2 times higher than in adults. In such conditions, the lack of complete and consistent nutrition or the influence of other unfavorable factors quickly leads to a decrease in the amount of hemoglobin and a state of iron deficiency. Currently, 2 types of iron deficiency are recognized: iron deficiency anemia (IDA) and hidden iron deficiency (YAT).

Key words: Iron deficiency, menstrual cycle, questionnaire method, anemic syndrome, iron metabolism.

КЛИНИКА И ДИАГНОСТИКА ЖЕЛЕЗОДЕФИЦИТНОЙ АНЕМИИ И ЛАТЕНТНОЙ ЖЕЛЕЗОДЕФИЦИТНОЙ АНЕМИИ У ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

Подростковый возраст или половое созревание является одним из критических периодов онтогенеза. К этому периоду быстрый рост и бурное развитие организма повышают потребность в кроветворной системе. По данным Е.М. Мосягиной, потребность в железе у подростков в 2 раза выше, чем у взрослых. В таких условиях отсутствие полноценного и последовательного питания или влияние других неблагоприятных факторов быстро приводит к снижению количества гемоглобина и состоянию дефицита железа. В настоящее время различают 2 типа железодефицитной анемии: железодефицитную анемию (ЖДА) и скрытый дефицит железа (СЖТ).

Ключевые слова: дефицит железа, менструальный цикл, метод анкетирования, анемический синдром, обмен железа.

Ишнинг мақсади: Бухоро вилояти кишлок жойларида яшовчи балоғат давридаги ўқувчи қизларда темир танқислик камқонлиги клиник семиотикасини ўрганиш.

Ишнинг материал ва текшириш усуллари: Касалликнинг клиник семиотикаси 9-10 синф ўқувчиларида анкетали сўров усули билан ўрганилди. Анкета касаллик клиник семиотикасига оид 36 та саволдан иборат эди. Анкеталар Бухоро, Пешку, Шофиркон ва Вобкент туманларининг 270 нафар ўқувчи қизларига таркатилди.

Олинган натижалар: Анкеталар таҳлили натижалари ва периферик эритроцит кўрсаткичлари 144(60,5%) нафар қизларда анемик синдром, темир алмашинуви таҳлил натижаларига асосан 86 нафар(59,7%) кизда темир танқислиги қайд этилди. Шулардан ЯТТ 62(72,1%), ТТК-24(27,9%). Текширишларимиз даврида 64,5% ЯТТ учраган ўқувчи қизларда жисмоний ривожланиш ўртача даражада, 25%да ўртачадан паст ва 9,6 да ўртачадан юқорилиги аниқланди. 60,1% ТТК кузатилган ўқувчи қизларда жисмоний ривожланиш ёшига мос келади. ЯТТ ва ТТК нинг тўлиқ клиник семиотикаси 1-жадвалда келтирилган.

Балоғат давридаги ўқувчи қизларда ЯТТ ва ТТК нинг клиник семиотикаси

Симптомлар	ЯТТ (n=62)		ТТК (n=24)		
	N	M+m	n	M+m	p
Бош оғриши	16	25,8+3,4	8	33,3+4,2	
Бош айланиши	15	24,1+3,1	6	25,0+3,8	
Холсизлик ва тез чарчаш	48	77,4+6,3	20	83,3+4,9	
Хавоси буғиқ хонада ўзини ёмон ҳис этиши	7	11,2+2,8	4	16,5+3,9	
Иштаҳа пасайиши	10	16,1+3,4	5	20,8+4,2	
Тери ва шиллик қаватлар оқариши (Рангпарлик)	34	54,8+6,7	17	70,8+7,3	
Таъм билишнинг ўзгариши	5	8,1+1,0	7	29,1+4,1	
Терининг қуруқ бўлиши	13	20,9+3,7	8	33,3+3,6	
Сочнинг тўкилиши	18	29,0+1,9	7	29,2+2,6	
Койлонихия	27	43,5+4,2	14	58,3+5,3	
Жисмоний зўриқишда ҳансираш	25	40,3+3,8	11	45,8+4,2	

Жадвалдан кўриниб турибдики, ЯТТ аниқланган мактаб ўқувчиларидаги барча клиник симптомлар ТТК бўлганларда учраган. Бундан кўриниб турибдики қайд қилинган симптомларнинг кўпчилиги турли частоталарда соғлом қизларда ҳам аниқланди ва асосий симптомлар кўшилиб келинганлигига иқдор бўлинди.

ТТКда Pica Chilorotica таъм ва ҳид билишнинг кучайиши (керосин, бензин, ацетон, нафталин ҳидини ёқтириш), тупроқ, тиш пастаси ва қуруқ чойни ейиш 3-6 марта кўпроқ юзага

келган. Кўздан кечирганда тери, соч ва тирноқларнинг куруқлашиши, дисфагия, стоматит, тил сўргичлари текислашуви, баъзиларда эса кўз склерасида кўкиш ранг аниқланади.

ЯТТ ва ТТК бўлган қизларда тахлил этилган симптомларнинг кўпи аниқ ифодаланган ва асосийси биргаликда кўшилиб келган. Эпителиал симптомларнинг 3-4 таси бирга ЯТТ да 39,5% болада, соғлом болалар гуруҳида эса фақатгина 18,4 % болада борлиги аниқланди. Тери соч ва тирноқлардаги ўзгаришларнинг таъм билишдаги ўзгаришлар билан бирга келиши соғлом болалар гуруҳига нисбатан (6,5%) ЯТТ ва ТТК ли болаларда (20,9% ва 33,3%) аниқ ифодаланганлиги топилди.

Таъм билишнинг ўзгариши ва анорекциянинг бирга келиши темир етишмовчилигининг икала шаклида ҳам ифодаланиши (21,5% ва 16,4%) соғлом болалар гуруҳидан анча устун туради (14,1%).

ЯТТ ва ТТК бўлган болаларда астеновегетатив бузилишлар манифест ва комбинирланган (2-3 ва ундан кўп симптомларнинг бирга келиши) ҳолида учраган. Соғлом болаларга нисбатан гипосидерознинг ҳар икала вариантида ҳам касалликка мойиллик болаларда юқори даражадаги ахамиятга эга. 40% дан ортиқ қизлар (270 тадан) хавоси оғир (афтобус, хаммом) хоналарда ўзини ҳис этиши ёмонлашувини билдирганлар.

Шу қизлар индивидуал ўрганилганда ҳақиқатдан ҳам уларда тор, буғиқ хоналарда яъни синф, хаммом, афтобусларда қисқа муддатда ҳушдан кетиш ҳолатлари юз бериши, баъзан эса (10,5% ҳолатларда) ҳеч қандай сабабсиз қизларда ўзини ёмон ҳис этиш туйғулари пайдо бўлиши ва бу ота-оналарни доим хавотирга солиб келганлиги аниқланди. Тадқиқотчилар камқон болаларда ҳушдан кетиш ҳоллари тез-тез юзага келишини таъсирчанликнинг ошиши билан боғлиқ ҳолда пароксизмнинг юзага келиши, ҳатто тинч ҳолатда ҳам кислароднинг порциал босими паст бўлиши билан боғлайдилар.

Биз темир танқислиги бўлган мактаб ўқувчи қизларда ҳайзнинг бошланиши, давомийлиги ва даврига эътибор бердик. Аниқланган маълумотлар қуйидагилардан иборат: менархенинг бошланиш ўртача ёши 13 ёш 6 ой давомийлиги 77,9% қизларда 5 кун, 21,9% қизларда 6-7 кун, шуни такидлаш керакки ТТК бўлган қизларда 75,5% ҳолларда ҳайзнинг ўртача давомийлиги 6-7 кун ва тўлиқ маълумотлар 2-жадвалда келтирилган.

ЯТТ ва ТТКда ҳайзнинг бошланиши

ҳайзнинг характери	Соғлом(n=94)		ЯТТ(n=62)		ТТК(n=24)	
	Abs	%	Abs	%	Abs	%
1. Бошланиши						
13 ёшда	55	58,5	44	70,9	15	62,5
14 ёшда	23	24,4	14	22,5	4	16,6
15 ёшда	8	8,5	5	8	2	8,3
16 ёшда	2	2,1	-	-	1	4,1
2. Даврийлик						
Ҳар 3 ҳафтада	4	4,2	24	38,7	13	54,1
Ҳар 4 ҳафтада	64	68	37	60	6	25
4 ҳафтадан кўп	20	20	1	1,6	3	12,5
3. Ҳайз даври						
-оғриқли	27	28,7	38	61,2	11	45,8
-оғриқсиз	61	64,9	22	35,5	13	54,2
4. Давомийлиги						
2-3 кун	24	25,5	18	29,1	4	16,7
4-5 кун	62	66	38	61,3	5	20,8
6-7 кун	2	2,1	4	6,4	15	62,5
5. ҳайз бўлмаган	6	6,4	2	3,2	-	-

Ҳайз жараёнининг бошланиш муддати 13 ёш 6 ой, ҳайз жараёни асосан ЯТТ ва ТТК да бузилиши аниқланди, яъни даврийлик ва давомийлиги бузилади. Биз кўп қон йўқотиш билан борадиган менструацияли қизлар темир препаратларига муҳтож деб ҳисоблаймиз. 4 кундан кўп давом этадиган ва лахталар ажралиши билан борадиган менструал қон йўқотишлардан овқат махсулотлари билан тушадиган ва ундан организмга сўриладиган микроэлиментлар билан организм эҳтиёжини қондириб бўлмайди. Бундай ҳолатларда ҳар менструациядан кейин 10 кун давомида темир препаратларини қабул қилиш керак.

Темир танқислик ҳолати ташхисини тасдиқлаш мақсадида тўғридан-тўғри танлаш методи билан 238 нафар ўқувчи қизлар текширилди, шулардан 94 нафари соғлом, 62 нафарида ЯТТ, 24 нафар қизда ТТК аниқланди. Уларда гемоглобин ва эритроцитларнинг умумий миқдори, гемокрит, ретикулоцитар формула, эритроцитлардаги гемоглобиннинг ўртача миқдори ва концентрацияси аниқланди. Зардобнинг очлик даражасини аниқлаш мақсадида қонда темир миқдори ва трансфериннинг тўйиниш даражасини аниқлаш билан бир қаторда зардобнинг темир боғловчи умумий қобилияти кўрсаткичлари аниқланди. Қайсики бу охириги кўрсаткич соғлом ўқувчи қизларда 38 дан 68,8 мкмоль/л оралиғида бўлган трансфериннинг темирга тўйиниш даражаси эса 17-26%.

Хулоса:

1. Анкетали тест-сўров қоғози ёрдамида темир танқислик ҳолатини клиник семиотикасини тез ва қисқа вақт ичида оммавий равишда аниқ баҳолашга ёрдам беради.
2. Махсус анкетали суровнома ва қизил қон курсаткичлари натижаларига асосланиб, кишлоқ шароитида яшовчи балоғат ёшидаги ўқувчи қизларда темир танқислигини яширин ва манифест шакллари клиник хусусиятлари ўрганилади.
3. Периферик эритрон курсаткичлари обектив текширувлари 60,5% қизларда анемик синдром ва темир алмашинуви таҳлил натижаларига асосан 59,7% темир танқислиги қайд этилди.
4. Асосан углевод ва ёғлардан иборат доим бир хил овқатланиш калория эҳтиёжини тўла қоплаганлигига қарамадан хусусан хавфли гуруҳ болалар, кўп қон йўқотиш билан кечадиган усмирлар ва хомиладорларда темир танқислик камқонлигига олиб келиши мумкин.

Адабиётлар:

1. А.С.Боткина. Железодефицитная анемия у подростков. // Практика педиатра. 2015 ноябрь-декабрь; стр-6-7.
2. Тарасова И.С., Чернов В.М. Новые направления в диагностике, лечения и профилактика железодефицитных состояний //Современные педиатрия. М., 2006, стр 25
3. Аманов Р.А., Расулов С.Қ. Клиническая семиотика латентного дефицита железа и железодефицитной анемии у школьников пубертатного периода сельской местности Бухарской области //Вестник новых медицинских технологий. 2003.-№4.-с.59
4. Салимов, Р. Р. (2015). Нижние Q-гомеоморфизмы относительно р-модуля. Український математичний вісник, (12,№ 4), 484-510.
5. Салимов, О. Р. (2017). Комплексная реабилитация пациентов с частичным отсутствием зубов, направленная на профилактику прогрессирующей атрофии тканей протезного ложа. Medicus, 14(2), 62-64.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ҳамидов Лутфулло Паизуллаевич
PhD, Самарқанд давлат чет тиллар институти

БАНК МАТНЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИЯСИНИ ЯРАТИШ МУАММОСИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада банк матнларининг типологиясини яратиш муаммоси ҳақида ёзилган. Шу билан бирга, уларнинг турларини таснифлаш, тизимлаштириш, умуман, банк матнларининг типологиясини яратиш масалалари кўриб чиқилади. Асосий мақсад банк матнларини таснифлаш бўйича илмий адабиётларда қайд қилинган муайян мезонлар асосида банк матнларининг функционал типологиясини яратиш масаласини таҳлил қилишдан иборат. Матнларни, шу жумладан, банк матнларини таҳлил қилиш жараёнидаги натижалар шуни кўрсатадики, бу амалга оширилаётган аниқ тадқиқотнинг мақсад ва вазифаларига, шунингдек, изланувчининг илмий йўналиши ва назарий ҳолатларига боғлиқ. Шу боис, энг аввало, матн табиати билан боғлиқ таснифлар ва матн турлари типологияси хусусидаги ёндашувлар кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: банк, типология, матн, таснифлаш, функционал типологияси, терминологик, статус, омил, атама, сатҳ

ANNOTATION

In this article is written about the problem of creating a typology of banking texts. At the same time, the issues of analyzing all of them, creating a typology of banking texts as a whole are considered. The main goal is to re-study their functional typology on the basis of the criteria established in the academic guidelines for the classification of banking texts. An analysis of the criteria based on the classification of texts, including bank texts, shows that this depends on the specific goals and objectives of a particular study, as well as on the scientific focus and theoretical positions of the researcher. Therefore, first of all, classifications related to the nature of the text and approaches to the typology of text types are considered.

Key words: bank, typology, text, classification, functional typology, terminological, status, factor, term, level

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано о проблеме создания типологии банковских текстов. При этом рассматриваются вопросы классификации их видов, систематизации и создания типологии банковских текстов в целом. Основная цель - проанализировать вопрос создания функциональной типологии банковских текстов на основе определенных критериев, отмеченных в научной литературе по классификации банковских текстов. Анализ критериев, основанных на классификации текстов, в том числе и банковских текстов, показывает, что это зависит от конкретных целей и задач конкретного проводимого исследования, а также от

научной направленности и теоретических позиций исследователя. Поэтому в первую очередь рассматриваются классификации, связанные с характером текста и подходы к типологии текстовых типов.

Ключевые слова: банк, типология, текст, классификация, функциональная типология, терминологический, статус, фактор, термин, уровень.

Кириш

Тилшунос олимларнинг таъкидлашича, ушбу соҳадаги изланишлар етарли бўлсада, айни вақтда матн типологиясининг яқунланган, мукамал шакли кўзга ташланмади [10:5]. Мустақил илмий фан сифатида матнлар типологиясининг вазифаси, энг аввало, нутқ акт ранг-баранглигининг муайян турларини кўриб чиқиш заруратидан иборат [11:123-130]. Бунда тасвирлаш ва таснифлаш объекти бўлмиш – матн турини ифодалашга нисбатан ягона атама қўллаш ҳали охиригача ҳал қилинмаган масала бўлиб қолмоқда. Масалан, матннинг “тури”, “синфи”, “туруҳи”, “нави”, “жанри”, “шакли”, “кўриниши” ҳақида изланиш олиб бораётган тадқиқотчиларнинг терминологиядан фойдаланишда анчагина ноаниқликлар мавжуд [6:106]. Бундай ҳолда ушбу атамалар ёки сатҳнинг бирликлари ёки улар ўртасидаги иерархик муносабатларнинг фарқловчилари сифатида талқин қилинади.

Жанр ва матн шакли тушунчаларининг маънолари бир хил бўлсада, турли ўринларда қўлланилиши билан ажралиб туради [2:243]. Баъзан бу ўринда диалог, монолог, полилог кўринишидаги нутқ шакллари белгилаш ҳақида ҳам сўз юритилади [ўша ерда].

Матн кўриниши тушунчаси семантик тушунча сифатида қаралади. Мазкур ҳолатда матнлар: матннинг график акс эттирилиши, оғзаки ва ёзма, нотали матн, Морзе алифбоси ёрдамида кодланган матн белги тизимининг сифат кўрсаткичи бўйича фарқланади: [2:243].

Асосий қисм

Матн тури тушунчаси масаласида ҳам тилшуносликда ягона нуктаи назар мавжуд эмас, бу ҳолат ҳам “text variety” ҳам “text type” атамаларининг қўлланилиши билан боғлиқ. Улардан биринчиси матн тилшунослиги соҳасига тегишли, иккинчиси эса таржимашуносликда қўлланилади. В. Хейнеманн матнларнинг турлари деганда “барча матнларга тегишли когнитив намуналарнинг лисоний намоён бўлишини” тушунади, ўзига хос интерактив мақсадларга эришишда бундай матн нусхаларининг самарали эканлигини аниқлайди [5:72-89].

Матнлар типологияси учун марказий масала - бу таснифлаш мезонлари – матнларга хос кўрсаткичлар ҳақидаги матнларни бўлимларга тақсимлаш асосига матнга хос кўрсаткичлар ёки матнга хос бўлмаган кўрсаткичлар ёки ҳар иккиси бир вақтда қўлланилиши мумкинлиги масаласидир. Мукамал бўлган лексиканинг таркибига гап ва матн тузилиши ни киритишимиз мумкин. Ўз навбатида суҳбатга киришувчиларнинг ижтимоий ҳаётимиздаги ўрни, мулоқот жараёнига киришувидаги билимлари даражаси ва малакаси ҳам киради [10:25]. Таснифлаш асосида ётадиган мезонлар таснифлашнинг мақсадига боғлиқ бўлади.

Кейинги пайтда таснифлашнинг прагматик, интенционал, социологик каби мезонлари таҳлилга жалб қилинмоқда [10:26], бунда нафақат ёзма матнларни, балки овозли матнларни ҳам таснифлаш йўлга қўйилган ҳамда тадқиқот объектини коммуникатив фаолият тури (монологик ёки диалогик)га боғлиқ ҳолда фарқлаш амалга оширилмоқда.

Бундан ташқари, замонавий типологияларда ёзма матнларнинг метаграфематик деб аталадиган тавсифлари ҳам таҳлилга жалб қилинмоқда. Метаграфематик воситаларга пунктуациянинг қўлланилиши (синграфемика), шрифтларнинг ўзгариши (супраграфемика) ва матн синтагматикасининг расмлар билан ташкиллаштирилиши киради [10:27]. Матнларнинг энг машҳур типологиялари қаторига яна матнларнинг лирика, эпос ва драма каби учта адабий жанрга ва стилистик усубларга мос равишда бўлиниши ҳам киритилади [12:183; 4: 92].

Диққатга сазовор жойи шундаки, охирги ўн йилликда тилга нисбатан коммуникатив-прагматик ёндашувни акс эттирадиган матнларнинг таснифлари тилшуносликда устунлик қилмоқда. Бундай таснифларда тилшунослар матн – бу, энг аввало, коммуникатив birlik ва шундай хусусиятга эга birlik сифатида коммуникатив функцияни бажаради, деган нуктаи - назардан келиб чиқишмоқда [8:39]. Бундай ҳолат коммуникатив функция белгисини

таснифлашнинг асосий мезонига айлантиради, аммо, айна пайтда бошқа бир қатор кўрсаткичларни ҳам жалб қилиш заруратини белгилаб беради.

Шундай қилиб, замонавий тадқиқотларда прагматик, ижтимоий ҳамда когнитив аспектларнинг биринчи ўринга чиқиши тадқиқот объекти сифатида муайян соҳага оид матнларни ўрганиш заруратини пайдо қилади. Масалан, В.Г. Адмони барча матнларни қуйидаги турларга бўлади: 1) муқаддас матнлар (сеҳрли, афсонавий, диний); 2) утилитар (инсоннинг қандайдир амалий эҳтиёжини амалга оширишга хизмат қиладиган) матнлар, бу матнлар доирасида муаллиф илмий, ишлаб чиқариш, маъмурий-ҳуқуқий, публицистик ва реклама матнларини ажратади; 3) бадиий; 4) овозли оммавий ахборот воситаларидаги матнлар (матннинг овозли шакли алоҳида аҳамиятга эга) [1:86-87]. Кўриниб турибдики, ушбу типология ижтимоий ҳаёт функционал соҳаларининг анъанавий ажратилишига мос келади.

Асос қилиб, ички, ташқи мезонлар махсус матнлар типологияси учун танлаб олинади. Матн турлари, матн синфи ва мулоқот тури ўртасида фарқлар кўрсатилади ва шу билан бирга матн турлари, ички ва ташқи матннинг умумий тасниф қилиш учун белгилаб олинади [9:42]. Матннинг ташқи белгиларига: асосий лисоний функция (ифодалаш, тасвирлаш ва апеллятив); мулоқот жараёнининг бир неча кўринишларини келтириш мумкин. Ушбу белгилар, аксарият ҳолларда, матнларнинг коммуникатив жараёнга ва коммуникатив вазиятга киритилишига асосланадиган коммуникатив-функционал ёндашувларда [13:126] матн турларини тасвирлаш ва фарқлашга нисбатан жалб қилинади. Бунда, коммуникатив йўналтирилган методнинг қўлланиши жараёнида, матн турларини таснифлашда коммуникатив қуршов элементлари матн турларини фарқлашнинг белгиси сифатида ҳисобга олинади. Функционал (интенционал), тематик (мазмуний, предметли) ва кондиционал (ситуатив) жиҳатлар матнларнинг функционал йўналтирилган типологияси детерминанти сифатида ҳисобга олинади [3:68-90].

Коммуникатив вазиятда матнлар контекстуал омиллар билан маълум даражада боғланган бўлади. Контекстуал омилларга эътибор қаратган тилшуносларнинг концепциясида қиёслов учун асос қилиб “контекстуал фокус” тушунчаси олинади. Матнни яратишда гапирувчи адресатнинг эътиборини конвенцияларга мос келадиган усул билан коммуникатив вазият омилларининг бутун мажмуидаги ўзига хос белгилар ва шароитларга йўналтиради. Айнан шу коммуникатив мўлжал “контекстуал фокус” деб аталади [14:140]. Матнда конвенцияга мос келадиган усул билан ифодаланган ситуатив омиллар – контекстуал фокус - борлиқни категориялаштиришга хизмат қиладиган муайян когнитив жараёнлар билан боғлиқ усул билан таърифланиши мумкин. Бу – маконда идрок этиш, замон кечимида идрок этиш, тушунчаларни таҳлил ва тасниф қилиш орқали фарқлаш воситасида тушуниш, ҳукм ёки келгуси хатти-ҳаракатни режалаштириш деб ҳисобланади [7]. Шундай қилиб, контекстуал фокус матнларнинг турларини аниқлаш учун асос сифатида қатнашади.


Хулоса

Банк матнларини социолингвистик соҳа доирасида тадқиқ қилиш жараёнида ижтимоий омиллар билан боғлиқ лисоний вариативлик ҳодисаларига асосий эътибор қаратилди. Ушбу ёндашув банк мулоқотининг шароитлари, иштирокчилари ва жанрларини, шунингдек, банк матннинг турли хил коммуникатив стратегияларининг лисоний ва нолисоний шакллари аниқлашга имкон берди. Банк матннинг жанр турлари, хусусан, банк рисоалари нолисоний мулоқот коммуникатив стратегиясининг воситалари сифатида қабул қилинади. Банк рекламаси ва бошқа матнлар ўзига хос ижтимоий тавсифлари билан ажралиб туради. Ушбу матнлар банк муассасаси ва турли хил ижтимоий институтлар ва гуруҳлар вакиллари ўртасидаги ижтимоий ва ахборот алоқаларининг шакллари сифатида намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Адмони В.Г. Система форм речевого высказывания. Спб, 1994. - 151с.
2. Алексеева И.С. Текст и перевод. Вопросы теории. - М.: 2008. - 184 с.

3. Герд А. С. Специальный текст как предмет прикладного языкознания / А. С. Герд // Прикладное языкознание/ Отв. ред. А. С. Герд. СПб: Изд-во СПб ун-та, 1996. - С. 68-90.
4. Гурьева З.И. Речевая коммуникация в сфере бизнеса: жанроведческий аспект. – Ростов – на – Дону, 2003. – 92 с.
5. Кушнерук С.П. Современный документный текст: проблемы формирования, развития и состава.- Волгоград: 2005. – 335 с.
6. Левицкий Ю.А. Проблема типологии текстов / Ю.А. Левицкий. -Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 1998.- 106 с.
7. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91б.
8. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. - Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. - 39 б.
9. Теркулова Д.Р. Лингвостилистические и коммуникативно прагматические особенности английского рекламного текста : На материале текстов рекламы деловых услуг : дис. ... канд. филол. наук.- М.: 2004. - 194 с.
10. Таюпова О.И. Типология текста.- Уфа: 2002. – 96 с.
11. Щекина Н.М. Типы текста в экономическом дискурсе // Текст и дискурс: Проблемы экономического дискурса: сб.науч.ст. СПб, 2001. – С. 123-130.
12. Филиппов К. А. Лингвистика текста: Курс лекций. — СПб.: Изд-во. С.-Петербург. ун-та, 2003. — 336 с.
13. Halliday M., Hasan R. Language. Context and Text. Aspects of Language in Social-Semiotic Perspective. Oxford, 1991. – 126 p.
14. Werlich Egon. Typologie der Texte: Entwurf eines textlinguistischen Modells zur Grundlegung einer Textgrammatik / Egon Werlich. - 2., durchges. Aufl. Heidelberg: Quelle & Meyer, 1975. - 140 S.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Туракулова Зарина Мардонкуловна

Преподаватель кафедры русского языка и литературы
Самаркандского государственного института иностранных языков
e-mail: fe.zarinat@gmail.com

УСТАРЕВШАЯ БИБЛЕЙСКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ПАССИВНОГО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО СОСТАВА РУССКОГО ЯЗЫКА



<https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена устаревшей фразеологии русского языка, а именно тематической группе фразеологизмов, восходящих к Священному писанию (Библии) – библеизмам. Рассматриваются разновидности библеизмов с точки зрения их происхождения, отмечается семантическая особенность и стилистическая принадлежность отдельных библейских фразем. Отмечается также динамизм функционирования библеизмов в языке: причины их выхода из употребления и возможность возвращение некоторых устаревших фразем в активный запас языка.

Ключевые слова: фразеологический фонд языка, активный и пассивный словарный запас языка, семантика фразеологизма, прямые и косвенные библеизмы, фразеологический словарь, процесс устаревания, неологизация, номинативные сочетания, коммуникативные сочетания.

To'raqulova Zarina Mardonkulovna
Rus tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
Samarqand davlat chet tillar instituti
e-mail: fe.zarinat@gmail.com

RUS TILINING PASSIV FRAZEOLGIK TARKIBNING BIR QISMI SIFATIDA ESKIRGAN INJIL FRAZEOLGIYASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola rus tilining eskirgan frazeologiyasiga, ya'ni muqaddas kitobga (Bibliyaga) – bibleizmlarga borib taqaladigan frazeologik birliklarning tematik guruhiga bag'ishlangan. Bibliya xilma-xilligi ularning kelib chiqishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, individual Injil iboralarining semantik xususiyati va stilistik bog'liqligi qayd etiladi. Tilda bibleizmlarning ishlash dinamikasi ham qayd etilgan: ularning ishlatilishidan chiqish sabablari va ba'zi eskirgan iboralarni tilning faol zaxirasiga qaytarish imkoniyati.

Kalit so'zlar: tilning frazeologik fondi, tilning faol va passiv so'z boyligi, frazeologik birlikning semantikasi, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bibleizmlar, frazeologik lug'at, eskirganlik jarayoni, neologizatsiya, nominativ kombinatsiyalar, kommunikativ kombinatsiyalar.

Turakulova Zarina MardonkulovnaTeacher of the Department of Russian Language and Literature
Samarkand State Institute of Foreign Languages
e-mail: fe.zarinat@gmail.com**OUTDATED BIBLICAL PHRASEOLOGY AS PART OF A PASSIVE
PHRASEOLOGICAL COMPOSITION OF RUSSIAN LANGUAGE****ANNOTATION**

This article is devoted to the outdated phraseology of the Russian language, namely, the thematic group of phraseological units dating back to the Holy Scripture (Bible) – bibleisms. The varieties of bibleisms are considered from the point of view of their origin, the semantic peculiarity and stylistic affiliation of individual biblical phrasemes are noted. The dynamism of the functioning of biblical expressions in the language is also noted: the reasons for their disuse and the possibility of the return of some obsolete phrasemes to the active stock of the language.

Keywords: phraseological fund of the language, active and passive vocabulary of the language, semantics of phraseology, direct and indirect biblical phrases, phraseological dictionary, the process of obsolescence, neologization, nominative combinations, communicative combinations.

ВВЕДЕНИЕ

Фразеологический фонд языка – это национальное достояние народа, показатель его духовной и культурной самобытности. Это неиссякаемый живой источник, обогащающий литературный язык все новыми выразительными средствами, расширяющий границы его стилистических возможностей. Фразеология современного русского языка представляет собой богатейший источник языкового материала, содержащий яркие черты народного характера, обладающий особым национальным колоритом.

Являясь частью словарного состава, фразеология подвержена тем же изменениям, которые присущи единицам лексического уровня. Сдвиги, происходящие в лексике и во фразеологии, могут быть вызваны как лингвистическими, так и экстралингвистическими факторами, последовательно влияющими на количественный и качественный состав этих пластов.

Подвижность фразеологии указывает на гибкость языка, на его коммуникативный потенциал, неисчерпаемость языковых ресурсов. Русский язык, являясь одним из богатейших мировых языков по числу лексических единиц, обладает также огромным фразеологическим фондом. Толковые и фразеологические словари русского языка зафиксировали обширный пласт фразеологических единиц различной структуры и характера семантики, что позволяет нам оценить значительный объем фразеологических средств современного русского литературного языка.

«Фразеологический словарь современного русского языка» в 2-х (томах под редакцией А.Н. Тихонова) [1] вообрал в себя большое количество фразеологических единиц современного русского языка. Число кодифицированных в нем фразеологизмов насчитывает более 35 тысяч единиц, что на сегодняшний день является самым большим собранием фразеологических единиц русского языка. Словарь отразил динамизм развития фразеологического состава языка, хотя, как нам кажется, не в полной мере: в нем не отражен процесс неологизации фразеологии, что является основным способом расширения и обновления его словарного состава. В словаре помечен процесс стремительного устаревания языковых единиц, выхода из активного употребления определенной части ФЕ в период 20 столетия.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

При изучении устаревшей фразеологии мы опирались на фразеологический корпус данного словаря. Нами было выявлено большое количество фразеологизмов, обозначенных специальными пометами – «устар» (устаревшее) и «устаревающее», среди которых определенная часть восходит к библейским и евангельским текстам, так называемым

библеизмам в широком понимании этого термина. Научная литература предлагает несколько значений данному понятию, однако наиболее емкое определение слова библеизм мы находим в трактовке польского лингвиста В. Хлебды: «Библеизм – это языковая единица, происхождение которой можно стабильно связать с библейскими текстами, независимо от её формальной структуры (слово – словосочетание – предложение) и семантического статуса, закодированная в языковой памяти данного народа и воспроизводимая в текстах данного языка» [3].

Для библеизмов характерна повышенная экспрессивность, переносность значения, а также преимущественная принадлежность к книжному стилю. Библейская фразеология обладает эксплицитными признаками, позволяющими легко дифференцировать их от других единиц данного уровня. Отметим для начала, что большинство библеизмов сохраняют в себе церковнославянскую лексику, указывающую на первоначальную сферу их употребления. Как известно, церковнославянский язык является русским изводом старославянского – литературного языка древней Руси, на котором проводилась служба в церквях, переводились с греческого языка тексты Евангелия и Священного писания. Сравните, отверзлись хляби небесные, не ведают, что творят, юдолю плачевная, вносить лепту. Другая особенность библеизмов проявляется в том, что они во всех европейских языках, в том числе и в русском, достаточно легко распознаются благодаря наличию в их компонентном составе имен собственных, являющихся прямыми ссылками на библейские топонимы и персонажи. Сравните: кающаяся Магдалина, Каинова печать, Иудин поцелуй, петь Лазаря, Вавилонское столпотворение, Иерихонская труба, Содом и Гоморра, Гог и Магог, идти на Голгофу, Ноев ковчег, Святой Грааль и т.п. Наконец, сюжеты Библии, запечатленные многими библеизмами благодаря европейской литературе и искусству, настолько вжились в культурную память европейских народов (превратившись в крылатые фразы), что легко расшифровываются носителями любого языка: блудный сын, нести свой крест, испить свою чашу, избиение младенцев, манна небесная и т.п. [1;14].

Как предлагают некоторые лингвисты, при исследовании библейской фразеологии целесообразно разделить их на **прямые и косвенные** [8;186]. Под прямыми библеизмами понимаются цитаты из Священного писания, выдержки из таких цитат, словосочетания, связанные с библейскими персонажами и сюжетами. К примеру, устаревшее выражение геенна огненная – одно из обозначений ада, упомянутое в Ветхом завете (Ис.40:3), избиение младенцев – эпизод новозаветной истории, описанный в Евангелии от Матфея, купель Силоамская – то, что приводит к исцелению от всех недугов, происходит от библейского рассказа о силоамской купельне в Иерусалиме, вода которой обладала чудесным целительным свойством (Евангелие от Иоанна гл. 9, ст.7), страха ради иудейска – из-за боязни, страха перед кем-либо, из угодливости, подхалимства (выражение взято из евангельского сказания об Иосифе, который был учеником Иисуса, но тайным — из-за страха перед иудеями) и т.п.

Косвенные библеизмы представляют собой выражения, которых в Библии вовсе нет. Они лишь опираются на библейские сюжеты, через наличие в них какого-то компонента, связанного с Библией, его ассоциативные связи [2;189]. Примером косвенных библеизмов могут послужить устаревшие фразеологизмы стар как Мафусаил, Аредовы веки, в костюме Адама, Адамовы слезы, беден, как Иов и др. К этой же категории библеизмов можно отнести словосочетание Адамово яблоко, обозначающее выступ гортани – кадык, поскольку данное выражение было мотивировано народнопоэтическим переосмыслением ветхозаветного сюжета о грехопадении первого человека: часть запретного плода – яблока, застряла у Адама в горле. Другое интересное словосочетание Адамова голова – изображение черепа и костей имеет намек на библейское поверье. Изначально изображение черепа с двумя лежащими под ним накрест костями относилось чисто к религиозной символике и было связано с местом захоронения Адама, позже оно расширило свою семантику и стало символическим обозначением смерти и яда.

Прямые библеизмы преимущественно функционируют в книжном стиле, и нередко развивают дополнительные значения на основе метафорических образов. К примеру,

выражение воскрешение Лазаря является прямой ссылкой на евангельскую притчу о чудесном оживлении Иисусом Лазаря – праведника из Вифании. Исходное значение данного выражения «выздоровление после тяжелой болезни» развилось и приобрело переносный смысл – «возобновление чего-либо старого, забытого». Чаще всего эти приобретенные новые значения оказываются с иной эмоционально-экспрессивной окраской, чаще всего иронической, шутливой. Сравните, какие пометы имеют при себе подобные словосочетания в словарных статьях: блаженны нищие духом – ирон. «употребляется при характеристике чьего-либо удовлетворенного состояния как следствия недомыслия и недалекости», благую часть избрать – ирон. «принять лучшее, выгодное для себя решение», вавилонское столпотворение – шутол. «шумиха, суматоха, беспорядок», власть предержащая – ирон. «начальство» и др.

Для библеизмов характерен динамизм в плане их употребляемости носителями языка. Наиболее устойчивыми во временном отношении являются прямые библеизмы. Объясняется это прежде всего сферой их употребления: художественная литература и публицистика. Их широкое употребление и формальная устойчивость обусловлены книжными традициями в языке, они закреплены в письменных носителях информации и менее подвержены внешним и внутренним воздействиям, оказываемым на язык.

Напротив же, косвенные библеизмы оказываются более уязвимыми. Как показывает фактический материал, под действием внешних факторов они склонны терять свою актуальность, так как изменяется языковая среда, которая их породила. Изменения могут быть как социально-политического плана, так и культурно-духовного. К примеру, огромный пласт косвенных библеизмов перестал функционировать в языке в советский период, так как отрицалось религиозное мировоззрение, идущее в разрез с государственной идеологией. Атеистические взгляды способствовали устареванию и дальнейшему выходу из языка многих понятий и выражений, связанных с представлениями людей о духовном мире, о влиянии на человека высших сил.

В исследуемом словаре мы находим множество устаревших фразеологических единиц с такими религиозно мотивированными компонентами, как Бог, Господь, Христос, ангел, а также производными от них. Наличие в их составе семантических элементов, связанных с христианской религией, позволяет отнести эти устойчивые сочетания к библеизмам. Сравните: бог по душу посылает – о приближении смерти, господь (бог) посетил – «случилось бедствие», господь бог посетил чем-либо – «господь бог наградил или наказал чем-либо», божья (христова) невеста – «монахиня», божий человек – «странник, нищий, юродивый», почивать в боге – «умереть», божеское наказание – о чем-то, причиняющем вред, отдать богу душу – «умереть», ни боже мой – «ни в коем случае», бог обидел – об увечном, убогом, (синоним – богом убитый), бог прибрал – о чьей-либо смерти, бог несет/принесет – о чьем-либо приходе, ангел смерти – о смерти, ангел тьмы – «сатана» и т. п.

В этом корпусе ФЕ находим речевые формулы, используемые для выражения разного рода отношений к предмету, лицу, ситуации, то есть выражения с различным оценочным значением – одобрение, неодобрение, пожелание, порицание, благодарение, сожаление и т.д. Эти устойчивые сочетания имеют преимущественно просторечный характер. Сравните фразы, выражающие различные оттенки чувств. Радость: бог уродил, уродит – о хорошем обильном или скудном урожае; огорчение: бог не уродил (уродит); порицание: нет бога в ком-либо – о том в ком нет жалости, сострадания; недовольство: каждый божий день; сожаление: уж так (таким) бог уродил – о человеке, отличающемся каким-либо заметным природным свойством, качеством, бог обидел – об увечном, убогом, (синоним – богом убитый); страх: боже упаси/сохрани, помилуй бог, убей меня бог; уверенность: вот тебе (те, вам) Христос; предупреждение: побойся бога.

Отличительной особенностью библеизмов данной группы является их способность вызывать различные чувства: чувства сострадания или боязни, благодарности, связанными с религиозными убеждениями и т.д. Не случайно они использовались нищими, убогими, просителями для усиления мольбы о помощи или прощении. Например: Христа ради (ради


Христа); Христом богом прошу/молю; да хранит тебя/вас бог; заставить вечно бога молить; молить бога (за кого-либо) и т.п.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Как видим огромный пласт библеизмов перешел и продолжает переходить в пассивный запас. Однако нередко случаи, когда, с одной стороны, меняются социальные условия, возникает иная политическая обстановка, рождается благоприятная для религии духовная среда малоупотребительные или вовсе исчезнувшие из речевого обихода слова и выражения могут вновь «возродиться». Такая ситуация сложилась в постсоветский период со многими библеизмами, так как религия и Книга книг в советское время были под запретом. Это касается как номинативных, так и коммуникативных устойчивых сочетаний. Толковый словарь русского языка конца XX века под редакцией Г.Н. Складневской [5] зафиксировал динамизм функционирования фразеологических единиц. Приведем примеры большой группы номинативных фразеологизмов, являющихся названиями богослужебных обрядов и религиозных праздников, которые вернулись из периферии языкового изгнания: Великий пост, Великий четверг, Вербная неделя (Страстная неделя), Вербное воскресенье, Вербная суббота, Введение во храм Богородицы, Воздвижение креста господня, Вознесение Господне, Крещение господне, Светлое Христово воскресенье, Рождество Богородицы, Успение богородицы и др.

Список использованной литературы

1. «Фразеологический словарь современного русского литературного языка». В 2-х томах. Составители: А.В. Королькова, А.Г. Ломов, А.Н.Тихонов. Под ред. А.Н. Тихонова. – М.: «Наука», 2004.
2. Балакова Д., Ковачова В., Мокиенко В.М. Наследие библии во фразеологии – Грайфсвальд, 2013.
3. Вальтер Г., Мокиенко В.М., Балакова Д. Славянская фразеология и библия. Slovanska frazeologia a Biblia. Greifswald: Ernst-Moritz-Arndt-Universitat Greifswald, 2013.
4. Малиновский Е.А. Формирование русской фразеологии. Ч. I., Учебное пособие. – Самарканд: Изд. СамГУ, 1999.
5. Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Л.: Наука, 1977.
6. Толковый словарь русского языка конца XX в. (Языковые изменения). Под ред. Г.Н. Складневской. – СПб: «Фолио-пресс», 2000.
7. Фойту Петра. Динамика библейской фразеологии как причина сходств и отличий во фразеологии разных языков (на материале немецко-чешского словаря библейской фразеологии. Славянская фразеология и Библия. – Грейфсвальд - Санкт-Петербург - Ружемберок, 2013.
8. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: «Высшая школа», 1963.
9. https://www.liveinternet.ru/community/moja_polska/post188115836/



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Халимова Фируза Рустамовна

Таржима назарияси ва амалиёти кафедраси доценти, PhD

Самарқанд давлат чет тиллар институти

firuzahalimova@mail.ru

КОНЦЕПТ МАЙДОН ТИЗИМИ СИФАТИДА

<https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Ҳозирги вақтда матни лисоний таҳлил қилишда концептуал таҳлил самарали ҳисобланади, чунки у мазмунни аниқроқ ўрганиш имкониятларини сезиларли даражада оширади. Концептуаллаштириш ёки бадиий матннинг концептуаллаштирилган доменини аниқлаш усули унинг таркибий қисмларини муайян мавзунини ёки микро мавзунини ёритиб берадиган тил бирликларининг йиғиндисидан маъно жиҳатдан ажратишга асосланган. Концептуал майдон ва тилнинг семантик маконини фарқлаш тамойилларини аниқлаш ҳозирги замон тилшунослигининг долзарб масаласидир. Маълумки, семантик структураларни белгиловчи концептуал структуралар маъно тузилишига таъсир кўрсатади. Миллий тилнинг концептуал майдони таркибини оламнинг лисоний манзарасининг бир бутун ва алоҳида қисмлари сифатида ўрганиш, оламни категориялаштирадиган ва концептуаллаштирадиган асосий концептларнинг нисбатан тўлиқ парадигмасини аниқлашга қаратилган.

Калит сўзлар: концепт, концептосфера, концептуал майдон, семема, лексема, ядро, сарҳад, ҳудуд.

КОНЦЕПТ КАК ПОЛЕВАЯ СТРУКТУРА

АННОТАЦИЯ

В настоящее время концептуальный анализ эффективен при лингвистическом анализе текста, поскольку он значительно повышает шансы на более точное изучение содержания. Метод концептуализации или определения концептуализируемой области художественного текста основан на выделении его компонентов из совокупности языковых единиц, которые освещают определенную тему или микротему с точки зрения значения.

Определение принципов разграничения концептуального поля и семантического пространства языка является актуальной проблемой современной лингвистики. Известно, что концептуальные структуры, которые определяют семантические структуры, влияют на структуру значения. Изучение состава концептуального пространства национального языка в целом и отдельных частей языковой картины мироздания направлено на выявление относительно полной парадигмы основных понятий, которые категоризируют и концептуализируют вселенную.

Ключевые слова: концепт, концептосфера, концептуальное поле, семема, лексема, ядро, периферия, зона.

CONCEPT AS A STRUCTURE OF THE FIELD

ABSTRACT

Currently, conceptual analysis is effective in the linguistic analysis of a text, since it significantly increases the chances of a more accurate study of the content. The method of conceptualization or definition of the conceptualized area of a literary text is based on the selection of its components from a set of linguistic units that illuminate a certain topic or microtheme from the point of view of meaning.

The definition of the principles of differentiation of the conceptual field and semantic space of language is an urgent problem of modern linguistics. It is known that conceptual structures that define semantic structures affect the structure of meaning. The study of the composition of the conceptual space of the national language as a whole and individual parts of the linguistic picture of the universe is aimed at identifying a relatively complete paradigm of the basic concepts that categorize and conceptualize the universe.

Keywords: concept, conceptsphere, conceptual field, sememe, lexeme, core, periphery, zone.

Академик Д.С. Лихачёв концептни махсус майдон сифатида тақдим этди [Лихачев, 1997: 280-289]. Лексик бирликлар орқали ифода топган концепт ядро ва сарҳад майдони тузилишига эга. Майдонлар ҳар қандай тизимга ҳос бўлган ўзига ҳос хусусиятлар, алоқалар ва муносабатларга эга бўлган тизим шаклланишидир. Тилшуносликда майдон анъанавий равишда умумий мазмун билан бирлаштирилган ва белгиланган ҳодисаларнинг концептуал ўхшашлигини акс эттирувчи лингвистик бирликлар тўплами сифатида тушунилади.

Концептуал майдон ҳар хил турдаги когнитив тузилмаларни ва турли хил ментал ифодаларни ўз ичига олган энг катта ақлий шаклланишидир. Концепт тизим (таркибий бирлик) объекти сифатида концепт гештальт ва концептуал-мантикий даражада (концептуал майдон даражаси) ифодаланади.

Дастлаб, тилшуносликда майдонни ташкил этиш тўғрисидаги қоидалар тил семантикасини, биринчи навбатда лексик семантикани таҳлил қилиш билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлади. Бироқ, XX асрнинг 20-йилларида Й.Л. Вайсгербер “лисоний майдон” ғоясини ҳар бир тилга ҳос бўлган махсус дунёқараш билан боғлайди ва уни “оламнинг лисоний манзараси” тушунчаси контекстга боғлайди. Олим томонидан, “рухий оралиқ олами”га тегишли бўлган “лисоний майдон” тушунчаси нафақат алоҳида лисоний бирликларнинг мазмунини бўйсундиради, балки бу тилни тавсифловчи дунёқарашни амалга ошириш усулидир [Гухман, 1961: 42]. Шу ўринда “майдон” биринчи навбатда тилнинг концептуал соҳасига тегишли эканлигини кўриш мумкин.

Ю.Н. Караулов томонидан “концептуал” ва “семантик майдон” ўртасидаги фарқ кузатилган. Концептуал майдон – бу концептуал таркиб майдони бўлиб, “маълум бир тилнинг маданий предмет олами ва инсон тафаккури мантиғини ҳисобга олган ҳолда мантикий – семантик гуруҳлар (парадигмалар), тузилмалари билан белгиланади; бу предмет олами ҳақидаги билим” [Караулов, 1987: 138]. Концептуал майдон ҳақиқатни бевосита акс эттиради. Семантик майдон – лексик ва миллий жиҳатдан ўзига ҳос; бу – тил, сўзлар ва уларнинг маънолари ҳақидаги билимдир” [Ўша манба, 138]. Ассоциатив майдон – бу ўртамиён лисоний фаолиятдаги инсон тафаккури тузилишининг онтологик акси. Ушбу уч турдаги майдонлар изоморфик бўлиб, лисоний фаолият ва идрокда бир-бири билан ўзаро таъсир қилади.

Замонавий когнитив йўналтирилган лингвистик билимлардаги концептуал майдон одатда интеграл ва дифференциал когнитив хусусиятларга ега бўлган иерархик равишда ташкил этилган тушунчалар тўплами сифатида талқин этилади. Шу маънода концептуал майдонлар мураккаб тузилишга эга бўлган ажралмас когнитив маконлардир. И.А. Тарасованинг сўзларига кўра, концептуал майдонни концептуаллашувнинг пропозицион, метонимик ва метафорик моделларини ўз ичига олган мураккаб турдаги когнитив тузилиш сифатида кўриб чиқиш мумкин [Тарасова, 2004: 66].

“Концептуал майдон” Т.В. Евсюкова ва Е.Ю. Бутенко томонидан куйидагича тушунилади: “Хар хил турдаги когнитив тузилмалар ва турли хил ментал тасаввурлар шакллари ўз ичига олган уч ўлчовли аклий шаклланиш; умумий семантик компонент билан боғланган иерархик тузилган концептлар занжири. Концептуал майдон интертекстуал макондаги бошқа концептлар билан семантик муносабатларга кирадиган асосий концепт атрофида ташкил этилиши мумкин Концептояферани моделлаштириш турли хил ҳажмдаги маълумотлар асосида амалга оширилиши мумкин – битта матнли асар ичида, алоҳида муаллифнинг концептосфераси доирасида, миллий концептосфера, бутун семантик макон доирасида” [Евсюкова ва бошқ., 2014: 112].

Демак, концептуал майдон тузилишини моделлаштириш асосий концепт ва бошқа тегишли концептлар ўртасидаги муҳим алоқалар ва муносабатларни аниқлашни ўз ичига олади. Структуравий алоқалар ва концептлар ўртасидаги муносабатлар одатда “концептуал тўплам” ёки “концепт комбинацияси” тушунчаси ёрдамида тавсифланади [Крючкова, 2009].

Концепт амалга оширадиган дастурнинг семантик жиҳатдан асосий параметрларини белгилаб беради. Семантик дастур элементлари кейинчалик яна янгиланиб, концептуал тизимни бойитувчи янги тафаккур концептларини шакллантириш учун асос бўла олади [Топорова, 2003: 41]. Шуни таъкидлаш лозимки, концептосферанинг муайян майдонини шакллантириш жараёнида концептларнинг хусусиятлари муҳимдир, чунки айнан концепт мазмунида халқларнинг маданий тажрибасидаги фарқлар намоён бўлади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, концептлар улар учун бегона бўлган концептосфералар билан зиддиятга киришиши мумкин. Бу кўпинча тегишли концептларнинг қиймат компонентлари мос келмаганда намоён бўлади [Карасик, 2003: 19].

Концептуал майдон концепт билан ифодаланган қийматлар тўплами билан шаклланади. Лисоний белгилар тизимида унинг барча элементлари ўз аксини топа олмайди, чунки ментал концепт ҳар доим ҳам лисоний белги орқали намоён бўлавермайди, чунки у доимо ривожланиб боради ва унинг бир қисми нолисоний ифода бўлиб қолади. Концептуал майдонни ўрганиш когнитив контекстни жалб қилишни талаб қилади, чунки концептнинг аклий майдони мураккаб кўп ўлчовли тузилишга эга (Н.Н. Болдырев, В.И. Карасик, И.А. Стернин ва бошқалар). Лисоний фаолият вакиллари учун энг долзарб уюшмалар концептнинг ядросини ташкил қилса, кам аҳамиятга эга бўлган уюшмалар сарҳадни ташкил қилади.

Ҳозирги вақтда фанда концептнинг куйидаги майдон тузилиши мавжуд:

Концепциянинг ядроси: концепт ҳақида муҳим билимларни ифодаловчи асосий когнитив пропозицион тузилма [Попова, 1999]. Концептнинг ядроси универсал компонент бўлиб, ўрганилаётган концептни номловчи калит сўзнинг семантик хусусиятлари билан, яъни изоҳли луғатларда мустаҳкамланган ва кейинги концептуал ривожланиш учун имкониятларга эга бўлган асосий ифодалар таркибининг элементлари билан белгиланади. Майдон ядросидаги калит сўз атрофида семемалари майдон архисемасига тенг бўлган лексемалар гуруҳланган: синонимлар, антонимлар.

Ядро олди ҳудуди: концепциянинг мунтазам ва енг типик лексик-синтактик тасвирлари, вазиятнинг денотатив тузилишини тўлиқ акс эттирувчи изосемик лексик-синтактик конструкциялар.

Яқин сарҳад: майдонга яқин жойлашган лексемалар, семемалар [Попова, Хорошунова, 2003: 34].

Узоқ сарҳад: концептнинг лексик ва синтактик ифодалари, концептуал майдонга киритилган турли хил субъектив-модал маъноларнинг умумийлиги билан мураккаблашади. Узоқ сарҳадни майдондан нисбатан узоқлашган семема ва лексемалар ташкил қилади.

Чегара сарҳади: семемаларида яширин семалар мавжуд бўлган лексемалардан иборат бўлиб, улар майдон номи билан муносабатда бўлишади. Айнан битта лексема турли хил семемалари ёрдамида майдоннинг турли ҳудудларига киритилиши мумкин [Попова, Хорошунова, 2003: 35]. Концептнинг майдон тузилишини ўрганиш концептнинг ядроси, яқин, узоқ ва чегара сарҳадларини ташкил этувчи когнитив хусусиятларни аниқлаш ва тавсифлаш,

концептни ифодаловчи лисоний воситаларнинг энг тўлиқ таркибини яратишга қаратилган [Стернин, 2001].

Шундай қилиб, концепт атамаси муайян маданият, миллат ва маълум бир даврдаги шахснинг олам ҳақида билим, тушунчасини ифода этувчи мазмунли белгилар, ментал моҳиятини ифодалайди. Концептосферада эса бутун миллатнинг билим салоҳияти, билим ва кўникмалар захираси, маданий тажрибаси акс этади [Бабушкин, 2003: 12-13]. Шунинг учун, академик Д.С. Лихачевнинг ғоясини кўллаб-қувватлаган А.П. Бабушкин тилининг концептосферасини турли хил концептлар мажмуи: расмлар, схемалар, фреймлар ва сценарийлар сифатида намоён бўлишини қайд этади ([Бабушкин, 1996]. З.Д. Попова концептосферани концептлардан иборат ментал майдон сифатида тушунади [Попова, 2001].


Концепт мазмунини майдон тузилиши шаклида акс эттириш бадий асарларда майдон сифатида ифодаланган концептосферани моделлаштириш учун имконият яратади, бу концептнинг нуткий ифодасида бадий матннинг аҳамиятини аниқлашга имкон беради. Оламнинг бадий манзараси мураккаб таркибли, кўп аспектлардан иборат бўлиб, баъзида лисоний ифода билан тафовутга эга бўлади. Ёзувчининг олам манзараси тасвири хусусиятлари, унинг асосини қандай мажозий-мантикий ментал мажмуалар ташкил этиши ва уларнинг маълум бадий матнларда қандай ифодаланиши билан бевосита боғлиқдир. Шунинг учун, табиийки, бадий концептнинг тўлиқ ва аниқ таснифини яратиш, фақат кўплаб бадий асарларини кўриб чиқиш асосида амалга оширилиши мумкин.

Масалан, ўзбек шеъриятида “ВАТАН” концепти “она Замин”, “Она”, “мусаффо осмон”, “макон”, “юрт”, “тупрок”, “Ўзбекистон”, “озодлик” каби умумбадий прототиплардан ташкил топган бўлади. Шоир Муҳаммад Юсуф шеъриятини таҳлил қилганимизда, “Ватан” концепти - “саждагоҳ”, “она сути”, “тупроғи кўзга тўтиё” каби индивидуал-муаллифий концепт мазмунларида ўзига хос тарзда акс этилиши гувоҳи бўламиз. Эркин Воҳидов шеъриятида эса “дард”, “ғурбат”, “ўт”, “оташ” каби сарҳадларни кузатамиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 1996. – 104 с.
2. Бабушкин А.П. Картина мира и концептосфера языка // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы междунар. симпозиума. Волгоград, 22-24 мая 2003г. Ч.2 Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 12-13.
3. Гухман М.М. Лингвистическая теория Л. Вайсгерберга // Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. – Москва: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 123-162.
4. Карасик В.И. Транслируемость концептов // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы междунар. симпозиума. Волгоград, 22-24 мая 2003г. Ч.2. Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 17-19.
5. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 264 с.
6. Крючкова Н.В. Дискурсивное варьирование концептов // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2009. № 4. – С. 271-276.
7. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От Теории словесности к структуре текста. Антология / Под ред. В.П. Нерознака. – М., 1997. – С. 280-289.
8. Попова З.Д. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1999. – 30 с.
9. Попова, З.Д. Очерки по когнитивной лингвистике / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж, 2001. – 192 с.
10. Попова З.Д. Построение лексико-семантического поля ключевого слова концепта / З.Д. Попова, И.В. Хорошунова // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы международного симпозиума. Волгоград, 22-24 мая 2003г. Ч.2 Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 34-35.

11. Стернин И.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: научное издание. – Воронеж, 2001. – С.58-65.
12. Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте (на материале поэзии Г. Иванова и И. Анненского): диссертация ... доктора филологических наук. – Саратов, 2004. – 484 с.
13. Топорова В.П. Семантическая программа концепта // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы междунар. симпозиума. Ч.2 Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 39-41.
14. Холмурадова, Л. Э. (2012). Семейные ценности англичан, отраженные в английской фразеологической картине мира. Вестник Челябинского государственного университета, (5 (259)), 161-163.
15. Eshkuvatovna, K. L., & Furkatovna, S. D. (2022). The Analysis of the Usage of Lexical Transformations in the Translation of the Words Expressing the Concept “Hospitality”. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 16, 101-104.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Воҳидов Абдуваҳоб

Шароф Рашидов номидаги

Самарқанд Давлат Университети

vahidov19@mail.ru

ТОЖИК ТИЛИНИНГ САМАРҚАНД ШЕВАСИДА ЙАК(БИР) СОНИ БИЛАН ҲОСИЛ ҚИЛИНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТЎҒРИСИДА

<https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола Самарқанд шевасида йак (бир) сони билан ҳосил қилинган фразеологик бирликлар таҳлиliga бағишланган. Йак (бир) сони тадқиқ қилинаётган шевада фразеологик бирликлар ҳосил қилишда бошқа сонлар орасида етакчилик қилиши таъкидланган. Самарқанд шевасида сон + от модели фаол эканлиги мисоллар билан исботланган. Йак(бир) сони асосан аниқ ва мавҳум отларга қўшилиши кўрсатилган. Бундай фразеологик бирликлар кўмакчили ва сўнг кўмакчилар бўлиши мумкинлиги айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: Самарқанд шеваси, йак (бир) сонли фразеологик бирликлар, сон+от модели, кўмакчили, сўнг кўмакчилар, аниқ ва мавҳум отлар.

Vahidov Abduvahob

Samarkand State University

named after SHarof Rashidov

vahidov19@mail.ru

PHRASEOLOGICAL UNITS THROUGH THE EXPRESSION (I.E. NUMERAL) OF YAK IN TAJIK OF SAMARKAND VERNACULAR

ABSTRACT

The present paper is devoted to the investigation of the phraseological units which is formed through the expression (i.e. numeral) yak in Tajik, namely from Samarkand pronunciation. In addition, it is distinguished that the expression and/or number yak in the studied pronunciation leads among other numbers in the formation of phraseological units. The presented data examples of the study prove that the model number + noun is effective in Samarkand vernacular. Moreover, the paper tends to presented that the expressions related to yak is essentially produced through the abstract and concrete nouns. From other hand, it adds that the suchlike phraseological units might be used as an auxiliary and/or postpositional fashion.

Keywords: Samarkand vernacular, (i.e. numeral) yak of phraseological units, model number + noun, auxiliary, postpositional, concrete and abstract nounaetcys.

Вахидов Абдувахоб

Самаркандский Государственный
университет имени Шарафа Рашидова
vahidov19@mail.ru**О ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ ТАДЖИКСКОГО ЯЗЫКА САМАРКАНДСКОГО ДИАЛЕКТА ОБРАЗОВАННЫХ С ЧИСЛИТЕЛЬНЫМ ЙАК (ОДИН)****АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается вопрос образования фразеологических единиц говора таджиков Самарканда с участием числительного йак (один). Отмечается результативность числительного йак (один) в образовании фразеологических единиц по сравнению с другими числительными. Результативность знаковой модели числительное + существительное в фразеологических единицах подтверждается примерами из диалектного материала. Числительное йак (один) во фразеологических единицах, в основном, расположен с конкретными и абстрактными существительными. А также отмечается, что данного типа фразеологические единицы также образуются с предлогами и послелогами.

Ключевые слова: Самаркандский диалект, фразеологическая единица с числительным йак (один), знаковая модель числительное + существительное, предлоги, послелоги, абстрактные и конкретные существительные.

Кириш

Ҳақиқатан ҳам ҳар бир тилда маълум миқдорда сон иштирок этган фразеологизмлар мавжуд бўлиб, сўзлашув нутқининг турли вазиятларида қўллаб келинади. Сонларнинг бундай барқарор тузилмалар таркибида амал қилиши, афтидан, турли қадимги тарихий ва мифологик реалияларнинг юзага келиши нафақат тожиклар, балки қўллаб бошқа халқлар ўтмиши билан ҳам боғлиқдир. Сон барча одамлар учун ягона бўлган когнитив жараёни акс эттирувчи асосий концептлардан бири ҳисобланади. Маълумки, сон - оламнинг лисоний манзарасида муҳим компонентдир. Миқдор ҳақиқатда мавжуд бўлган материянинг яшаш тарзи бўлиб, мантикий-фалсафий табиатга эга ва оламнинг концептуал манзарасида муҳим ўрин эгаллайди. Тилда белгининг турли воситалар ва усуллар орқали ифодаланиши миқдор категориясига боғлиқ. Фразеологик бирликлар таркибига кирган сонлар қоидага қўра, аслида сонни эмас, балки сонга оид бўлмаган когнитив маънони ифода қилади. Яъни, инсон тажрибаси ва билими у ёки бу маънони аниқ ифодаланишида идиомалар таркибида турли сонларнинг қўлланилишини талаб қилади. Фразеологик бирлик таркибида айнан шу қисмининг танланиши қатор объектив сабаблар билан боғлиқ: биринчидан, инсон турмуш тарзи модусининг асосий мезонларини тавсифловчи сон тилда миқдор категориясини ифодалашга хизмат қилади; иккинчидан, сон лексик-грамматик моҳиятининг ўзига хослиги ва маълум семантик хусусияти билан ажралиб туради[5:149].

Тожик тилининг Самарқанд шеvasида сон асосида ҳосил қилинган фразеологик бирликлар кўп учрайди. Улар асосан аниқ сонлар ёрдамида ҳосил бўлувчи фразеологизмларда қўллаб учрайди. Бу миқдор фразеологизмлар сўзлашув характерида оид бўлиб, улар услубий ҳосиланиш ва ҳар бир соннинг ўзига маълум частотага эга бўлиши билан фаркланади[3:14]. “Йак” (бир), “ду” (икки), “панҷ” (беш), “ҳафт” (етти), “дах” (ўн), “сад” каби сўзлар тожик тилининг Самарқанд шеvasи фразеологик бирликлари таркибида кўп ишлатилади[1:18]. Масалан, **сад мақом кати** “турли йўллар билан”, **яктарафа ка(р)дан** 1. “маълум қарорга келмоқ, ишни ҳал қилмоқ”. 2. “ўлдирмоқ”; **ду даст да биндӣ** “қуруқ, ҳеч нарсасиз”, **дулунча хўрдан** “иштаҳа билан емоқ”; **ду даҳан** (озгина), **ҳафт пушт** (етти пуштигача), **йакта-йакта** “навбати билан” ва бошқалар[9:301].: **Ду даҳан** гап занем. Қай боз-а шумо-йа надидагӣ будам. (Озроқ гаплашайлик. Сизни кўрмаганимга ҳам анча бўлди) **Ин давлат-атон ҳаф(т) пушт-атон** ба мерасад. (Бу давлатингиз етти пуштингизгача етади.) А ҳаму қата ра(х) ду дас(т) да биндӣ омади-ми? (Шунча йўлдан қуруқ келдинг-ми?).

Асосий кисм

Самарқанд шевасида сонлар ёрдамида ҳосил бўлувчи фразеоло-гизмларнинг кўплигини эътиборга олган ҳолда, биз ушбу мақолада фразеологизмларнинг “ядро”си сифатида кўлланадиган **йак** (бир) сонли, компонентли фразеологик бирликларнинг структураси ва семантикасини тадқиқ этишга азм қилдик [4:с.20-29]..

Йак (бир) сони тожик тилининг Самарқанд шевасида кўплаб диалектал фразеологизмларга жон бағишлайди. Самарқанд шеваси фразеологик бирликларнинг бошқа кўринишлари билан қиёслаганда бундай фразеологик бирликларига нисбатан кўпроқ учрайди.

Йак(бир) миқдор сонли фразеологик бирликлар ўзининг лексик-структуравий тузилишига кўра турли кўринишга эгадир. Жамланган мисоллар кўрсатадики **йак** сони от, сифат ва бошқа туркумга оид сўзлар билан қўшилиши мумкин. Ўз навбатида бинар фразеологик бирликларнинг бу сон билан шаклланган бир неча модели мавжуддир. Биз ушбу мақолада фақат сон ва от модели фразеологик бирликларнинг таҳлилига эътибор қаратамиз. Бундай бирикмалар **йак**(бир) сонли фразеологик бирликлар орасида нисбатан, унча катта бўлмаган гуруҳни ташкил қилади. Бунда от, айниқса, фразеологизмнинг кенг тарқалган қисми ҳисобланади ва таянч компонент вазифасини бажаради. Соннинг ўзига хос грамматик жиҳатларидан бири саналадиган предметларни англатувчи от билан бирга келишидир. Шу боисдан, баъзан сон ва от қўшилган бирикмаларнинг ўзига хос синтактик идиоматик тури ва ҳатто отнинг сон олдидаги ўзига хос кўринишлари шаклланади. [5:58]..

Миқдор сонлар мавҳум отларга ҳам, аниқ отларга ҳам қўшилади. Ўз навбатида, бундай фразеологик бирликлар отнинг мавҳум ёки аниқлигига қараб, сон билан қўлланади ва икки кичик гуруҳга бўлинади: а) “йак” миқдор сони + мавҳум от; б) “йак” миқдор сони + аниқ от.

а) “йак” миқдор сони + мавҳум от

Мавҳум от сонли фразеологик бирликлар тақибиди нисбатан кўп ишлатилади. Бу жараёни Самарқанд шеваси фразеологик бирликлари мисолларида яққол тасаввур этишимиз мумкин. Масалан: **Йа(к) вахт(х)о** (қачонлардир); **йак умр**(доимо, бир умр); **йак маҳал** (тўсатдан, маълум вақтдан кейин, бирмаҳал); **йак нав(ъ)** (яхшироқ, дуруст). **Йа(к) вахто** инчо(х)о дарах(т)зор буд. Имрўз бошад, ахлотхона шуда хорафтас (Бир вақтлар бу ерлар дарахтзор эди. Бугун эса, ахлатхона бўлиб ётибди). **А(з) ту, баччем, ман йак умр** қаздор. **Ман-а а(з) йак мурдан гардондй. Йак маҳал**, дарвоза калон кишода шуду писарам мошини наппанав кати даромда омад. (Бирмаҳал дарвозалар катта очилиб, ўғлим яп-янги машина билан кириб келди). **Мулоамак саломати(х)о чй ту?** Худо-ба шукур, **йак нав-ку**, баччем. **Ман-а баҳор-ба йам** расида омдем. (Амаки, саломатлик қандай? Худога шукур, бир нав-ку, болам. Мана баҳорга ҳам етиб келдик).

б) “йак” миқдор сони + аниқ от

Йак сонли фразеологик бирликлар ҳосил бўлишида аниқ отлар ҳам шевада фаёл қатнашади. Самарқанд шеваси фразеологик материаллари бунини яққол тасдиқлайди. Мисолларга мурожаат қиламиз. **Йак даҳан** 1. (бирор сўз, кам сўз) 2. (сал-пал, озгина); **йак қалам**(бир бурда, бир карч, сал-пал); **йак калл(а)и хар** (хаддан ташқари кўп), **йак пули пуччак** (ҳеч нарса, бир пул-лик, кераксиз); **Амак-аш ҳамун-ба йак даҳан гап занед**. Шойад кор-аш ҳал шавад. (Амакиси, шунга бир оғиз гапириб қўйинг. Мумкин, иши ҳам ҳал бўлиб қолар). **Ма, йак қалам а(з) ин тарбуз хўр**. Ташнаг-ет-а мишканад. (Ма, бир қалам(карч, тилик) бу тарвуздан йегин. Чанқоқлигингни қолдирар). **Вай-а нарх-аш-а фамидед-мй?** **А(з) рўйи гапи одам(х)о се ҳазор доллар будас**. Эҳе, **йак калли хар-ку** (Унинг нархини аниқладингизми? Одамларнинг айтишича уч минг доллар экан. Эҳе, анча пул-ку). **Ҳамсо-етон-а мол-ош йак пули пуччак-ба** намеарзад. (Кўшинигизнинг моли бир пулга қиммат).

Шундай қилиб, тадқиқ қилинаётган шевада аниқ ва мавҳум отлар билан келувчи **йак** сонли фразеологик бирликлар **ҳеч нарса, бир пуллик, кераксиз, бирор сўз, кам сўз, сал-пал, озгина, жуда кўп, беҳад, чегарасиз** ва бошқа маъноларда қўлланилади.

Йак миқдор сони + от модели фразеологик бирликлар Самарқанд шевасида ўз эквивалентларига эгадирлар. Бу бирликлар тўлиқ ёки қисман маъно ранг-баранглиги ва услубий йўналтирилганлигига кўра бир-бирига мос келади. Лексик таркиби ва грамматик

структураси ҳам ўхшаш ёки фарқ қилиши мумкин. **Тўлиқ эквивалентлар:** **йак дам** (бир нафас, бир лаҳза); **йак фасил** (қисқа муддат, ҳозир, бир минут), **йак боло када** (бир боло қилиб), **йак илоҷ када** (бир иложини қилиб, қандай бўлса-да). **Йак дам** истед, ҳозир пул-атон-а буроварда митийад (Бир оз тўхтанг, ҳозир пулингизни чиқариб беради). **Йак фасил** сабр кун, ҳам-еш чош-ба меафтад. (Бир оз сабр қил, ҳаммаси ўз жойига тушади). Дад-еш, ҳамин-а **йак боло када** кор-ба чойлашй кунонед. Ўрўш-а худ-аш кашола када мерўд. (Дадаси, шуни бир боло қилиб, ишга жойлаштиринг. У ёғини ўзи тортиб кетади). Ҳамсо-ет-а **йак илоҷ када** розй кунондан даркор. Набошад, мол-аш-а пага бозор-ба мубурорад (Қўшнингни бир боло қилиб, розилигини олишимиз керак. Булмаса эртага молини бозорга олиб чиқади). **Қисман эквивалентлар:** **йак а(о)воз кати** (бир овоздан, якдиллик билан); **йак шаст кати** (бир силташда, жуда тез, биргина силташда, бирдан). Шаб писаратон-а сайлав-ба номзад-еш-а мондан. **Йак авоз кати** гузашт (Кеча ўғлингизнинг номзодини сайловга қўйдилар. Бир овоздан ўтиб кетди). Ин ҳезум-а бин. Шаб мардикор ним соат-ба, **йак шаст кати** шикаста паттофт (Бу ўтинга қара. Кеча мардикор ярим соатда бирдан майдалаб ташлади).

Тадқиқ қилинаётган тилнинг фразеологик бирликлари бир неча маънога эга, улар турли вазиятларда қўлланади. Тилда структураси ва таркиби бир хиллигига қарамай, маъноси фарқланувчи параллел фразеологизмлар ҳам мавжуд. Масалан, **йак қалам** фразеологик бирлиги икки сўздан ташкил топган: тожикча **йак** ва арабча **қалам** (перо, қалам) “Ҳозирги адабий тожик тили фразеологизмлари луғати”да бу фразеологик бирлик кузатилмайдиган [7: с. 840]. Самарқанд шеvasида **йак қалам** фразеологик бирлиги (карч, тилимча, япроқча, паллача, кичкина бўлакча, бурда) маъноларини ифодалайди. Аммо “Тожикча-русча изоҳли луғат”да **як қалам** мураккаб сўз сифатида (ҳаммаси бирдан, бир сўз билан, бир қалам тортиб, якдиллик билан, ҳаммаси, яхлитлигича, тўлиқ, бутунлай, ҳеч бўлмаганда, энг кам) тарзида изоҳланган [6: с. 633]. Шу тарздаги яна бир мисол келтирамиз. Самарқанд шеvasида **йак мушт** фразеологик бирлиги икки маънога эга: 1. бир оз, кам, сал-пал; 2. зарба: **Йак мушт** орди дода-гетон-а ҳозир ман оварда митийам, ин қат(д)а(р) та(ъ)на накунед. (Ўпкаламам, мен берган озгина унингизни ҳозир қайтараман). **Йак мушт мезанам**, ки мумурй. (Бир мушт ураман, ўласан) [10: с. 176]..

Шева фразеологик материалларида **йак** сонли фразеологик бирлик-ларининг компонент алмашиши мушоҳада этилади. Фразеологик бирликнинг от туркуми унинг синоними билан алмаштирилади: **йак дуйно** / **йак олам** / **йак гала** (кўп, туганмас); **йак вах(қ)то** / **йак замон** (қачондир, бир вақтлар) ва шу кабилар. Шаб, писарам а(з) бозор ман-ба **йак дуйно** чиз овардас. Ман ин қата чиз-а чй кор мукунам (Кеча ўғлим бозордан менга бир дунё нарса олиб келибди. Бунча нарсани мен нима қиламан). Шаб боғ-ба **йак** соат-ба невар-ет **йак олам** кора ка(р)д. (Кеча боғда бир соатда неваранг бир гала ишни қилиб кўйди). Рўзи шамми камитет **йак гала** одам-а чам када, сари ман-ба бадощта омдас (Шанба куни маҳалла раиси бир гала одамларни йиғиб, бошимга олиб келибди). **Йак замон** инчо(х)о ша(х)ри калон будагй. [9: с. 237]. (Бир вақтлар бу ерлар катта шаҳар бўлган). **Йак вахт(х)о** ин замин(х)о замини калхоз буд. Ҳама чо токзор буд (Бир вақтлар бу ерлар колхоз ерлари эди. Ҳамма жойи токзор эди). Мисоллар гувоҳлик берадики, тадқиқ қилинаётган шевада **йак** сонли фразеологик бирликлар ўз вариантларига эга. Диалектда учрайдиган бу бинар фразеологик бирликлар вариантлари, маъноси, образлилиги, услубий йўналтирилганлиги ва грамматик структураси билан мос келиши кузатилади.

Маълумки, тожик тилида сўзлар кўп маъноли ва маълум лексемалар билан синонимик муносабатга киришади. Юқорида келтирилган мисоллардан маълум бўладики, кўпинча от синоними – ўзлашма сўз билан алмаштирилади. Қайд этиш лозимки, қатор ўзлашма сўзлар шева тилининг фразеологик бирликлари компонентлари ҳисобланади. Тилшунослар қайд этганидек, улар тўғридан тўғри бевосита (лисоний алоқа натижасида) ёки қандайдир тил орқали ўзлаштирилади. Унинг маъноси торайиши ёки кенгайиши юз беради. Ўзлаштириш сўз бирикмаси ҳосил бўлишида ҳам иштирок этади. Бу фразеологик бирликлар ҳосил қилишида, айниқса, кенг қўлланилади. Тил соҳибби нафақат ўзлашма сўзни, балки ўзлашган фразеологизмларни ҳам қўллаб. Уни авлоддан авлодга ўтказди. Маълумки, бир тилдан

ўзлашган сўзлар, ифодалар ҳисобига бошқа тил бойиб боради ва турли тиллар байналмилал сўзлари ҳисобига луғат фонди кенгайди[2:239-240]. Кўпинча бу сўзлар,терминлар бўлиб, этимологик жиҳатдан араб, ўзбек ёки рус тилларига мансуб бўлади. Шева тилидаги мавжуд **йак гала,йак фасил, йак минут** фразеологик бирликлари тожик тили бинар фразеологик бирликлари ҳосил бўлишида иштирок этади.

Бу фразеологик бирликлар шундай ҳолларда қўлланадики одатда киши бирор нарсадан ёки бирор ҳаракатдан норози бўлганда, у буни тўғрилаш мақсадида унга урғу беради. Кузатишларимиз кўрсатадики, тадқиқ қилинаётган шевада **йак** сонли фразеологик бирликлар фразеологизмнинг бошқа турлари каби метафорик бўлиши мумкин. Сонлар фразеологик бирликлар таркибида асл маъносини йўқотади ва яхлит маъно ҳосил қилишда иштирок этади.. Масалан, **йак минут**. Бу фразеологик бирликнинг сўзма сўз таржимаси – “бир минут”. Кутишнинг қисқа муддати назарда тутилади: (тўхта, сабр қил, биров чида).

Юқорида келтирилган мисоллар **йак** сонли фразеологик бирликлар кўмакчили ва постпозицион бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Ёрдамчи қисмларнинг мавжудлигига кўра фразеологик бирлик маъноси албатта, ўзгаради: **йак нафас**(лаҳза, минут, дам); **йак нафас**-ба (бир нафасда); **як дам** (бир минут шошманг, ҳозир); **йак дам**-ба (тезда, бир лаҳзада); **йак азоб** кати (катта меҳнат билан, катта интилиш эвазига) ,**а(з) йак сар** (тартиб билан)).

Йак сони фразеологизмлар таркибига кириши билан шева тилининг луғавий таркибини бойитувчи кўплаб идиомаларни ҳосил қилади.Аммо бир мақола доирасида шева тили фразеологик бирликлари таркибидаги мазкур сонларнинг қўлланилишидаги барча хусусиятларини тадқиқ қилишнинг имкони йўқ.

Сон иштирок этган фразеологик бирликларни ўрганишда тадқиқ- қотимиз кўрсатадики, бу гуруҳдаги айрим фразеологик бирликлар кўп аъзоли фразеологизмларнинг бир қисми ҳисобланади. Масалан: **йак қадам ра(оҳ)** (яқин, узоқ эмас, ёнида) ; **йак бало када** (нимадир қилиб);**йак илоч када** (бир илож қилиб), **йак галайу бо пичй** (жуда кўп) , **йак сари қадам** (бир зумда, қисқа вақт оралиғида) ва ш.к[8:236-243].Баччем,то хони ак-ет-а **йак қадам ра(х)**,ҳамин сумк-еш-а бурда те.(Болам,акангнинг уйигача бир қадам.Шу сумкасини оббориб бер).Гир-етон,хўр-етон.Унча-ба бо **йак галайу бо пичй** гўшту мева(х)о а ма(ъ)рака зийотй кадагй(Олинглар,йенглар.У ёқда яна кўп гўшт билан мевалар маъракадан ортган).


Хулоса

Тожик тилининг Самарқанд шевасидаги сонли фразеологик бирликларни тадқиқ этишда **йак** сони кўпинча аниқ отларга нисбатан мавҳум отлар билан қўлланиши маълум бўлди. Шева тилида фразеологик бирликлар таркибида ўзлашган компонентлар фаол қўлланади (ҳам **йак** сони ҳам от). **Йак** сонли фразеологик бирликлар миқдори кам бўлса-да, шева тилида кенг қўлланилади. Сон компонент сифатида баъзан ўзининг тўғридан тўғри (миқдорий) маъносини йўқотиб, кўчма маъно ифодалайди. Лисоний материаллар таҳлили кўрсатадики, **йак** сони компонентли фразеологик бирликлар нафақат миқдорий маънони , балки ҳаракат образи ва вақтини ҳам ифодалаши мумкин.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Бехбуди Н. Говор Самаркандских таджиков: автореф... дис... канд... филол... наук. – М, 1956. – 22 с.
2. Гулямов Х. Некоторые вопросы диалектного взаимовлияния узбекского и таджикского языка. Языкознание. Тезисы, доклады и сообщений. – Ташкент: Фан, 1980. – с. 239-240.
3. Захидов А. Разговорная лексика таджикского литературного языка: Автореф... дис... канд... филол...наук: 10. 02. 22. – Душанбе, 1991.– 23 с.
4. Каримов Х. Дар бораи баъзе хусусиятҳои калимаи «як» Масъалаҳои забоншиносии тоҷик. Душанбе: Дониш, 1967. с. 20-29.
5. Маджидов Х. Фразеологическая система современного таджикского литературного языка / Х. Маджидов. Душанбе: Деваштич, 2006. 409 с.

6. Фарҳанги тоҷикӣ ба русӣ. Зери таҳрири Д.Саймидинов, С.Д.Холматова, С.Каримов. Душанбе, 2006. 784с.
7. Фозилов, М. Фарҳанги ибораҳои рехтаи забони адабии ҳозираи тоҷик. Ҷ.2 – Душанбе: Ирфон, 1964– 840 с.
8. Холов П. Баъзе хусусиятҳои семантикии фразеологизмҳои шеваи тоҷикони Самарқанд // Труды СамГУ им. А. Навои. Новая серия, вып.246. Вопросы семантики индоевропейских языков. –Самарқанд, 1973. –с. 236-243.
9. Шермухаммедов Б. ва дигарон. Афсонаҳои Самарқанд. – Душанбе: Ирфон, 1969– 301 с.
10. Шермухаммедов Б. ва дигарон. Таронаҳои Самарқанд. – Душанбе: Ирфон, 1973. –306 с.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Азимова Сайёра Хусанбоевна,

(PhD) Старший преподаватель,

Ферганский государственный университет

azimovasayyora38@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ТЕОРИИ ЯЗЫКА

<https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены пути и методы оценивания аутентических материалов в рамках лингвопрагматического подхода. Отмечено, что оценивание (assessment) в рамках лингвопрагматического подхода отличается от оценивания в рамках традиционной теории языка. В лингвопрагматическом подходе, оценивается, насколько правильно (appropriately) студент подобрал те или иные речевые акты, насколько он/она смог(ла) распознать социально-культурные особенности того или иного языка и как эти особенности повлияли на характер, тон, стилистику и грамматику коммуникации. Важным в оценивании лингвопрагматических способностей студентов является социальный контекст, в рамках которого происходит то или иное коммуникативное взаимодействие.

Ключевые слова: нелингвистические факторы, методы оценивания, коммуникация, социальный контекст, язык, феномен, опыт, иллокутивные акты.

Azimova Sayyora Khusanboevna,

(PhD) Senior Lecturer, Fergana State University

azimovasayyora38@gmail.com

LEARNING FOREIGN LANGUAGES USING A LINGUOPRAGMATIC APPROACH BASED ON COMMUNICATIVE THEORY OF LANGUAGE

ANNOTATION

This article discusses the ways and methods of evaluating authentic materials within the framework of the linguopragmatic approach. It is noted that assessment within the framework of the linguopragmatic approach differs from assessment within the framework of the traditional theory of language. In the linguopragmatic approach, it is assessed how correctly (appropriately) the student picked up certain speech acts, how much he/she was able to recognize the socio-cultural features of a particular language and how these features affected the character, tone, style and grammar of communication. Important in assessing the linguistic and pragmatic abilities of students is the social context within which this or that communicative interaction takes place.

Key words: non-linguistic factors, assessment methods, communication, social context, language, phenomenon, experience, illocutionary acts.

Азимова Сайёра Хусанбоевна,
 Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси (PhD)
 azimovasayyora38@gmail.com

ТИЛНИНГ КОММУНИКАТИВ НАЗАРИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЛИНГВОПРАГМАТИК ЁНДАШУВ ЁРДАМИДА ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада лингвопрагматик ёндашув доирасида аутентик материалларни баҳолаш усуллари муҳокама қилинади. Таъкидланишича, лингвопрагматик ёндашув доирасида баҳолаш анъанавий тил назарияси доирасидаги баҳолашдан фарқ қилади. Лингвопрагматик ёндашувда талаба муайян нутқ актларини қанчалик тўғри танлаганлиги, маълум бир тилнинг ижтимоий-маданий хусусиятларини қанчалик тан олганлиги ва бу хусусиятлар характерга, оҳангга, услубга қандай таъсир қилганлиги баҳоланади. Талабаларнинг лингвопрагматик қобилиятларини баҳолашда у ёки бу коммуникатив ўзаро таъсир содир бўладиган ижтимоий контекст муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: нолингвистик омиллар, баҳолаш усуллари, алоқа, ижтимоий контекст, тил, ҳодиса, тажриба, иллокацион ҳаракатлар.

Преподавание иностранных языков в рамках лингвопрагматического подхода рассматривает язык как комплексный феномен. Данное явление объясняется тем, что язык (формирование значения) можно понять только в общем социальном контексте. Достаточно вспомнить древнеиндийскую притчу «Слепые и слон». В притче рассказывается о том, что девять слепых мужчин стремятся узнать о слоне, которого никогда они не видели. Каждый слепой трогает одну часть тела слона. Затем каждый описывает слона на основе их ограниченного опыта. Тот, кто трогает ухо слона, думает, что слон похож на большой вентилятор. Тот, кто трогает хвост, описывает слона как веревку. Другой, потрогав хобот, думает, что слон - змея.

В лингвопрагматическом подходе выделяются такие понятия, как внимание (attention) и осознание (awareness). Внимание – это механизмы контроля доступа к осознанию. Внимание – это ограниченный ресурс когнитивного процесса человека. Оно также является селективным, так сказать внимание отбирает те или иные вещи и/или процессы по мере степени важности для когниции. Согласно этому понятию, те, кто изучают язык с точки зрения лингвопрагматического подхода, должны обращать свое внимание на факторы, которые контекстуализируют язык в том или ином социальном, культурном и эмоциональном контексте. Следовательно, инструкция преподавателя должна начинаться с объяснения целостного контекста, а не самого слова, предложения и/или текста, оторванного от подобного контекста. Данные контекстуальные факторы приведены внизу.

На примере речевого акта “выражение отказов”, инструкция в преподавании иностранных языков может иметь следующую форму.

Контекстуальные факторы	Социальный статус (н.п., возраст, гендерный фактор, социальная роль адресанта)	Социальная дистанция (социальная иерархия между адресантом и адресатом)	Степень необходимости отказа (насколько отказ оправдан в том или ином случае)
Диалог №1			
Аутентическая коммуникативная ситуация №1	Разговор между друзьями	Близкими	Отказ пойти в кино завтра

Диалог (русский)	Д1: Привет, давай завтра сходим в кино Д2: Извини, я не могу, на завтра у меня другие планы.		
Диалог (английский)	F1: Hi, let's go to the movie tomorrow F2: I am sorry, I can't.		
Диалог (узбекский)	Ў1: Яхшимисан, эртага кинога бормаймизми Ў2: Кечирасан, боролмайман.		
Диалог №2			
Аутентическая коммуникативная ситуация №2	Разговор между директором и подчиненным	Неблизкими	Отказ пойти на корпоративную вечеринку
Диалог (русский)	Д: Добрый день, вы пойдете сегодня на корпоративную вечеринку? П: К сожалению, я не могу, так как мой сын болен, и я должна быть дома пораньше.		
Диалог (английский)	D: Good afternoon, will you join us today E: Unfortunately, I cannot attend since my son is ill and I should be home early.		
Диалог (узбекский)	Д: Ассалому алайкум, бугун кечкурун тадбиримизга борасизми? Х: Минг бор узр! Ўғлим бетоб, шунинг учун мен уйга вақтлироқ боришим керак.		

Как видно из приведенных примеров, контекстуализация языка начинается с объяснения тех (нелингвистических) социальных факторов, которые играют важную роль в определении семантики, синтаксиса, грамматики и стилистики слова, предложения и текста. Обращение внимание на эти нелингвистические факторы в изучении иностранного языка происходит в рамках анализа конкретной аутентической коммуникативной ситуации (например, выражение отказов). Обучающиеся при этом понимают те социальные факторы, которые обеспечивают определенные правила (правила в контексте) для координации синтаксиса, семантики, грамматики и стилистики в выражении отказов. В примерах, приведенных выше, такие социальные факторы, как социальный статус, социальная дистанция и степень необходимости выражения отказа определяют то, какую синтаксическую структуру необходимо использовать в диалоге №1 и №2. Лингвистические факторы сами по себе не могут гарантировать релевантность их выбора.

Следовательно, изучение иностранного языка через анализ нелингвистических факторов является эффективным, так как он стимулирует у учащихся мышление и воображение относительно той или иной аутентической ситуации (коммуникативная теория языка). Данное мышление и воображение способствуют пониманию того, как язык (синтаксис, семантика, грамматика и стилистика) работает в той или иной конкретной аутентической ситуации. Привязка языка к реальности, которая обеспечивается лингвопрагматическим подходом, повышает эффективность понимания того, зачем нужна та или иная грамматическая категория.

Кроме этого, в анализе нелингвистических факторов важным являются «производительные» способности обучаемых, собственно говоря, насколько студенты самостоятельно могут генерировать аутентические коммуникативные ситуации, в рамках которых будет происходить обучение иностранному языку. Следовательно, возникает необходимость применения в классе таких интерактивных приемов, как ролевые игры (role play) и задача по формированию дискурса (discourse completion task). Применяя эти приемы на занятиях, студенты не только могут генерировать свои коммуникативные ситуации, но и высказывать свое мнение (рефлексия) в отношении тех коммуникативных ситуаций, которые

генерируются другими студентами (изучение языка через рефлексивную интеракцию). Таким образом, студенты начнут контролировать себя самостоятельно, проверять и дополнять друг друга (scaffolding) на основе той информации, которая исходит от партнера в процессе коммуникативной интеракции.

Акцентируя свое внимание на интеракцию с точки зрения аутентичности ситуации (нежели чем на индивида и его когнитивные способности) в изучении иностранных языков, лингвопрагматический подход делает упор на важность социальных и культурных аспектов изучаемого языка. Теория языковой социализации (Language socialization theory) рассматривает изучение иностранного языка как социально-обусловленный процесс, который происходит в том или ином лингвистическом сообществе (a speech act community). Студенты становятся компетентными с точки зрения прагматической компетенции по мере того, как они приобретут знания, поведенческие ориентиры и социально-разделяемые в том или ином сообществе поведения (social practices), которые, прежде всего, опосредованы изучаемым языком.

Студенты начнут использовать иностранный язык правильно с точки зрения социальных норм (а не только грамматики), когда они станут частью социально-ориентированных поведенческих норм того или иного сообщества (to experience local communicative orientations and practices). В этом контексте иностранный язык изучается не для изучения языка, а для использования в коммуникации (learning language for communicative purposes). Например, выразить отказ «я не смогу пойти в кино» другу без объяснения причин, в то время как подобный отказ директору со стороны подчиненного требует объяснения причины подобного отказа. Данную коммуникативную поведенческую практику можно узнать, только приняв участие в этом коммуникативном акте. Данный речевой акт, выраженный через язык (какая грамматика или синтаксис используется) покажет, как это делается в том или ином иноязычном сообществе. При этом язык выступает в качестве репрезентации тех или иных социальных поведенческих ориентиров.

Итак, лингвопрагматический подход в изучении иностранных языков требует от преподавателей организацию занятия для студентов таким образом, где они будут погружены в аутентический социальный контекст изучаемой коммуникативной ситуации. В этом отношении можно обсудить несколько приемов, которые будут использованы в развитии языковых навыков (receptive and productive skills) учащихся.

На практике прагматические и социолингвистические аспекты переплетаются друг с другом. Следовательно, в инструктировании студентов эти аспекты могут быть синхронизированы. В этом контексте студенты становятся исследователями, которые самостоятельно (через интервью, сбор материалов относительно аутентических коммуникативных ситуаций) изучают прагматические и социолингвистические аспекты языка. Данная самообразовательная работа включает такие этапы, как: -сбор и анализ аутентических материалов студентом; -воспроизводство (письменной и устной) речи студентом; -фидбек от других студентов и преподавателя. Ниже приводится пример относительно того, как организуется изучение иностранного языка в рамках лингвопрагматического подхода. Пример дается на основе анализа речевых актов выражение отказов.

В рамках коммуникативной теории языка также выделяются коммуникативные ассесменты, которые адекватно оценивают речевые акты, в частности выражение отказов. Лингвопрагматический подход определяет следующие критерии оценивания (assessment criteria) выражения отказов в аутентических коммуникативных ситуациях:

Критерии по лингвопрагматическому подходу при анализе выражения отказов	Оценка (соответствие/несоответствие принятым нормам)
Стиль языка (н.п. вежливость, тон, формальный)	-Очень соответствует -Соответствует

	-Мало соответствует -Не соответствует
Паралингвистические факторы (н.п. жесты, мимика, дистанция между адресантом и адресатом, визуальный контакт)	-Очень соответствует -Соответствует -Мало соответствует -Не соответствует
Использование коммуникативных стратегий при выражении отказов. В целом, к подобным стратегиям в английском, русском и узбекском языках относиться стратегия «сохранение лица» того, кто отказывает (the face-threatening nature of refusals). В узбекском языке это звучит таким образом: сўрагани бир юзи қора, бермагани (рад этгани) икки юзи қора. Данная стратегия используется для смягчения отказа. -английский: down graders (that sounds good but I don't really want...), downtoner (probably), tentativeness (thinking/I'm not really sure), non-present tense as a play-down (I've been thinking) (CARLA, 2020); -русский: довольно хорошая идея, но позвольте не соглашусь ..., возможно ..., я не уверен ..., и т.д.; -узбекский: яхши фикр айтилди, аммо..., биласизми, ..., эхтимол..., тўғри, лекин... .	-Очень соответствует -Соответствует -Мало соответствует -Не соответствует
Лингвистическая компетенция: использование грамматики в контексте, семантики в контексте, синтаксиса в контексте. То есть действительно ли люди так говорят в подобных аутентических коммуникативных ситуациях.	-Очень соответствует -Соответствует -Мало соответствует -Не соответствует
Оценка интенции (почему отказывает и как этот отказ кодируется через язык) адресанта и анализ интерпретации данной интенции со стороны адресата. Узбекские/русские студенты могут легко оценить подобную интенцию и интерпретацию между адресантом и адресатом на родном им языке. В отношении английского языка данные студенты могут иметь ограниченное знание. В этом случае им поможет анализ аутентических фильмов на английском.	-Очень соответствует -Соответствует -Мало соответствует -Не соответствует


В целом необходимо отметить, организация занятия по иностранным языкам (SLA classes) в рамках лингвопрагматического подхода подразумевает использование аутентических материалов, которые могут быть интегрированы в учебный процесс как со стороны студентов, так и преподавателя. Основной причиной необходимости использования аутентических материалов является отсутствие лингвопрагматического аспекта (социальные факторы, регистры, иллокутивные/перлокутивные акты, и другие нелингвистические структуры) в существующих учебниках.

В этом отношении, от преподавателя требуется организовать занятия таким образом (на основе лингвопрагматического подхода), чтобы данное занятие в основном фокусировало внимание студентов на обсуждение социальных факторов, регистров,

иллокутивных/перлокутивных актов и других нелингвистических структур, в рамках которых происходит коммуникативное действие.

Список использованной литературы

1. CARLA. Refusals: Functions and Classifications. Center for Advanced Research on Language Acquisition. – University of Minnesota, 2020.
<https://carla.umn.edu/speechacts/refusals/functions.html>.
2. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 116 p.
3. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 137 p.
4. Schmidt, R. Attention. In: P. Robinson (ed.). Cognition and second language instruction. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 2001. 3-32 pp.
5. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 102 pp.
6. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 105 p.
7. Lave J., and Wenger E. Situated learning: Legitimate peripheral participation. – Cambridge, England: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.
8. Vygotsky L. Mind in Society. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159.
9. Ishihara N. & Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 113 p.
10. Wang A. Refusal realization patterns in English and Chinese. Foreign Languages Teaching and Research, 3, 2001. – 174-240 pp.
11. Guo Y. Chinese and American Refusal Strategy: A Cross-cultural Approach. Theory and Practice in Language Studies, 2(2), 2012. – 247-256.
12. Joan Rubin How to tell someone is saying “No” revisited: National Inst, of Education (ED), Washington, DC. Publication Date June 1981. – 9.
13. Национальный корпус русского языка. <https://ruscorpora.ru/new/>.
14. Corpus of Contemporary American English. <https://www.english-corpora.org/coca/>.
15. British National Corpus. <https://www.english-corpora.org/bnc/>.



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Tair AkimovToshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Xitoy filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

XITOIY TILIDAGI IBORA, MAQOL VA MATALLARNING QIYOSI TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTASIYA

Maqolada xitoy tilidagi ibora, maqola va matallarni qiyosiy tahlil qilishga harakat qilindi. Badiiy adabiyotni, xalq og'zaki ijodini frazeologik birliklar, maqol va matallarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Nutqning go'zalligi, mazmunning serjiloligi, til boyligi, ko'proq barqaror iboralarda namoyon bo'ladi. Har bir so'zning ma'nosi aniq bo'lsa-da, yaxlit holatida tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ular so'zma-so'z tarjima qilinsa, ibora, maqol va matallardan ko'zlangan ma'no chiqmay qoladi, shuning uchun lug'atlarga murojaat qilishga majburmiz. Xitoy tilidagi turg'un iboralar har xil mavzularni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, mehnatkashlarning halol mehnati ardoqlansa, dangasalik qilishning yomon oqibatlari qamchilanadi. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, iboralar qatlamining boyligi bilan o'lchanadi.

Kalit so'zlar: mehnatkashlik, dangasalik, och ko'zlik, sadoqatlik, mehribonlik, ayyorlik, axmoqlik.

Акимов ТаирPhD, Старший преподаватель кафедры китайской филологии
Ташкентского государственного университета Востоковедения

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КИТАЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведён сравнительный анализ фразеологических словосочетаний, пословиц и поговорок на китайском языке. Художественную литературу и устное народное творчество невозможно представить без фразеологизмов, пословиц и поговорок. Красота речи, богатство языка проявляются в более устойчивых выражениях. Хотя значение каждого слова понятна, мы сталкиваемся с трудностями при его переводе в целом. Когда они переводятся дословно, из словосочетаний, пословиц и поговорок не выходит намеченный смысл, поэтому мы вынуждены обращаться к словарям. Китайские пословицы затрагивают самые разные темы, такие как почитание честного труда трудолюбивых и порицание за пагубные последствия лени. Языковое богатство народа измеряется богатством его красочного лексикона.

Ключевые слова: трудолюбие, лень, жадность, верность, доброта, хитрость, глупость.

Tair Akimov

PhD, Senior Lecturer of the Chinese Philology Department
of Tashkent State University of Oriental Studies
Akimov.t@mail.ru

COMPARATIVE ANALYSIS OF CHINESE PHRASEOLOGICAL UNITS, PROVERBS AND SAYINGS

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of phraseological collocations, proverbs, and sayings in the Chinese language. Literature and folklore cannot be imagined without proverbs and sayings. The beauty of speech and the wealth of language is manifested in more stable expressions. Although the meaning of each word is clear, we find it difficult to translate it as a whole. When proverbs and sayings are translated verbatim, their real meanings do not reveal, so we have to resort to dictionaries. Chinese proverbs deal with a variety of topics, such as honoring the honest work of the industrious and rebuking the pernicious effects of laziness. The nation's linguistic wealth is measured by the richness of its colorful vocabulary.

Key words: industriousness, laziness, greed, loyalty, kindness, cunning, stupidity.

Maqol va matallar – xalq og‘zaki adabiyotining muhim janrlaridan biri bo‘lib, xalqning uzoq vaqt tarixiy kurashi, madaniyati, xalq hayoti tajribalarining ixcham yakuni, shuningdek avlod-ajdotlarimizning aql-farosatining javharidir. U ixcham, jonli, falsafiy chuqur mazmun, tarbiyaviy ahamiyati kuchlik bo‘lgan ma'lum shaklga ega turg‘unlashgan so‘z birikmalaridir. Har qanday kishi o‘z fikrning ta’sir qilish kuchini oshirish, o‘z maqsadini to‘g‘ri, aniq o‘z joyida ifodalash uchun maqol-matallarga murojaft qiladi. Mayli og‘zaki tilda bo‘lsin, mayli yozma tilda bo‘lsin biz undan ayrila olmaymiz. Joyida qo‘lanilgan maqol-matallar tilimizga bir sehrli kuch bag‘ishlab, tilning ifodalash kuchi va badiyligini oshiradi. Xitoy tili maqol-matallarga juda boy til bo‘lib, qadim zamonlardan boshlab, xalq orasiga keng tarqalib, sayqallanib, avloddan-avlodga o‘tib, davom etib kelmoqda. Biz xitoy tilidagi maqol-matallarni o‘rganish orqalik xan millatining urf-odatlarini, madaniyatini, mentalitetini o‘rganishimiz mumkin. Maqolada xitoycha ibora, maqol va matallarning o‘zbekcha muqobili « » ichida berildi.

Tilshunos olimlarning fikricha, inson o‘z nutqida 800ga yaqin frazeologizm, maqol, matal yoki aforizmlardan u yoki bu darajada foydalanadi.

Tilshunos olimlar, o‘qituvchilar, siyosatshunoslar, ishchilar, dehqonlar barcha kasb sohalari muloqot jaryonida istasin, istamasin iboralardan, maqol-matallardan foydalanib kelmoqda.

Maqol va matallar kishilar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalaydi. Tilda maqol va matallarning qanchalik ko‘p bo‘lishi o’sha til imkoniyatlarining kengligidan dalolatdir. Tildagi iboralarni muayyan lahzada so‘zlovchi tarafidan mohirona aytiluvchi fikr, deyish mumkin.

Bu maqolada xitoy tilidagi “yurak” somasi bilan keladigan maqollarda ilohiyatga bog‘liq tomonlari ham o‘rganildi.

汉语大词典 hànyǔ dà cídiǎn («Xitoy tili katta lug‘ati»)da, 心 xīn «yurak»ning 13 ta ma’nosi borligi qayd etilgan: (1) yurak; (2) odam va hayvonlarning qon aylantirish organi; (3) xarakter; (4) fikrlash organi; (5) fikr, g‘oya, his-tuyg‘u; (6) o‘ylamoq, rejalashtirmoq; (7) g‘amxo‘rliq qilmoq; (8) daraxt va gullarning kurtaklari; (9) markaz, o‘rta; (10) sub’ektiv ong; (11) ko‘ngil, kayfiyat, ruh, hissiyot; (12) ong; (13) 28ta yulduz nomlaridan biri.

Chang Jingyuning (2009) «汉语词汇文化 Xitoy tilining lug‘at madaniyati» asarida «yurak» so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: «Qadimda xitoyliklar 心主神 xīn zhǔ shén – «qalb ilohi», unda insonning fikr qilish va ruhiy faoliyatini nazorat qilish qobiliyati mavjud deb hisoblashgan». Xitoyliklarda qalbingga quloq sol, qalbing nima desa, o‘shani qil, «qalb» – iloh, shuning uchun adashmaysan, Olloh o‘zi yo‘l ko‘rsatadi degan ma’nolarda qarashlar mavjud.

孟子 • 告子 Mengzi, Gaozilarning aytishicha: «心为思官 Yurak qalbning hukmdori». Bu shuni ko‘rsatadiki, qadimda xitoyliklar ko‘pincha yurakni insonning fikrlash organi deb bilishgan.

Shuningdek, insonning fikrlash faoliyati va hissiyoti o'zgarishidagi yashirin tuyg'uni ajratib bo'lmaydi. Biroq hissiyotning o'zgarishi yurak urish harakatlariga bog'liq bo'libgina qolmay, inson psixologiyasi bilan aloqador. Shuning uchun yurak degan tushunchada insonning hissiyotlari mujassamdir. Yurak, iloh, mehr an'anaviy tushuncha bo'lib, ularda xitoy xalqining milliy mentaliteti jamlangan».

扪心自问 mén xīn zì wèn - yuragidan so'ramoq «do'ppini oldiga qo'yib o'ylamoq».

问心无愧 wèn xīn wú kuì - yurakdan so'rasa shayton yo'q dedi «sof vijdon; vijdoni qabul qilmoq; xijolat bo'lmaslik».

问心有愧 wèn xīn yǒu kuì - yurakdan so'rasa, shayton bor dedi «vijdon azoblanmoq; xijolat bo'lmoq». Xitoyliklar hozirgi kunda dinga ishonishmaydi, ammo ular oldinlari dinga ishonganligi uchun iboralarda budda, ma'buda, shayton so'zlari ishtrokida shakllangan iboralar ko'p uchrab turadi.

Ning Yu «The Chinese HEART in a Cognitive Perspective: Culture, Body». «Xitoy tilidagi yurak so'zining kognitiv xususiyatlari: madaniyat, tana a'zolari» nomli kitobida xitoy tilidagi yurak komponentli frazeologizmlar va yurak tushunchasining ko'p qirrali tomonlari ochib berilgan hamda yurak bilan bog'liq iboralarda xan millatining xarakteri, urf – odatlari, madaniyatlari singganligini bayon qilgan.

菩萨低眉 púsà dī méi - ma'buda pastga qarab turadi «mehribonlik».

蛇心佛口 shé xīn fó kǒu - ilonning yuragi buddaning og'zi «tili shakar, dili zahar».

口服心不服 kǒu fú xīn bù fú - og'zida xo'p, yurakda yo'q «og'zida xo'p, amalda yo'q».

可是人家是口服心不服, 对杨伯安他们总是耿耿于怀 Kěshì rénjiā shì kǒufú xīn bùfú, duì Yáng Bóān tāmen zǒngshì gěng gěng yú huái - Lekin boshqalar og'zida xo'p-xo'p degani bilan amalda yo'q, Yan Bo'anga ular doim yomon munosabatda bo'lishadi.

苦口婆心 kǔ kǒu pó xīn - tili achchiq, qaynonaning yuragi «jon kuydirmoq; kuyinmoq; samimiy maslahat bermoq».

心狠手辣 xīn láng shǒu là - yuragi bo'ri, qo'li achchiq «qattiq qo'l».

不要说我心狠手辣, 不要说我惨无人道 Bú yào shuō wǒ xīn hěn shǒu là, bú yào shuō wǒ cǎn wú rén dào - Meni qattiq qo'l, vahshiy demanglar.

心软没有裤子穿 xīn ruǎn méi yǒu kù zi chuān - ko'ngilchanning kiyishga

ishtoni yo'q «Ma sanga ma sanga, nima koldi Xasanga; ko'ngli bo'shning o'zi bo'sh».

心问口, 口问心 xīn wèn kǒu, kǒu wèn xīn - yurak og'izdan so'rasa, og'iz yurakdan so'raydi «qaytadan o'ylab ko'rmoq; yaxshilab o'ylamoq».

心问口, 口问心, 我事打算良久 xīn wèn kǒu, kǒu wèn xīn, wǒshì dǎsuàn liáng jiǔ - Yurak og'izdan so'rasa, og'iz yurakdan so'rasa, mening ishim uzoq vaqtga cho'zilarkanda.

心地纯洁 xīn dì chún jié - oq ko'ngil.

居心不良 jū xīn bù liáng - ko'nglida kiri bor.

H.Hamidov turk tilidagi hayvonot dunyosi bilan bog'liq frazeologizmlar haqida quyidagi fikrni bildirgan: «frazologik birikma qaysi mavzuda bo'lmasin, hamisha uning negizida inson va uning harakat-holatiga ishora yotadi. Hayvonot olami bilan bog'liq frazeologizmlarda hayvonlar nomi bo'ladimi, ularning xatti-harakatimi yoki tashqi ko'rinishimi, baribir, ularda inson tabiati, kechinmasi va unga xos xususiyatlar ifoda etiladi».

山中无老虎, 猴子称大王 shān zhōng wú lǎohǔ, hóuzi chēng dàwáng - Tog'da yo'lbars bo'lmasa, maymun podishoh.

挂羊头卖狗肉 guà yáng tóu mài gǒu ròu - qo'yning kallasini osib qo'yib, itning go'shtini sotmoq «ayyorlik qilmoq».

Xitoy tilida bo'ri ishtrokidagi iboralar asosan salbiy ma'nolarni ifodalab keladi.

狼心狗肺 láng xīn gǒu fèi - bo'ruining yuragi, itning o'pkasi «ichi yomon; niyati yomon; vafosiz».

狮子大开口 shī zǐ dà kāi kǒu – og‘zini sher og‘zidek katta ochmoq «narxni baland aytmoq; xasis, ziqla».

打马虎眼 dǎ mǎ hǔ yǎn – otni yo‘lbarsning ko‘z oldida urmoq «ayyorlik qilmoq; qo‘rqitmoq; qizim senga aytay, kelinim sen eshit».

驴头伸进奶桶里 lǔtóu shēn jìn nǎitǒng lǐ – eshakning boshi sut idishiga kirdi «ish qilmay ovqatlanmoq; tekinga ovqatlanmoq; dangasa».

驴子的脸儿 lúzi de liǎn ér – eshakning yuzi «yuzsiz; uyatsiz».

Eshak so‘zi bilan kelgan xitoycha iboralarida asosan salbiy ma’nolarni ifodalab keladi.

Har bir millatning yashayotgan hudidagi daryo, tog‘, o‘simliklari ham iboralarida aks etgan bo‘ladi. Xitoyning ikkita katta daryosi “sariq, yanzi” nomlari ishtrok etgan maqollar ham shakllangan.

5464 kilometrlik Sariq daryo xan millatining ona daryosi hisoblanadi.

不到黄河心不死 bú dào huánghé xīn bù sǐ – Sariq daryoga bormaguncha, ko‘ngli tinim topmaydi «burniga yemaguncha tinim topmaydi».

你这是不到黄河心不死! 算了算了,先去医务室吧! Nǐ zhèshì bú dào huánghé xīn bù sǐ! suànle suànle, xiān qù yīwùshì ba! – Sening peshonang urilmaguncha, ko‘zing ochilmaydi, bo‘ldi qil, avval, shifoxonaga boraylik!

Ushbu ibora uzunligi 6380km keladigan Yanzi daryosi nomi bilan ham aytiladi.

不到乌江不尽头 bú dào wūjiāng bù jìn tóu – boshi Yanzi daryosiga bormaguncha bilmas «burniga yemaguncha tinim topmaydi».

Bambuk pandalarning ozuqasi bo‘lib, u faqat Xitoyda o‘sadi. Xitoy tilida bambuk ishtrokida shakllangan iboralar talaygina.

胸有成竹 xiōng yǒu chéng zhú – ko‘kragida bambuk bor «diliga tugib qo‘ygan rejasi bor».

Xitoy va o‘zbek i tillarda shakl va mazmun jihatidan bir-biriga juda o‘xshash, bir-biriga mos tushadigan maqol-matallar uchraydi. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa tushunarli bo‘ladi.

隔墙有耳 gé qiáng yǒu ěr – devorning ham qulog‘i bor.

趁热打铁 chèn rè dǎ tiě – temirni qizig‘ida bos.

火上浇油 huǒ shàng jiāo yóu – olovga moy sepmoq «yarasiga tuz sepmoq».

秋后算账 qiū hòu suànzàng – kuzda hisoblamok «jujani kuzda sanamok».

盖房无房 gài fang wú fang zhù –uy quruvchining uyi yo‘q «bo‘zchi belboqqa yolchimas,temirchi – to‘qaga».

远亲不如近邻 yuǎn qīn bùrú jìn lín – uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo‘shni yaxshi.

河和山难见面,人和人会相逢 hé hé shān nán jiànmiàn, rén hé rén huì xiāngféng – Tog‘ tog‘bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar.

脸歪不能怪镜子 liǎn wāi bù néng guài jìngzi – Afting qiyshiq bo‘lsa, oynadan o‘pkalama;睡不着怨枕头 shuì bùzháo yuàn zhěntou – Uxlay olmasa, yostiqni ayiblamok.

说出话,射出的箭 shuō chū huà, shè chū de jiàn – aytilgan so‘z-otilgan o‘q.

铁石心肠 tiě shí xīncháng – temir va tosh kabi qattiq yurak «bag‘ritosh».

活到老,学到老 huó dào lǎo, xué dào lǎo – qancha yashasang, shuncha ilm ol «beshikdan qabrigacha ilm izla».

种瓜得瓜,种豆得豆 zhòng guā dé guā, zhòng dòu dé dòu – qovoq eksang qovoq olasan, mosh eksang mosh olasan «nima eksang shuni olasan».

耳报神 ěr bào shén – quloq arvoqqa xabar beradi «quloq».

Bu ibora xitoy tilida uchta so‘zdan shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tilida bitta so‘z bilan aytiladi. «Quloq» iborasi sotqinlik qiladigan, gap tashiydigan, yaqinlari ichida yurib, yaqinlarining sirini sotadigan xoinlarga nisbatan aytiladi.

天上无路,入地无门 tiānshàng wú lù, rùdì wú mén – osmonga chiqay desam yo‘l yo‘q, yerga kiray desam eshik yo‘q.

Bu maqolaning bir qancha muqobillari bor: «Osmon yiroq, yer qattiq; o‘lay desam, jon totliq; ko‘kka boqsam, ko‘k yiroq, yerga boqsam, yer qattiq; kirarga yer qattiq, qiyarga jon totliq; o‘lay desam, o‘lolmayman, tirk go‘rga kirolmayman». Bu maqollar haddan tashqari og‘ir ahvolga, noiloj holatga tushib qolgan kishilar tomonidan aytiladi.

饱汉不知饿汉饥 bǎo hàn bù zhī è hàn jī; 饱人不知饿人饥 bǎo rén bùzhī è rén jī – qorni to‘qning qorni och bilan nima ishi bor; ochning dardini to‘q bilmas.

«Boylar va amaldorlar moddiy jihatdan ortib-tortib yotsalar ham, kambag‘al beva-becholarga, och-yalang‘ochlarga yordam qo‘lini cho‘zmaydilar, ularning o‘lgan-tirilgani bilan ishlari ham bo‘lmaydi, parvo ham qilmaydilar», degan ma’noda aytiluvchi mazkur maqolaning quyidagi variantlari ham bor: «Qorni ochdan qorni to‘qning ne parvoyi bor?!»; «och qayg‘usini to‘q bilmas»; «och qadrini to‘q bilmas, og‘riq qadrini sog‘ bilmas»; «xo‘jamizning qorni to‘q, quli bilan ishi yo‘q»; «qorni to‘q bola, qorni och bola bilan o‘ynamas».

三个和尚没有喝水 sān gè héshang méi yǒu hē shuǐ – Uch rohibning ichishga suvi yo‘q «san solor, man solor otga bedani kim solar».

Bu maqolaning kelib chiqish hikoyasi quyidagacha: Tog‘ning tepasidagi kichkina ibodatxonada bir kichik rohib yashar ekan, tog‘ning pastida kichik bir daryo oqar edi, kichik rohib doim o‘zi suv tashib ichar ekan. Baxtiga, bu ibodatxona bo‘sh bo‘lib, oshxonada suv idishi, chelak, obkash, tova, cho‘mich, piyola va 筷子 tayoqchalar bo‘lib, ishlatishga deyarli hamma narsalar bor ekan.

Bir necha kun o‘tgach, bu yerdan ozg‘in bir rohib o‘tib ketayotib, bu guzal manzarani ko‘rib shunday deb o‘ylabdi: bu yer tog‘lar va suvlari bor yaxshi joy ekan, shu yerda qolsam bo‘lar ekan! Shu payt suv olib kelishga chiqqan kichkina rohibni ko‘rib qolibdii.

“Salom, kichik janob!”

“Salom, ozg‘in janob!”

“Men ham shu yerda yashasam... maylimi?”

“Albatta, bo‘ladi, joy yetadi. Menga ham bir sherik bo‘lgani yaxshi.”

“Unda siz borib, menga ichish uchun suv olib keling.”

Buni eshitgan kich rohibning tepa sochi tikka bo‘ldi. “Men suv tashiyman-u, siz suv ichasiz, ho! Qani bu yerda mantiq, suv ichishni xohlasangiz unda o‘zingiz tashing!”

“Buni qara... men bir kun yo‘l yurdim, men juda charchaganman.”

“Agar siz suv ichmoqchi bo‘lsangiz, tashish uchun menga aytishingiz kerakmi?”

“Hay! Men suvni bir o‘zim ichmaymanku, siz suv olib kelsangiz, biz ikkalamiz ham ichamizku!”

Ular baqirishib, janjallashishdi va oxir oqibat ikkalasi suv tashish uchun tog‘dan pastga tushishdi. Bir necha kundan so‘ng, semiz rohib shu yerdan o‘tib ketayotib, bu joyning ajoyib manzarasini ko‘rdi, shuning uchun ibodatxona darvozasi oldiga keldi va tasodifan kichik rohib va chelakni ko‘tarib chiqqan ozg‘in rohib bilan to‘qnashib qoldi.

“Salom ikki janob!”

“Salom semiz janob!”

“Bizlar uchta bo‘lib yashasak bo‘ladimi?”

“Bo‘ladi!”

“Men juda charchadim va chanqadim. Iltimos, ikkalangiz borib suv olib kelinglar!”

Kichkina rohib va ozg‘in rohib bu gapni eshitib, ularning yuzlari bujmayib ketdi, chelakni “BAM” qilib chetga surib qo‘yishdi va kichik rohib: “Siz suv ichmoqchi bo‘lsangiz o‘zingiz suv tashing.. yoki ozg‘in janob bilan olib kelishingiz mumkin” dedi.

Ozg‘in janob: “Nega men tashiyman, kichik janob, iltimos, semiz janob bilan borib tashinglar” dedi.

Uch rohib yana janjallashishdi. Ularning barchalari chanqagan edi, lekin hech kim suv tashimadi va san solor, man solorlik qilib, hech kim suv olib kelmadi. Ular qoshlarini chimirishdi, ko‘zlarini piriqtirishdi va o‘sha yerda xuddi shunday qimirlamasdan o‘tirishdi.

Kichik rohib va ozg‘in rohib o‘zaro o‘ylashdi: semiz rohib, albatta chanqoqqa chiday olmaydi va o‘zi suv olib kelishga boradi.

Ammo semiz rohib o‘yladi: Kichik rohib, ozg‘in rohib, sizlar o‘zlarinigiz chanqab suv olib kelishlaringni kutaman. Ha... Albatta suv olib kelish uchun turasizlar.

Qorong‘i tushguncha kutishdi, hech kim o‘rnidan turmadi, ular ko‘z qovoqlarini yumib uxlab qolishdi.

Shu paytda kichkina sichqoncha inidan chiqib, yugurib bordi va stolda yonib turgan shamni ko‘rdi va xayolida xursand bo‘ldi “xi,xi, sham bu yog‘, men uni yeyishni yaxshi ko‘raman” dedi.

U stolga tirmashib chiqib, shamni kemirdi, e‘tibor bermasdan shamlarni ag‘darib tashladi, natijada mash‘ala yonidagi mato pardasi yonib ketdi va olov alanganib ketdi.

“Voy dod, yong‘in !!!” Kichik rohib issiqdan uyg‘onib ketdi, olovni ko‘rib qo‘rqib baqirib o‘rnidan turib ketdi!

Boshqa ikki rohiblar ko‘zlarini ochib qarasa alanga allaqachon tomga yopishganini ko‘rishdi, ular juda xavotirlanib, tezda chelaklar va cho‘michlarni ko‘tarib, tog‘dan pastga tushib, yong‘inni o‘chirish uchun suv tashishdi, suv sepishdi. Yong‘inni o‘chirish oson bo‘lmadi.

Kichkina rohib: “Qanday xavf, agar biz hammamiz olovni o‘chirmaganimizda biz shu ibodatxona bilan birga yonib ketardik”, dedi.

Biroq, ular anchadan beri suv ichishmagandi va olovni o‘chirishganda esa bundanda kuchliroq chanqashgandi. Endi nima qilishadi?

Uch rohib navbatma-navbat suv olib kelishga kelishib olishdi, keyinchalik, ibodatxonadagi suv idishlarida suv endi hech qachon qurib qolmaydigan bo‘ldi va ular endi hech qachon suv yo‘qligi sababli janjallashishmaydigan bo‘lishibdi. Shundan so‘ng 三个和尚没有喝水 sān gè héshang méi yǒu hē shuǐ – **Uch rohibning ichishga suvi yo‘q** so‘z birikmasi xitoy xalqi ichida sen solarlik qilmoq ma‘nosida qo‘llaniladigan maqolaga aylanib qolgan ekan.

“San – solor, man – solor, otga bedani kim solar?!” O‘zbek tilidagi bu maqolning ma‘nosini ko‘pchilik tushunsa ham, maqoldagi **“solor”** degan so‘zning ma‘nosini bilishmaydi.

Bu maqolaning kelib chiqishi quyidagi hikoya bilan bog‘liq: «Xonlar zamonida ikki sipoh-solor(askar boshlig‘i) bo‘lgan ekan. Ittifoqo ular yigitsiz (ya‘ni, ad‘yutantsiz) safarga chiqqanlar (odatda solorlar «yigitsiz» yurmas edilar). Bir manzilga yetib kelgach, tushlanmoqchi bo‘ladilar. Har ikkisi qanjig‘asidan pishirilgan ovqatlarni, nonlarni o‘rtaga qo‘yib, yeyaboshlagan. Qorinlari to‘ygach, yonboshlab, u yoq-bu yoqdan gaplashib yotishgan. Bir mahal otlarining och qolgani eslariga tushib qoladi. Hozir yo‘lga tushishlari kerak. Otlarga xashak solmasa bo‘lmaydi. Lekin kim soladi? Ikkovi ham askar boshlig‘i – huquqi bir. Ular sipohilik qilib, jim o‘tiraverganlar. Agar yigitlari bo‘lganda, odatlari bo‘yicha: «Tur otga cho‘p(beda, xashak) sol!» deb buyruq berardilar. Endi otga cho‘pni kim soladi? Axiri bittasi chidayolmay, hamrohiga: «San(sen) – solor, man solor?!» degan... «Bu gap xalqimiz o‘rtasida maqolga aylanib ketgan. Agar ikki kishi manmanlikni tashlamay, «Men falonchi bo‘laturib shuni qilamanmi?!» desa, ishlar «sansolorlik»da qolib ketadi. Mana shundaylarga yuqoridagi maqolani ishlatadilar yoki qisqacha qilib: «San solor, man solor qilmalaring!» deb qo‘yadilar. «Siz turibsiz tikkayib, biz turibmiz tikkayib, yerga tushgan qamchini, kim oladi enkayib?!» degan maqolni ham sipoyi man-man, bir ishga bo‘yin yor bermaydigan, bir ishga darrov egilib-bukilib, qovushib keta qolmaydigan, «do‘ppisi yerga tushsa, pul berib oldiradigan» odamlarga nisbatan istehzo va kinoya tarzida qo‘llaydilar.

一个鸡蛋，鸡蛋一个 yí gè jīdàn, jīdàn yí gè – bitta tuxum, tuxum bitta «Alixo‘ja-Xo‘jaali».

乌纱帽没了 wūshā mào méi le – amaldorning qolpog‘i yo‘q «amaldan tushmoq; otdan tushmoq».

自食其力 zì shí qí lì – o‘z ovqatini o‘z kuchigi tayanip yemoq «o‘z aravasini o‘zi tortmoq».

他很小就自食其力了 Tā hěn xiǎo jiù zì shí qí lì le – U yoshligidan o‘z kuchiga tayanib yashaydi.

深思熟虑 shēn sī shú lǜ – chuqur o‘ylamoq; 三思而后行 sān sī ér hòu xíng – uch o‘ylab, keyin yurmoq «yetti o‘lchab, bir kes; avval o‘yla, keyin so‘yla». Ingliz tilida: «look before you leap» – sakrashdan oldin qara.

铁树开花 tiě shù kāi huā – temir daraxt gullaganda «tuyaning dumi yerga tekkanda». Bu iborada umuman bo‘lmaydigan, amalga oshmaydigan ishlar nazarda tutiladi.

Xitoy tilida 牛头不对马嘴 niú tóu bú duì mǎ zuǐ – sigirning boshi otning og‘ziga to‘g‘ri kelmabdi yoki 驴唇不对马嘴 lǘ chún bú duì mǎ zuǐ – otning jugani eshakka to‘g‘ri kelmabdi iborasiga o‘zbek tilidagi «bog‘dan so‘rasa, tog‘dan javob bermoq», «men Ali desam, sen Vali deysan» iborasi muqobil variant bo‘la oladi. Bu ibora biror narsani so‘rasa, beparvolik qilib, umuman boshqa narsaga javob beradigan befahm va mavzuga to‘g‘ri kelmaydigan gaplarni gapiradigan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

人心不足蛇吞象 rén xīn bùzú shé tūn xiàng – ilon filni yutib yuborsa ham qanoatlanmaganday, inson ham to‘ymaydi «o‘zi to‘ysa ham ko‘zi to‘ymas; och ko‘z».

养坏人，不如养好狗 yǎng huàirén, bùrú yǎng hǎo gǒu – yomon odamni boqquncha, itni boqqan yaxshiroq «odam bolasini boqsang og‘iz burningni qon etar, hayvon bolasini boksang og‘iz burningni yog‘ etar».

白猫黑猫，抓到老鼠就是好猫 bái māo hēi māo, zhuādào lǎoshǔ jiùshì hǎo māo – oq mushuk bo‘lsin, qora mushuk bo‘lsin, sichqon ushlasa o‘sha yaxshi mushuk.

Xitoyning siyosat arbobi Deng Shiaoping tomonidan 1960-yillarida qo‘llanilgan siyosiy maqol hisoblanadi.

Ba‘zibir iboralarni tarjima qilganda ehtiyotkorlik bilan yondoshmoq lozim. Masalan: o‘zbek tilidagi «jannat onalarning oyoqlari ostidadir» iborasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilsak, xitoyliklar onaga nisbatan hurmatsizlik deb tushunishadi. Shuning uchun o‘zbek tilidagi «oyoq» so‘zini xitoy tilidagi «tizza» so‘ziga almashtirib bersak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sabab, farzand uchun onaning tizzasi jannat bo‘lib, bola erkalanadi, ovqatlanadi va mehr oladi. Shuning uchun o‘zbek tilidagi «oyoq» so‘zini xitoy tilidagi «tizza» so‘zi bilan berilsa nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. 天堂是母亲的膝下 tiāntáng shì mǔqīn de xī xià – Jannat onalarning tizzasida.

Bu ibora xitoy tilidagi 承欢膝下 chéng huān xī xià iborasiga yaqinroqdir. Shuning uchun ba‘zibir iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilganda har ikki millatning mentalitetiga, urf-odatlariga, tilning nozik tomonlariga ham e‘tibor bermog‘imiz lozim.

守口如瓶 shǒu kǒu rú píng – og‘izni butilkaning og‘zini yopganday yopmoq «og‘zini yummoq; sir saqlamoq».

说曹操，就曹操到 shuō Cáocāo, Cáocāo jiù dào – Saosao ni gapirib tursang, Saosao yetib keladi. O‘zbek tilidagi muqobili: «Eshakni eslasang, qulog‘i ko‘rinadi»; «bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi».

«Eshakka kuching yetmasa, ur to‘qimini» degan iboraning xitoycha ekvivalenti 打不动牛打车 dǎ bú dòng niú dǎ chē – sigirni urib yurgaza olmasang, ur aravani. Yoki o‘zbek tilida «Otiga kuchi yetmagan shotini tepkilaydi» – Bu ibora majoziy ma’noda o‘zidan zo‘rlarga gapini o‘tkaza olmagan, ulardan gap eshitgan yo zarba yegan kishi buning alamini o‘zidan kichik, ojiz bo‘lgan odamlardan olsa, ularning aybi bo‘lmasa ham so‘ksa, koyisa, ursa achchiq kinoya tarzida qo‘llaydilar. Xitoyliklar tirikchilik qilganda sigirdan ko‘proq foydalangan bo‘lsa, turkiylar eshakdan foydalanishgan va ularning xulq-atvorini yaxshi bilganliklari tufayli xalq orasida shunday iboralar shakllangan.

Milliy o‘ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamaları tushuniladi. Kiyim-kechaklar, oziq-ovqat, udumlar, urf-odatlar va hokazolar ham milliy komponentlar jumlasiga kiradi. Misol:

黄袍加身 huáng páo jiā shēn – sariq choponni kiydirmoq «suiqasdlik yo‘li bilan taxtga o‘tirmoq».

铁公鸡一毛不拔 tiě gōngjī yì máo bù bá – Temir xo‘roz bitta patini ham bermaydi «pismi».

三十年河东，三十年河西 sānshí nián hé dōng, sānshí nián hé xī – daryo o‘ttiz yil sharqqa oqsa, o‘ttiz yil g‘arbga oqadi «Oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘».

竹门对竹门，木门对木门 zhú mén duì zhú mén, mù mén duì mù mén – bambuk eshikka bambuk eshik, yog‘och eshikka yog‘och eshik to‘g‘ri kelar «Boyning qiziga boy xaridor, kambag‘alning qiziga kambag‘al xaridor».

杀鸡骇猴 shā jī hài hóu – tovuqni o‘ldirib maymunni qo‘rqitmoq «qizim sanga aytay, kelinim san eshit».

守株待兔 shǒu zhū dài tù – quyonning kelishini poylamoq «Olma pish-og‘zimga tush».


情人眼里出西施 qíngrén yǎn lǐ chū xīshī – muhabbatga Shishining ko‘zi bilan qaramoq «Go‘zal go‘zal emas, sevgan go‘zal».

百闻不如一见 bǎi wén bùrú yí jiàn – yuz marta hidlagandan, bir marta ko‘rgan yaxshiroq «yuz marta eshtigandan, bir marta ko‘gan yaxshiroq».

Xullas, xitoy tilidagi ibora, maqol va matallar rang – barang bo‘lib, har xil mavzularda shakllangan. Xan millatining ota-onaga bo‘lgan hurmati, mehnatkashlik, dehqonchilik, irim-sirimlari, urf-odatlar, madaniyati, mentaletite aks etkandir. Ularda yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, rostgo‘ylik bilan yolg‘ onchilik, adolatlik bilan adolatsizlik kabi insonga xos xususiyatlar ko‘ pincha taqqoslab ifodalanadi. Hayvonlar nomlari ishtirok etgan iboralar insonlarning xarakteriga taqqoslanadi va ularning botirligi, qo‘rqaqligi, ayyorligi, mehnatkashligi, dangasaligi yorqin ifodalangandir. Xitoyliklar idrok etish, fikrlash, his qilish, sezish, buyruq berish, aql bilan ish ko‘rishning barchasi yurak amri bilan amalga oshadi deb hisoblashadi. Bu esa xitoy tilidagi yurak komponentli iboralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Turgu‘n birikmalar xitoy til va adabiyotini rivojlantirishda, boyitishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Berdiyarov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. – B. 3
2. M. Sodiqo‘va qisqacha o‘zbekcha – ruscha maqol matallar lug‘ati. Toshkent «O‘qituvchi».1993. 93 bet
3. Sh.Shomaqsudov. Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. Toshkent – 1990. 362-bet
4. Hamidov X.X. Turk tilidagi xayvonot dunyosi bilan bog‘liq frazeologizmlar. // Sharqshunoslik ToshDSH, 2002, 2 son. – B.20
5. Ning Yu. The Chinese HEART in a Cognitive Perspective: Culture, Body. –New York, 2009. – 487 6
6. 陈君慧. 谚语大全. 北方文艺出版社. 2013 年. 627 页
